


Manzura Abjalova

# TAHRIR VA TAHLIL DASTURLARINING LINGVISTIK MODULLARI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI  
UNIVERSITETI**

**ABJALOVA MANZURA ABDURASHETOVNA**

**TAHRIR VA TAHLIL  
DASTURLARINING LINGVISTIK  
MODULLARI**

**Monografiya**

**"Nodirabegim" nashriyoti  
Toshkent – 2020**

**KBK: 81.32O‘z**

**A12**

**UO‘K: 811.512.133'42**

**ISBN 978-9943-6939-0-6**

**Abjalova, Manzura**

Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari. [Matn] : monografiya / M.A. Abjalova. - Toshkent: Nodirabegim, 2020. – 176 b.

Mazkur monografiyada kompyuter texnologiyalari yordamida matnlarni tahrir va tahlil qiluvchi dastur hamda tizimlarning yaratilish tarixi, imkoniyatlari, lingvistik modul va modullashning ahamiyati asoslangan, o‘zbek tilidagi matnlarni avtomatik tahlil qilish dasturining lingvistik modullari: grafematik tahrir, morfologik tahlil va sintaktik tahlil modullarining lingvistik ta’minotini yaratishning optimal tamoyillari, morfologik modulda ismlar va fe’l turkumi uchun morfonologik, orfografik qoidalari algoritmlari, so‘z turkumlarini formallashtirish qoidalari algoritmlari ishlab chiqilgan.

Monografiya filologiya va kompyuter lingvistikasi yo‘nalishida tahlil olayotgan talabalar, magistrantlar, doktorantlar, ilmiy izlanuvchilarga hamda matnni qayta ishslash (NLP) bilan bog‘liq muammolar bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

**Mas’ul muharrir:**

**Dadaboyev H.A.**

Filologiya fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

**Usmonova Sh.**

Filologiya fanlari doktori, professor

**Xolmonova Z.**

Filologiya fanlari doktori, professor

Monografiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashining 2020-yil 24-oktabrdagi 3-sonli yig‘ilishida nashrga tavsiya etilgan.

**© M.A. Abjalova.**

**© “Nodirabegim” nashriyoti, 2020.**

**Manzura Abjalova**

# **LINGUISTIC MODULES OF THE TEXT EDITING AND ANALYSIS PROGRAM**

Monograph

This monograph describes the history and possibilities of computer-assisted editing and analysis systems, as well as the scientific and theoretical description of the creation of linguistic modules of the Uzbek text analysis program, the degree of study of this problem in the field of natural language processing, automatic editing and analysis systems and technologies are analysed. Theoretical bases of formation of linguistic support of automatic editing and analysis system in Uzbek computer linguistics are created, optimal principles of automatic editing and analytical linguistic support are developed, based on the importance of linguistic module and modulation, Grammatical rules algorithm is developed.

The monograph is intended for students, doctoral students, researchers in the field of philology and computer linguistics, as well as a wide range of readers interested in the problems associated with text processing.

**Editor-in-Chief:**

**Dadaboyev H.A.**

doctor of philological sciences, professor

**Reviewer:**

**Usmonova Sh.**

doctor of philological sciences, professor

**Xolmonova Z.**

doctor of philological sciences, professor

## **QISQARTMA SO‘ZLAR RO‘YXATI**

Kompyuter lingvistikasi – KL  
Avtomatik tahrir va tahlil qilish – ATT  
Lingvistik modullar – LM  
Dasturiy ta’milot – DT  
Lingvistik ta’milot – LT  
Avtomatik tahrir va tahlil sistemasi – ATTS  
Grafematik tahrir – GT  
Morfologik tahlil – MT  
Sintaktik tahlil – ST  
Sintaktik tahlil moduli – STM

## KIRISH

Jahon tilshunosligida XX asrning 50-yillaridan til va matn muammolari bilan bog'liq masalalar kompyuter texnologiyalari yordamida hal qilinmoqda. Natijada matnni avtomatik tushunish, mashina tarjimasi, matnni referatlash (gipermatnni asosiy mazmunni o'zida saqlagan minimatnga keltirish, ya'ni matn hajmini qisqartirish, uni qisqa bayon holiga aylantirish), tasniflash (mavzu, uslub va janr jihatidan o'zaro yaqin matnlarni guruhlash), matnni tahrir va tahlil qilish, matnni generatsiyalash (bir nechta tabiiy tilga oid hujjatli matnlardan formula, texnik ishlanmalar, dasturiy tizimlarni yig'ish), matndan ma'lumotni olish, og'zaki nutqni kodli ma'lumotda berish va aksincha, yozma nutqni og'zaki nutqqa aylantirish, o'zga tillar lingvistik korpusini yaratish, ontologik lug'atlar bazasini shakllantirish kabi dolzarb masalalar kompyuter lingvistikasining mundarijasini egallagan va tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing / NLP) sohasida asosiy vazifa hamda yo'naliishlariga aylangan. Jumladan, matnni elektron hisoblash mashinalari vositasida tahrir qilish muammosi o'rjanila boshlandi, natijada zamonaviy axborot texnologiyalari dasturlari hamda tabiiy tilning grammatik qonuniyatlariga asoslangan matn tahrir va tahlillarining lingvistik ta'minotini yaratishga qaratilgan salmoqli tadqiqotlar yuzaga keldi. Bu asosda yuz bergen texnologik taraqqiyot dunyodagi yetakchi adabiy tillarda matnni kvantitativ tahrir va tahlil qilish tizimlarini yaratishga olib kelgani ma'lum.

Dunyo tilshunosligida avtomatik tahrirlash va tahlil qilish yo'naliishida imlo tekshiruvchi (spelling / spell checker), morfologik (morfoanalizator) va sintaktik tahlil qiluvchi (parsing) tizimlarning lingvistik ta'minotlari ishlab chiqilgan. Ular til materialini tahrir va tahlil qiluvchi tezkor hamda iqtisodiy tejamkor tizimlar va dasturlarning yaratilishiga asos bo'lishi barobarida mashina tarjimasi sifatini oshirishda ham muhim omil sanaladi. Zero, globallashuv va jadal rivojlanayotgan fan-texnika davrida katta hajmdagi axborot ustida tezlik bilan ishlash va samarali natija olish juda zarur. Shu ma'noda, dunyo tilshunosligi fani oldiga tilni lingvistik modellashtirish, so'zlarni lemmalash, tahrir va tahlil algoritmini tuzish hamda lingvoanaliz dasturining lingvistik modullarini yaratish vazifasi qo'yilmoqda.

O'zbek tilshunoslik sohasida XXI asrning boshlarida kompyuter lingvistikasi (KL) kursining universitetlarda o'quv jarayoniga joriy qilinishi globallashuv, optimallashuv va standartlashuv davrida tilning ijtimoiy ahamiyatiga e'tibor oshganligidan dalolat. Shuningdek, "...ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ushbu jarayonda iqtidorli

yoshlar ishtirokini, ijodiy g‘oya va ishlanmalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash”<sup>1</sup>ga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbek tilshunosligida matnlarni axborot texnologiyalari dasturlari orqali tanlash va uni qayta ishslash bo‘yicha bir qancha ish amalga oshirilgan bo‘lsa-da, bu yo‘nalishlardagi ilg‘or jahon tajribasini tadqiqotlarda samarali qo‘llash hamda matn tahrir va tahlillarining lingvistik ta’minotini yaratish ehtiyoji mavjud. Zero, “...endigi vazifamiz – ilmiy tadqiqotlarning natijalarini amaliyatga tatbiq etishga qaratilgan samarali mexanizmlarni yaratish, ilmfanni, ilmiy-innovatsion faoliyatni barqaror rivojlanadirish”dir<sup>2</sup>. O‘zbek KL rivojlanishining yangi yo‘liga kirgan, jahon KLDagi ilg‘or an’analarni tadqiq qilib, o‘z yo‘nalishiga singdirayotgan davrda KLning muammolarini to‘g‘ri belgilash va ularni ko‘rsata bilish katta muvaffaqiyatlar sari qo‘yilgan salmoqli qadamdir. Jumladan, ayni damda o‘z yechimini kutayotgan o‘zbekcha matnlarni avtomatik tarzda tahrir va tahlil qilish tizimining lingvistik ta’minoti (LT)ni yaratish soha mutaxassis oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi. Hozirgi davrda dunyo miqyosida matn bilan bog‘liq texnologiyalarning rivojlanganligi va lingvistik dasturlarning yuzaga kelganligi o‘zbek tili uchun yaratiladigan avtomatik tahrir va tahlil (ATT)ning taraqqiyoti hamda bugungi holatini o‘rganish, matn tahlili dasturining lingvistik ta’minotini tuzishning umumiyl tamoyillarini aniqlash, bu xususda yangicha yondashuvlar asosida tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijda kompyuter lingvistikasi sohasida matnlarni ATT qilish masalasi ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan<sup>3</sup>. J.Peterson xatolarni tekshiruvchi va ularni tuzatuvchi dasturiy ta’minot (DT)lar borasida so‘z yuritgan. Matnning avtomatik tahlil jarayonini lingvistik aspektida o‘rganish D.Jurafskiy nomi bilan bog‘liq. Olimning matnlarni avtomatik

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – B. 23. / [president.uz/uz/lists/view/137](http://president.uz/uz/lists/view/137)).

<sup>2</sup> Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. I jild.– Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B. 168-174.

<sup>3</sup>Peterson, James. Computer Programs for Detecting and Correcting Spelling Errors. 1980.; Do PradoH.A.Emerging Technologies of Text Mining: Techniques and Applications / Ed. by H. A. Do Prado, E. Ferneda. — Idea Group Reference, 2007. – 358 p.; Earnest, Les. The First Three Spelling Checkers. Stanford University. Archived from the original (PDF) on 22 October 2012.; Earnest, Les. Visible Legacies for Y3K (PDF). Archived from the original.; de Amorim, R.C.; Zampieri, M. Effective Spell Checking Methods Using Clustering Algorithms. Proceedings of Recent Advances in Natural Language Processing. Hissar, Bulgaria. 2013. – P. 172-178.; Zampieri, M.; de Amorim, R.C.Between Sound and Spelling: Combining Phonetics and Clustering Algorithms to Improve Target Word Recovery. Proceedings of the 9th International Conference on Natural Language Processing (PolTAL). Lecture Notes in Computer Science (LNCS). Springer.2014. – P. 438-449.

qayta ishlash, avtomatik tahlil borasidagi tadqiqotlari mahsuli<sup>4</sup> keyingi izlanishlarga tamal toshini qo‘ygan.

Avtomatik tahrirlash yo‘nalishida avtomatik tahrir qiluvchi dasturlar ishlab chiqilgan, ular ruscha, inglizcha, nemischa, fransuzcha, italyancha matnlarni tahrirlashga yo‘naltirilgan. Hatto tatar, boshqird, qozoq, qirg‘iz, ozarbayjon kabi turkiy tillarga mansub matnlar uchun morfologik va sintaktik analizatorlar yaratilgan, MS WORD sistemasiga avto-tahrir paketlari joylashtirilgan<sup>5</sup>. Bunday tahrirlash dasturlari, asosan, imloni tekshirishga mo‘ljallangan. Rus tilini avtomatik tahlil qilish yo‘nalishida R.G.Kotov, V.E.Berzon, V.G.Britvin, I.A.Melchuk, A.B.Kuznetsov, L.I.Belyayeva, V.A.Chijakovskiy, G.G.Belonogov, I.S.Duganova, L.L.Iomdin, E.K.Lavoshnikova, A.V.Sokirkо, I.M.Nojov, E.I.Bolshakova, D.V.Klishinskiy, N.N.Leonteva<sup>6</sup> va boshqalar samarali tadqiqot olib borishgan.

<sup>4</sup> Jurafsky D., Martin J. Speech and Language ProcessingAn Introduction to Natural Language Processing, Computational Linguistics, and Speech Recognition. – New Jersey: PrenticeHall, 2000. – 927 б.

<sup>5</sup> Орехов Б.В., Слободян Е.А. Проблемы автоматической морфологии агглютинативных языков и парсер башкирского языка [Текст] // Информационные технологии и письменное наследие: материалы международной научной конференции (Уфа, 28–31 октября 2010 г.) / отв. ред. В. А. Баранов. – Уфа. Ижевск: Вагант, 2010. – С. 167-171.; <http://lcph.bashedu.ru/index.php?go>. Орехов Б., Галлямов А. Башкирский морфологический анализатор (Электронный ресурс);; <http://my.ict.nsc.ru/~salerat/kaz/>. Программа генерации словоформ казахского языка.; <http://tamgasoft.kg/morfo/ru/>. Морфология кыргызского языка.; Сулейманов, Д. Ш. Синтаксический анализатор предложений татарского языка / Д. Ш. Сулейманов, А. Р. Гатиатуллин // Труды Математического центра имени Н. И. Лобачевского. – Казань, 1999. – Т. 4. – С. 111-126.

<sup>6</sup> Котов Р.Г. Лингвистические аспекты автоматизированных систем управления. – Москва: Наука, 1977. Он же. Прикладная лингвистика и информационная технология. – Москва: Наука, 1987.; Котов Р.Г., Якунин Б.В. Язык информационных систем. – Москва: 1989.; Он же. Оптимизация речевого воздействия. – Москва: Наука, 1990.; Берзон В.Е. и др. О разработки подсистемы редактирования выходного текста в рамках системы МП // Проблемы внутренней динамики речевых норм. – Минск, 1992, – С. 169-174; Бритвин В.Г. Прикладное моделирование синтагматической семантики научно-технического текста (на примере автоматического индексирования): Дисс. канд. филол.наук. – Москва: МГУ, 1983.; Мельчук И.А. Порядок слов при автоматическом синтезе русского слова (предварительные сообщения)/ Научно-техническая информация. 1985, № 12. – С. 12-36.; Беляева Л.И., Чижаковский В.А. Тезаурус в системах автоматической переработки текста. – Кишинев, 1983.; Белоногов Г.Г., Котов Р.Г. Автоматизированные информационно-поисковые системы. – Москва, 1968; Белоногов Г.Г., Дуганова И.С., Кузнецов А.Б. Экспериментальная система автоматизированного обнаружения и исправления ошибок в тексте / НТИ. Серия 2, 1984, № 3. – С. 20-25.; Иомдин Л.Л. Автоматическая обработка текста на естественном языке: модель согласования. – Москва: Наука, 1990. – 180 с.; Лавошникова Э.К. О «подводных камнях» в компьютерных системах проверки правописания // Вестник Московского университета. Серия 9. Филология. 2002, – № 6. – С.151-163.; Сокирко А.В. Семантические словари в автоматической обработке текста: По материалам системы ДИАЛИНГ: Дисс. ... канд.тех.наук. – Москва, 2001. – 120 с.; Ножов И.М.Морфологическая и синтаксическая

Turkiy tillarga mansub matnlarni statistik metodlar asosida lingvistik tahlil qilish sohasida R.G.Piotrovskiy, M.A.Mahmudov, A.A.Piotrovskaya, T.Sadikov ishlari diqqatga sazovor<sup>7</sup>. O‘zbek tili materiallari bo‘yicha KLga oid dastlabki tadqiqotlarni olib borgan olimlar H.Arziqulov, S.Rizayev va S.Muhamedovlardir<sup>8</sup>. Ular, asosan, KLning statistik tahlil yo‘nalishlari bo‘yicha nazariy va amaliy ishlarni amalga oshirgan.

H.Arziqulov o‘zining “Informatika i pererabotka teksta sredstvami vichislitelnoy texniki” (“Информатика и переработка текста средствами вычислительной техники”) nomli monografiyasida kompyuter yordamida katta hajmdagi matnlarga ishlov berishning avtomatik tizimi asoslarini tahlil qilgan. S.Muhamedov va R.Piotrovskiy hammuallifligida yozilgan “Injenernaya lingvistika i opit sistemno-statisticheskogo issledovaniya uzbekskix tekstov” (“Инженерная лингвистика и опыт системно-статистического исследования узбекских текстов”) nomli kitob, shuningdek, R.G.Piotrovskiy, T.Sadikovlarning ilmiy izlanishlarida lingvistik modellar, modellashtirish va uning umumiyligi tamoyillari haqida fikr yuritilgan, o‘zbekcha matnlarning kvantitativ modellari keltirilgan<sup>9</sup>. S.Muhamedov va R.Piotrovskiy hammuallifligidagi asarda sun’iy intellekt yaratish va injener lingvistikasi metodlari bilan o‘zbekcha nutqni avtomatik qayta ishlash jarayonida foydalanish uchun zarur bo‘lgan o‘zbekcha matnlarning leksik-morfologik tuzilishi statistik tahlili natijalari keltirilgan. S.Rizayevning “Kibernetika va tilshunoslik” asarida esa tilshunoslikda

---

обработка текста (модели и программы) сегментации русского предложения: Автореф. дисс. ...канд. филол.наук. – Москва, 2003.; Большакова Е.И., Клышинский Э.С. и др. Автоматическая обработка текстов на естественном языке и компьютерная лингвистика: учеб.пособие. – Москва: МИЭМ. 2011. – 272 с.; Леонтьева Н.Н. Автоматическое понимание текста: системы, модели, ресурсы: учеб.пособие. – Москва: Академия. 2006. – 304 с.

<sup>7</sup>Махмудов М.А., Пиотровская А.А., Садыков Т. Система системного анализа и синтеза тюркской словоформы / Переработка текста методами инженерной лингвистики. – Минск, 1982.; Пиотровский Р.Г. и др. Методы автоматического анализа и синтеза текста. – Минск: Высшая школа, 1985.

<sup>8</sup>Арзикулов Х.А., Пиотровская К.Р. Информатика и переработка текста средствами вычислительной техники (учебное пособие). – Самарканд, 1986.; Rizayev S. O‘zbek tilining lingvostatistik tadqiqi: Filol. fan. dok. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – 50 b.; Shu muall. O‘zbek tilshunosligida lingvostatistika muammolari (monografiya). – Toshkent: Fan.2005. – 295 b.; Мухамедов С.А. Статистический анализ лексико-морфологической структуры узбекских газетных текстов: Автореф. дис. ...канд.филол.наук. – Тошкент, 1980. – 25 с.

<sup>9</sup>Мухамедов С.А., Пиотровский Р.Г. Инженерная лингвистика и опыт системно-статистического исследования узбекских текстов. – Т.: Фан, 1986.; Пиотровский Р.Г., Садыков Т. Проблемы моделирования тюркской морфологии в инженерной лингвистики. // В кн.: II научные чтения, посвященные памяти академиков И.А.Батманова, К.К.Юдахина, Б.М.Юнусалиева (тезисы докладов сообщений, 18-19 октября 1983 г.). – Фрунзе: Илим, 1983. – С.44-46.; Садыков Т. Проблемы моделирования тюркской морфологии. – Фрунзе, 1987.

aniq metodlarning qo'llanilishi, bunda kompyuterdan foydalanish, til va nutq hodisalariga statistik yondashishning sabablari, matnlarni avtomatik qayta ishlash, mashina tarjimasi muammolari, shuningdek, harflarning qo'llanilish chastotasini aniqlashda kompyuterning o'rni borasidagi ma'lumotlar keltirilgan<sup>10</sup>. M.K.Ayimbetov statistik metodlardan foydalangan holda turkiy tillar – o'zbek, qozoq va qoraqalpoq tillari morfologiyasini modellashtirish orqali ularning qarindosh tillar ekanligini isbotlab, ushbu tillarning kvantitativ tipologiyasini ishlab chiqqan bo'lsa, X.F.Isxakova turkiy tillarning formal morfologiyasini tadqiq qilish bo'yicha samarali izlanish olib borgan<sup>11</sup>.

XXI asr boshiga kelib o'zbek va ingliz tillarida bir qator izlanishlar qilgan, o'zbek KL rivojiga salmoqli ulush qo'shgan A.Po'latov boshchiligidagi o'zbek tilshunosligiga oid masalalarni kompyuter vositasida hal etishga bag'ishlangan bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyalari himoya qilindi, o'nlab ilmiy maqolalar chop etildi, o'quv qo'llanmalar yaratildi<sup>12</sup> va kitoblar nashrdan chiqarildi<sup>13</sup>. Ayniqsa, fe'l turkumini formallashtirish, ularning modelini ishlab chiqish va fe'llar asosida lingvistik ta'min yaratishga bag'ishlangan talay ishlar dunyo yuzini ko'rди<sup>14</sup>. So'nggi yillarda M.X.Xakimov rahbarligida "Tarjimon L-MX" sistemasi uchun bajarilgan taddiqot ishlarida o'zbek va rus tillarining leksik-sintaktik tahlili berilgan<sup>15</sup>. Sh.Xamroyeva, N.Abdurahmonova va

---

<sup>10</sup> Rizayev S. Kibernetika va tilshunoslik. T., 1976. – B.16.

<sup>11</sup> Айымбетов М.К. Проблемы и методы квантитативно-типологического измерения близости тюркских языков (на материалах каракалпакского, казахского и узбекского языков): Автореф.дисс. ...д-ра филол.наук. – Т., 1997. – 47 с.; Он же. Квантитативная типология тюркского текста (сборник выбранных статей). – Нукус.: Илим. 2012.; Исхакова Х.Ф. Исследования в области формальной морфологии тюркских языков (на материале татарского литературного языка в сопоставлении с турецким и узбекским). Дис. канд. филол.наук. – М., 1972.

<sup>12</sup>Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi (metodik qo'llanma). – Toshkent, 2007.; Po'latov A., Muhamedova S. Kompyuter lingvistikasi (o'quv qo'llanma). – Toshkent, 2008 – 98 b.

<sup>13</sup>Po'latov A. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – 520 b.; Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr. 2011. – 160b.; Norov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Qarshi, 2017. – 136 b.

<sup>14</sup>Пўлатов А.Қ., Алиходжаев Б., Джураева Н. Разработка программы компьютерного анализа и синтеза глаголов узбекского языка // О'зМУ хабарлари. – Toshkent, 2002. №2. – С. 17-19.; Po'latov A.Q., Mo'minova T., Po'latova I.O. Dunyoviy o'zbek tili (O'zbek tilida fe'lning shakllari va ularning rus, ingliz tillarida berilishi). – Toshkent: Universitet, 2003. – 404 b.; Muhamedova S. O'zbek tilidagi harakat fe'llari asosida kompyuter dasturlari uchun lingvistik ta'min yaratish. – Toshkent, 2006. – 80 b.

<sup>15</sup>Хакимов М.Х. Расширяемый входной язык математического моделирования естественного языка для многоязычной ситуации машинного перевода // ЎзМУ хабарлари, 2009. № 1. – С.75-80.

D.O‘rinboyeva<sup>16</sup>lar izlanishlarida matnlarni tahlil qilish bo‘yicha muayyan fikrlar berilgan, bu jihat lingvistik dasturlarni yaratishda lingvistik modullarni ishlab chiqishning muhim ahamiyatga egaligini belgilab bergen.

Yuqorida tilga olingan tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlari natijasi o‘laroq matnlarni ATT qilishga doir yetarlicha nazariy bilim hamda muayyan tajribalar to‘plandi. Ularga asoslangan holda mazkur tadqiqotda dastlabki tashabbus – o‘zbek KLda avtomatik tahrirlovchi dasturni yaratish (Ubuntu Linux operatsion tizimida – *Uztextanalysis*) uchun harakat qildik. Ma’lumki, o‘zbek tilshunosligida ham, adabiyotshunoslik sohasida ham o‘zbek tilidagi matnlarning badiiy tahlili va tahriri inson tomonidan amalga oshirib kelinmoqda. Ammo bugungi kunda insonning matn tahriridagi ishtirokini talab qilmaydigan kompyuter dasturlari yaratilmagan, bu borada chuqur ilmiy izlanishlar amalga oshirilmagan. Shu kunga qadar kompyuter dasturchilari tomonidan chiqarilgan tahrir dasturlari (kirill yozuvidagi matnlarni tahrirlovchi) o‘zining ilmiy-nazariy asosiga ega emasligi va nomukammalligi bois foydalanuvchilar e’tiborini torta olmadi. A.Nurmonov shunday deydi: “O‘tgan yarim asrlik vaqt mobaynida kompyuter lingvistikasi sohasida bir qator ilmiy va amaliy natijalarga erishilgan: tabiiy tilda avtomatik tarjima tizimi yaratildi, matndagi ma’lumotlarning avtomatik qidiruv tizimi ishlab chiqildi, og‘zaki nutqning avtomatik analizi va sintezi tizimi yaratildi, bir qator lingvistik ma’lumotlarni hal etuvchi kompyuter dasturlari ishlab chiqildi, inson va mashina (kompyuter) muloqoti optimallashtirildi, tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing) tizimi shakllantirildi”<sup>17</sup>. Ma’lum bo‘ladiki, mazkur tadqiqot o‘zbek kompyuter lingvistikasida avtomatik tahrir va tahlil qiluvchi dasturni yaratish borasida yozilayotgan ilk ilmiy ish hisoblanadi. Bajariladigan tadqiqot Respublikada olib borilayotgan ilmiy ishlar bilan hamohang bo‘lib, o‘zbek tilshunosligida kompyuter texnologiyalarining o‘rnini masalalariga chuqur e’tibor qaratiladi.

Matnlarni avtomatik tahlil qiluvchi dasturlar lingvistik modullarining yaratilishi mukammal dasturlar ishlab chiqilishiga zamin yaratadi, bu esa o‘zbek adabiy tilidagi matnlarning savodli tayyorlanishiga xizmat qiladi.

<sup>16</sup>Xamroyeva Sh. O‘zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari: Filol.fan.bo‘yicha falsafa doktori (PhD)...dis. avtoref. – Qarshi, 2018. – 53 b.; Abdurahmonova N. Inglizcha matnlarni o‘zbek tiliga tarjima qilish dasturining lingvistik ta’minoti: Filol.fan.bo‘yicha falsafa doktori (PhD)...dis. avtoref. – Toshkent, 2018. – 47 b.; O‘rinboyeva D. Xalq og‘zaki ijodi: janriy-lisoniy va lingvostatistik tadqiq muammolari: Filol. fan. bo‘yicha dokt. (DSc) ... diss. avtoref. – Samarqand, 2019. – 74 b.

<sup>17</sup> Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr. – B.3.

# I BOB. KOGNITIV TADQIQOTLAR PARADIGMASIDA MATN TAHRIRI VA TAHLILI

## 1.1. Hozirgi tilshunoslikda kognitiv paradigma

Ilm-fan, jumladan, tilshunoslikning rivojlanishida ilmiy paradigmalarning bosqichma-bosqich o‘zgarishi kuzatiladi. “Ilmiy bilimlar paradigmasi” termini T.Kun tomonidan muomalaga kiritilgan bo‘lib, olim paradigmani “barcha odamlar tan olgan ma’lum vaqt davomida ilmiy jamoatchilikka muammolarni hal qilish modeli va ularning yechimlarini taqdim etadigan ilmiy yutuqlar”<sup>18</sup>, deb baholaydi. Tilshunoslik tarixida uchta ilmiy paradigma farqlanadi: qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur va kognitiv (antropotsentrik)<sup>19</sup>.

Qiyosiy-tarixiy paradigma XI-XIX asrlarda tilni tadqiq qilishda qiyosiy-tarixiy metodning hukmronlik qilishi bilan bog‘liq. Sistem-struktur paradigma bilish obyektiga, so‘zga diqqatni tortishi bilan xarakterlanadi. Kognitiv paradigma antropotsentrik tamoyilga asoslanadi va “til inson tomonidan yaratilgan bo‘lib, uning yaratuvchisi hamda foydalanuvchisi bilan bog‘liqsiz ravishda uni tushunib ham, tushuntirib ham bo‘lmaydi”<sup>20</sup>, degan tushunchaga asoslanadi.

Bugungi kunda til aniq maqsadlarga erishmoqchi bo‘lgan odamlarning o‘zaro muloqot qilish va o‘zaro tushunish vositasi bo‘lib xizmat qilishda davom etmoqda. Shu sababli zamonaviy til konsepsiyalarini, xususan, kognitiv tilshunoslikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Kognitiv ilm XX asrning 60-yillari o‘rtalarida Yu.D.Apresyan, A.Vejbitskaya, E.S.Kubryakova, Dj.Lakoff kabi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida shakllangan<sup>21</sup>. Kognitiv tilshunoslik uzoq

<sup>18</sup> Кун Т. Структура научных революций. – М.: Прогресс, 1977. – С. 11.

<sup>19</sup> Ныгметова Б.Д. Когнитивная парадигма в современной лингвистике. [www.rusnauka.com](http://www.rusnauka.com)

<sup>20</sup> Кравченко А.В. Язык и восприятие: Когнитивные аспекты языковой категоризации. – Иркутск: Изд-во Иркутского ун-та, 1996. – С. 6.

<sup>21</sup> Апресян, Ю.Д. Исследования по семантике и лексикографии. Т. I: Парадигматика. – Москва: Языки славянских культур, 2009.; Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. Пер. с англ., отв. ред. М. А. Кронгауз, вступ. ст. Е. В. Падучевой. – Москва: Русские словари, 1996. – 416 с.; Она же. Сопоставление культур через посредство лексики и pragmatiki. – Москва: Языки славянской культуры, 2001. – 272 с.; Кубрякова Е.С. Семантика в когнитивной лингвистике. // Известия РАН. – Сер. лит. и яз. 1999. – Т. 58. – № 5-6. – С. 3-12.; Она же. Начальные этапы становления когнитивизма: лингвистика, психология, когнитивная наука / Е. С. Кубрякова // Вопросы языкоznания. 1994. – №4.; Она же. Язык и знание. На пути получения знаний о языке: части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. Рос. академия наук. Ин-т языкоznания. – Москва: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с. – (Язык. Семиотика. Культура); Лакофф Дж. Лингвистические гештальты. В кн.: Новое в зарубежной лингвистике. Москва: Прогресс, 1981. Вып. X. – С. 350-368.

vaqt davomida bir-biri bilan nisbatan aloqasi bo‘lgan yoki umuman aloqasi bo‘lmagan individual tadqiqotlar to‘plamidir<sup>22</sup>. Ammo ko‘p tadqiqotlar til bo‘yicha amalga oshirilgan ilmlar bog‘liqligi, idrok qilish subyekti, fikrlash, xatti-harakat va amaliyot bilan bir qatorda tilda tushuncha, tasavvur, tasvir, subyektiv va etnik omillar bilan haqiqiy dunyoni aks ettirishda qarashlar birlashganini ko‘rsatadi. Demak, kognitiv paradigma tilga tubdan yangi yondashuvni talab qiladi. Dunyoning konseptual tasviri (manzarasi)ni shakllantirish mexanizmlari va alohida tushunchalar, shuningdek, ularni tilda obyektivlashtirish kognitiv paradigmanning asosiy tadqiq yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tilni o‘rganishga kognitiv yondashuv bilimlarni (matn yoki nutq shaklida ifoda etilgan) tushunishga erishish zarurati bilan bog‘liq. Bunda tushunish jarayonini murakkablashtiradigan yoki soddalashtiradigan ekstralivingistik omillar hisobga olinadi va tahlil qilinadi.

O‘tgan asrning 70-yillarida kognitologiya doirasida bilimlarni namoyon qiluvchi tillar va ular bilan ishlash tamoyillari (konseptual tushunchalar qoidalari) ishlab chiqildi. Kognitiv bilimlar sohasida tabiiy tilni tushunish uchun kompyuter modellarini yaratish maqsadida ko‘plab tadqiqotlar olib borildi, tilshunoslar bunday tadqiqotlarda kuzatuvchi yoki bevosita ishtirokchi sifatida qatnashdilar. Natijada tilshunoslarning tilga oid materiallarni fikrlash jarayonlari haqidagi ma’lumotlarga mos keltirish borasidagi azaliy ehtiyojlari o‘sha paytda semiotik kategoriyalar bilan fikrlaydigan hisoblash texnikasi (EHM) va informatika mutaxassislari tomonidan qondirildi.

Shu yillarda sun’iy intellektda A.Nyuell va G.Saymonlarning “axborotga ramziy ishlov berish”ning (symbolic processing) semiotik paradigmasi ustunlik qildi. Massachusetts texnologiyalar institutining sun’iy intellekt laboratoriyasi rahbari P.Uinston “hisoblash mashinasini tabiiy tilni tushunishga majburlash – bu aqlni yaratish bilan barobar”ligini ta’kidladi<sup>23</sup>. Shundan so‘ng kompyuterli modellashtirish fanga kirib kela boshladи.

Shubhasiz, tabiiy tilni tushunadigan dasturlarning yaratilishi tilning funksional xususiyatlari, xotira nazariyasini ishlab chiqish, bilim tuzilmalarini ko‘rib chiqish, muloqot grammatikasini o‘rganish va ong tabiat falsafiy tadqiqoti haqidagi savollarga javob beradi<sup>24</sup>.

---

<sup>22</sup>Ныгметова Б.Д. Когнитивная парадигма в современной лингвистике. [www.rusnauka.com](http://www.rusnauka.com)

<sup>23</sup> Ныгметова Б.Д. Когнитивная парадигма в современной лингвистике. [www.rusnauka.com](http://www.rusnauka.com)

<sup>24</sup> Ныгметова Б.Д. Когнитивная парадигма в современной лингвистике. [www.rusnauka.com](http://www.rusnauka.com)

R.Shenk sun’iy intellekt, fikrlash va o‘zini tushunishga bag‘ishlangan maqolasida shunday yozadi: “Sun’iy intellekt tafakkurni tushunishga oid umumiyligi intilishning bir qismi hisoblanadi. Biz bunday harakatlarga muhim hissa qo‘shishiga ishonamiz va ular ilm-fanimizning maqsadidir. Biz yozgan dasturlar natija emas, balki tajriba berdi. Bizni qiziqtiradigan narsa intellekt hisoblanadi, artefakt<sup>25</sup> (P.S. sun’iy yaratilgan obyekt) emas. Erishilgan natijalardagi yutuqlarimiz, shubhasiz, kundalik hayotning zarur qismiga aylanadigan avtomatik hamkorlarga yo‘l ochadi”<sup>26</sup>. R.Shenk fikriga qo‘shimcha ravishda aytish mumkinki, KLda erishilgan natijalardagi yutuqlar, shubhasiz, kelajakda ish-faoliyatni avtomatlashtirishga xizmat qiladi.

Kognitologiya fanining asosiy vazifasi aqliy tasavvur qoidalari va mantiqiy xulosalar qonuniyatlariga tayangan holda tabiiy til tizimini “qayta ishlash”ning talab va haqiqatga mos nazariyasini yaratish hisoblanadi. Shunday g‘oyalar zamirida matnlarni qayta ishlashga bo‘lgan ehtiyoj oshib bordi va sun’iy intellekt tizimida lingvistik bazalar yuzaga kela boshladи.

O‘rganilgan manbalar asosida aytish mumkinki, KL yo‘nalishlarining amaliy natijalariga erishish maqsadida yaratilayotgan modellashtirish, formallashtirish va sun’iy intellekt tizimini rivojlantirish jarayonlari kognitiv paradigmalar ta’sirida voqelanadi.

Informatsion olamning kengayishi va insonlarning qulaylikka hamda tezkorlikka intilishi bois deyarli barcha sohada foydalanuvchiga qulaylik yaratuvchi lingvistik dasturlarga talab yanada oshib bormoqda. Avtomatik tahrir va tahlil kompyuter lingvistikasining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u kompyuterdagи matn muharrirlari (Microsoft Word, Excel, Wordpad, Lexicon) rivojlanishi bilan bog‘liqidir. Ayni damda tahrir va tahlil dasturining lingvistik asosi hisoblanmish lingvistik modullarni grafematik, morfologik, sintaktik va semantik bosqichlarda ishlab chiqish kabi masalalar ustuvor ahamiyat kasb etib bormoqda. Kompyuter lingvistikasi fanining asosiy maqsadi ham lingvistik masalalarni hal qilish uchun kompyuter dasturlarini yaratish<sup>27</sup> va lingvistik ta’minotni shakllantirishdir.

XX asr oxirida faqat elektron shaklda mavjud bo‘lgan matnlar va hujjatlar soni ko‘paygan va ma’lumotlarni qayta ishslash bilan bog‘liq

<sup>25</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki/Артефакт>

<sup>26</sup> Schank R.C., Hunter L. The quest to understand thinking // Byte. 1985, apr. – P. 155

<sup>27</sup> Новое в зарубежной лингвистике. Вып.24. Компьютерная лингвистика. – Москва: Прогресс, 1989, – С.10.

texnologiyalarni rivojlantirishni talab qilgan. Tabiiy tildagi hujjatlarni qayta ishlash (NLP – “Natural Language Processing”) insonlarga elektron matnlardan foydalanish va hujjatlarni osongina topish hamda qayta ishlashga yordam beradigan yangi texnologiyalar demakdir<sup>28</sup>. Shunday texnologiyalardan sanalgan matn tahlilining DTini yaratish bo‘yicha rus KLda samarali izlanishlar olib borilgan. Ushbu sohada bir qator nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari yoqlangan. Bu tadqiqotlar, asosan, EHM mutaxassislari tomonidan amalga oshirilgan. Shunday bo‘lsa-da, ular rus tilining nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq qilishga munosib hissa qo‘shgan. Xususan, KLda avtomatik tahlilning umumiy masalalari, modellashtirish prinsiplari<sup>29</sup>, morfologik tahlil<sup>30</sup>, sintaktik<sup>31</sup> va semantik tahlil<sup>32</sup>, tahlil birliklari, tabiiy tildagi matnlarni avtomatik tushunish nazariyasi<sup>33</sup>, matnni tahlil qilish bosqichlari, morfologik analiz va sintez, tabiiy tildagi matnni qayta ishlashga bag‘ishlangan bir qator asarlar maydonga keldi. Jumladan, E.I.Bolshakova lingvistik va matematik modellashtirish nazariyasiga to‘xtaladi, avtomatik tahlilning lingvistik obyektlari va birliklarini tadqiq qiladi. N.N.Leonteva matnlarni avtomatik tushunishni amalga oshiruvchi rus va xorijiy tizimlarning yaratilish tajribasini o‘rganadi va asosiy e’tiborni sifatli ishlanmalarga qaratadi. Ushbu olimlarning xizmati shundaki, ular avtomatik tahrir qiluvchi dasturlar uchun lingvistik ta’min yaratib berishgan. Buning natijasida kompyuterlardagi ruscha va inglizcha matnlarni tahrirlovchi va lingvistik

<sup>28</sup> Баскакова И.Л., Глухов В.П. Практикум по психолингвистике / Учебное пособие. – Москва: Астрель, 2008. – С. 315.

<sup>29</sup> Ягунова Е.В. Основы теоретической, вычислительной и экспериментальной лингвистики / Е.В.Ягунова // Автоматическая обработка текстов на естественном языке и компьютерная лингвистика: учебное пособие / Е. И. Большаякова [и др.]. – Москва: МИЭМ, 2011. – 272 с. – С. 7-89.

<sup>30</sup> Клышинский, Э. С. Начальные этапы анализа текста / Э. С. Клышинский // Автоматическая обработка текстов на естественном языке и компьютерная лингвистика: учебное пособие / Е. И. Большаякова [и др.]. – Москва: МИЭМ, 2011. – 272 с. – С. 106-140.; Марчук, Ю. С. Компьютерная лингвистика / Ю. С. Марчук. – Москва, 2007. – С. 60-70.

<sup>31</sup> Компьютерный синтаксический анализ: описание моделей и направлений разработок / Г. Д. Карпова [и др.] // Итоги науки и техники. Серия «Вычислительные науки». Т. 6. – Москва, 1991. – 243 с.; Иорданская, Л. Н. Автоматический синтаксический анализ. Т. 2. Межсегментный синтаксический анализ / Л. Н. Иорданская. – Новосибирск, 1967. – 231с.; Мельчук, И. А. Автоматический синтаксический анализ. Том 1. Общие принципы. Внутрисегментный синтаксический анализ. / И. А. Мельчук. – Новосибирск, 1964. – 360 с.

<sup>32</sup> Апресян, Ю.Д. Исследования по семантике и лексикографии. Т. I: Парадигматика. – Москва: Языки славянских культур, 2009.; Сокирко А.В. Семантические словари в автоматической обработке текста: По материалам системы ДИАЛИНГ: Дисс. ... канд. тех. наук: – Москва, 2001. – 120 с.

<sup>33</sup> Леонтьева Н.Н. К теории автоматического понимания естественных текстов. – Москва: МГУ, 2000. – 304 с.

tahlil qiluvchi dasturlar ishlab chiqilgan. Bunday dasturlar bugungi kunda barcha kompyuterlarda mavjud.

Bugun o‘zbek tilidagi matnlarni tahrir qilish inson mehnati bilan amalga oshirilmoqda, bu esa o‘z navbatida matnlarni tahrirlashga ketadigan vaqtning ko‘p sarf qilinishi, iqtisodiy harajatlarning oshishi, inson tomonidan yo‘l qo‘yiladigan xatoliklarning yuzaga chiqishiga olib kelmoqda. Shu bois o‘zbekcha matnlarni tahrir va tahlil qiluvchi dasturning lingvistik ta’minotini yaratish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

## **1.2. Kompyuter lingvistikasida modul**

Ilm-fanning rivojlanishi, yangiliklarning ko‘payishi, innovatsion texnologiyalarning taraqqiy etishi natijasida tilga tashqi manba hisobiga yangi terminlar kirib kelmoqda, terminlardan foydalanish ko‘lamni kun sayin ortmoqda. Xorij kompyuter lingvistikasida faol iste’molda bo‘lgan *modul* termini o‘zbek kompyuter lingvistikasiga ham kirib, uning terminologiyasini boyitdi.

Dunyoda ko‘p foydalanuvchilariga ega “Vikipediya” xalqaro ochiq ensiklopediya saytida “modul” terminining ma’lum sohalari doirasidagi ahamiyati qayd etilgan<sup>34</sup>. Chunonchi, informatikada: 1) modul – dastur fayli; 2) modul – kodni tashkil qiluvchi obyekt; 3) modul – kompyuter sovutadigan sistema jamlanmasi; 4) MOD musiqiy fayl formati;

matematikada: 1) absolyut balandlik; 2) vektor moduli; 3) avtomorfizm moduli; 4) bir sistemadagi logarifmni boshqa sistemadagi logarifmga o‘tkazish koeffitsienti, shuningdek, kattalikning absolyut qiymati va h.k.;

mehanikada: 1) Yung moduli; 2) elastiklik moduli; 3) siljish moduli va h.k.

Boshqa sohalarda: modul – dasturning tugallangan funksional qismi; modulli o‘qitish – zamonaviy ta’lim, ya’ni bilim darajasi bo‘yicha bosqichma-bosqich o‘qitish va h.k.

Kompyuter lingvistikasida *lingvistik modul* termini bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Boisi tabiiy tilning kompyuter tiliga o‘tkazilishi, ya’ni kompyuter tizimi orqali matnga ishlov berish yo‘llarining yaratilishi kuzatilmoqda. Buning uchun chet tillarning lingvistik dasturlari ishlab chiqilgan va bugungi kunda ular takomillashtirilmoqda. Lingvistik modul ana shunday lingvistik

---

<sup>34</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki/Модуль>

dasturlarning *mustaqil tarkibiy qismlari*<sup>35</sup>, ya’ni dasturiy ta’minotning muayyan lingvistik jarayonini qamragan qismi hisoblanadi. Lingvistik ta’minot, boshqacha aytganda, lingvistik protsessor ushbu qismlar majmuini tashkil etadi. Leksik modulda lug‘at qatlami qurshab olinsa, grafematik modulda ramzlar, tinish belgilar, harfiy va boshqa belgilar tahrir qilinadi, orfografik modulda imlo qoidalari, morfologik modulda so‘zshakllar analizi (so‘zshakldan leksemaga qadar tahlil) va sintezi (leksemaning grammatik shakllanishi tahlili jarayoni), sintaktik modulda supersintaktik birlik – gap yoki so‘zlarning o‘zaro bog‘lanish hodisasi tahlil qilinadi.

LMlar qanchalik aniq bo‘lsa, dasturning mukammalligi shunchalik chuqur bo‘ladi. Lingvistik dasturlarning LMlarini yaratishda adabiy til me’yorlari asos vazifasini o‘taydi.

Kompyuter lingvistikasi taraqqiyoti davomida matnni qayta ishlash dasturlarining algoritmlarida tilda mavjud har bir lingvistik tushunchaga ramz (simvol) berilgan bo‘lib, bugungi kunga kelib, bunday ramzlar umumqabul qilingan belgilar sifatida foydalaniladi.

Tahrir va tahlil dasturi bazasida xalqaro iste’molga kirgan lingvistik tushunchalarining maxsus belgilarga ega lingvistik birliklaridan foydalanildi. Quyida mazkur lingvistik birliklarning umumiyligi simvollari berildi, ish davomida ular xususiylashtiriladi:

- 1) ot – *N* (noun), ko‘plik shaklidagi ot – *N<sub>s</sub>*, turdosh ot – *N<sub>com</sub>*, atoqli ot – *N<sub>prop</sub>*, otli birikma – *NP*;
- 2) sifat – *Adj* (adjective), sifatli birikma – *AdjP*;
- 3) son so‘z turkumi – *Num* (numeral);
- 4) fe’l – *V* (verb), o‘timli fe’l – *V<sub>t</sub>*, o‘timsiz fe’l – *V<sub>I</sub>*, fe’lning predikativ (shaxsli shakli – finite form) shakli – *V<sub>p</sub>*, fe’lning noprerekativ shakli (shaxssiz shakli – nonfinite form) – *V<sub>np</sub>*, *Vh* – harakat nomi, *Vs* – sifatdosh, *Vr* – ravishdosh, fe’lli birikma – *VP*, yordamchi fe’llar – *Vaux*;
- 5) ravish – *Adv* (adverb);
- 6) olmosh – *Pron* (pronoun);
- 7) ko‘makchi – *RostP* (postposition);
- 8) bog‘lovchi – *Conj* (conjunction);
- 9) yuklama – *Part* (particle);
- 10) modal so‘zlar – *Mod (modal)*;
- 11) undov so‘zlar – *Interj* (interjection);
- 12) taqlid so‘zlar – *Mim*.

---

<sup>35</sup> Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода // Вопросы языкознания. – Москва, 1994. – № 4. – С. 22.

So‘z turkumlarining lingvistik modulini yaratishda amaliy natijaga erishish maqsadida, avvalo, ularga shakl yasovchi affikslar va ularning kombinatsiyasi so‘zlarga biriktirilib, lingvistik bazaga kiritish optimal yo‘l, deb olindi. Zero, so‘z yasovchi affikslar salmoqli miqdorni tashkil etadi. Ishning dastlabki bosqichi tugallangach, kelajakda so‘z yasovchi affikslar va ularning aranjirovkasi ham qamrab olinishi ko‘zda tutildi. Ammo bu jihat yasama so‘zlardan voz kechildi, degani emas. *Sanoq* (*son → sana + q*), *o‘roq* (*o‘r+oq*), *o‘quvchi* (*o‘qi+v+chi*), *anglamoq* (*ong+la*) kabi yasama so‘zlar “avtomatik hosila”<sup>36</sup> sifatida lingvistik ta’midotga kiritiladi. *Son* ot, *sanoq* sifat, *o‘r fe’l*, *o‘roq* ot, *o‘qi fe’l*, *o‘quvchi* ot, *ong* ot, *angla* fe’l turkumiga oid so‘zlar sifatida olinadi. Bunda so‘zlarga yasovchi affikslar qo‘shilganda o‘zakda ro‘y beradigan fonetik hodisalarga alohida e’tiborning kamayishi va ish hajmi kengayishining oldi olinadi.

Ma’lumki, til o‘zgaruvchan va har bir tilning o‘z lug‘at boyligi mavjud. Ammo hajm qanchalik katta bo‘lsa, aniqlik shunchalik mavhumlashadi. Har bir so‘zning qo‘llanish shakllarini model qilib dasturga kiritish mushkul vazifa. Birgina ot turkumiga oid so‘zlarning shakllarini aniqlash tilshunosdan ancha diqqat va mehnatni talab etadi. Maqsadga tezroq erishish uchun har bir turkumning lingvistik moduli yaratildi, ya’ni lingvistik shakllar kategorial tarzda modellashtirildi. So‘ngra o‘sha kategoriyalarga birikish ehtimolidagi affikslar va ularning kombinatsiyalari guruhlandi. Jumladan, ot turkumini modellashtirishda o‘zak so‘zlarga qo‘shiladigan affikslar quyidagicha belgilanadi:

- qarashlilik affiksi: q\_a= *-niki*;
- o‘rin-joy oti affiksi: u\_j= *-dagi*;
- chegaralash affiksi: ch\_q[3]= {*-gacha*, *-kacha*, *-qacha*};
- ko‘plik affiksi: Pl\_a= *-lar*;
- kelishik affikslari (variantlari bilan): k\_a[7] ={*-ning*, *-ni*, *-ga*, *-ka*, *-qa*, *-da*, *-dan*};
- egalik affikslari: e\_a[9]={*-m*, *-im*, *-ng*, *-ing*, *-lari*, *-miz*, *-imiz*, *-ngiz*, *-ingiz*};
- substantiv shakl yasovchi affiks: sh\_y= *-lik*;
- shaxs-son kategoriyasining 1-tur affiksi: sh\_s1[-*man*, *-san*, *-miz*, *-siz*; *-simiz*, *-sisiz*]
- affiksli yuklamalar: *-mi*, *-chi*, *-gina*, *-kina*, *-qina*, *-dir*, *-u*, *-yu*, *-da*, *-a*, *-ya*.

<sup>36</sup> “Avtomatik hosila” bu so‘zlarga qo‘shimchalar qo‘shish jarayonida hosila so‘zda ro‘y beradigan tovush o‘zgarishlarining lingvistik ta’midotda aynan saqlanishidir.

Keltirilgan affikslarni o‘zakka biriktirish modeliga quyidagi misollarni keltirish mumkin (A=assos, N=hosila so‘z):

1. N=A $\cup$ q\_a; bolaniki= bola $\cup$ niki
2. N=A $\cup$ u\_j; boladagi= bola $\cup$ dagi
3. N=A $\cup$ ch\_a[1]; bolagacha= bola $\cup$ gacha
4. N=A $\cup$  Pl\_a; bolalar= bola $\cup$ lar
5. N=A $\cup$ k\_a[7]; bolaning= bola $\cup$ ning
6. N=A $\cup$ e\_a[6]; bolam= bola $\cup$ m
7. N=A $\cup$ k\_a $\cup$ e\_a[6]; bolalarim=bola $\cup$ lar $\cup$ im
8. N=A $\cup$ k\_a[6]; bolamga=bola $\cup$ m $\cup$ ga
9. N=A $\cup$ Pl\_a $\cup$ e\_a[6]  $\cup$  k\_a[6]; bolalarimga=bola $\cup$ Pl\_a; lar $\cup$ e\_a[6]; m $\cup$ k\_a[7]; ga
10. N=A $\cup$ e\_a[6]  $\cup$ u\_j; bolamdag= bola $\cup$ m $\cup$ dagi.

Modellashtirish shu tartibda davom ettiriladi.

Matn tahriri va tahlilini amalga oshiruvchi dasturning lingvistik bazasini yaratishda har bir so‘zning affikslar bilan kelish holati alohida-alohida ko‘rib chiqilsa, katta yutuqlarga erishilgan bo‘ldi. Ammo bunga ko‘p vaqt va jismoniy mehnat talab qilinishi hisobga olinib, ishning optimal varianti o‘ylab chiqildi. Bunda har bir turkum doirasidagi so‘zlar, ya’ni turkum tarkibi umumi semantikasi bo‘yicha ma’no guruhlariga ajratildi. Shuni nazarda tutib, ot turkumidagi so‘zlar semantikasi va affikslar kombinatsiyasini o‘ziga biriktirishdagi yaqinliklar hisobga olinib, ma’no guruhlariga taqsimlandi. Shuningdek, tadqiqot davomida an’anaviy tilshunoslikda berilgan lingvistik me’yorlar o‘zbek tili so‘z turkumlari modulida leksik-grammatik kodni shakllantirish maqsadida fonologik, morfonologik va orfografik qoidalar algoritmi tuzildi.

### **1.3. Matn tahriri va tahlilini amalga oshiruvchi dasturiy sistemalar**

Matnlarni lingvistik tahrir qilish jarayoniga azaldan asosiy filologik masala sifatida qaralgan bo‘lib, yillar davomida inson tomonidan amalga oshirib kelinmoqda. G‘arbiy Yevropa, rus, xususan, o‘zbek tilshunosligida olib borilgan matn tilshunosligiga doir ko‘pgina ishlarda uning obyekti va predmeti, tuzilishi, semantikasi, o‘ziga xos sistemaga ega bo‘lishi kabi matnga aloqador ko‘pgina masalalar ma’lum darajada yoritilgan. O‘zbek tilshunosligida matn nazariyasi haqidagi fikrlarni birinchi bo‘lib G‘.Abdurahmonov ilgari surgan. Mazkur masala haqidagi ba’zi umumi fikrlar, jumladan, matnning badiiy tahlili borasidagi izlanishlarni A.G‘ulomov, M.Asqarova, A.Mamajonov, B.O‘rinboyev, R.Qo‘ng‘urov,

J.Lapasov, M.Yo‘ldoshev<sup>37</sup>ning kitoblarida uchratishimiz mumkin. Ushbu tadqiqotlarda matn va uning tiplari, badiiy matn va uning qismlarini bog‘lovchi vositalar, badiiy nutq uslubi va uning ko‘rinishlari, badiiy matnning fonetik-fonologik, leksik-grammatik xususiyatlari hamda badiiy matnni tadqiq etish tamoyillari haqida so‘z yuritilgan. Badiiy asarlardan olingan misollar asosida badiiy asarni lingvopoetik jihatdan tahlil qilish ishlanmalari yaratilgan. O‘zbek tilidagi asarlar va tarjima qilingan badiiy asarlar tilini chuqur tushuna bilish mahorati, asarning badiiy-estetik jihatlari chuqur tadqiq qilingan.

Zamonaviy texnologiya rivojlanib borayotgan ayni vaqtida lingvistik tahrir va tahlil jarayonlari ko‘plab rivojlangan davlatlarda avtomatlashtirilmoqda. Zero, insonning “sun’iy intellekt” tizimiga oid vositalar bilan muloqoti til tizimi va lisoniy faoliyat tadqiqiga butunlay yangicha yondashuvni talab qiladi<sup>38</sup>. Maqsadga erishishda nafaqat filologlar, balki informatika mutaxassislari va dasturchilar ham muhim o‘ringa ega. Filolog tabiiy til qonuniyatlarini lingvistik ta’midotda jamlab beradi, dasturchi ularning algoritmini tuzadi, yagona ishchi dastur holatiga keltiradi. Bir jumla bilan aytganda, ushbu jarayon ko‘p mashaqqat, sinchkovlik va vaqt ni talab qiladi.

Kompyuter dasturi ikkita ta’midot asosida ishlaydi: 1) texnik ta’midot; 2) lingvistik ta’midot (LT). Bu taminotlar o‘zaro bir-birini taqazo qilgani uchun kompyuter va tilshunoslik fanlari hamkorligi natijasida KL yuzaga keldi. LT lingvistik daturlarning lisoniy xotirasi, deyish mumkin. Sh.Safarov fikricha, lisoniy xotira nafaqat til birliklari va kategoriyalari haqidagi axborotni saqlovchi psixik tuzilma, balki nutqiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan ushbu turdagи axborotni tezda topish, qo‘llash imkonini yaratuvchi manbadir<sup>39</sup>. Lisoniy xotira negizini “ichki leksikon” ya’ni xotiradagi lug‘at zaxirasi tashkil etadi. E.S.Kubryakovaning ta’biricha, “ichki leksikon ma’lum sharoitda zarur bo‘lgan birlikni izlab topish imkonini ta’minlovchi majmuaviy “ombor” bo‘lishdan ko‘ra, ko‘proq harakatdagi tizim bo‘lib, bu tizimda har bir birlikning faollashuv imkoniyatlari, ular qo‘llanilishining pragmatik, semantik va formal

<sup>37</sup> G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (Sintaksis). – Toshkent, 1987.; Mamajonov A. Tekst lingvistikasi (pedagogika institutlarning o‘zbek filologiyasi fakultetlari studentlari uchun maxsus kurs). – Toshkent, TDPI. 1989.; O‘rinboyev B., Qo‘ng‘urov R., J.Lapasov. Badiiy tekstning lingvistik tahlili. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990.; Lapasov J. Badiiy matn va lisoniy tahlil. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995.; Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. – Toshkent: Fan, 2007.

<sup>38</sup> Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – B. 7.

<sup>39</sup> Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – B. 25.

ko‘rsatkichlari qayd qilingan”<sup>40</sup>. Shu bois dasturiy ta’mintonning lisoniy xotirasi – lingvistik ta’mintoni yaratish, lingvistik modullarni mukammal ishlab chiqish muhim vazifa hisoblanadi.

KL an’anaviy tilshunoslikka tayanib ish ko‘radi. Uni amaliy jihatdan boyitadi. Ba’zi hollarda an’anaviy tilshunoslikni inkor etadi (ko‘p ma’noli, omonim so‘zлarni inkor qiladi). An’anaviy tilshunoslik tabiiy til qonuniyatlari asosida ishlaydi. KL esa sun’iy til qonuniyatlariga bo‘ysunadi. Sun’iy til programmalash tilidir (*BASIC, Delta, C++* va h.k.). Tilshunoslik tarixida 1887-yili butun dunyo xalqlarini birlashtirishi va hech bir davlat manfaatini ko‘zlamagan holda yagona muloqot vositasi sifatida xizmat qilishi maqsadida birinchi bo‘lib vrach L.Zamengof tomonidan esperanto tili yaratilgan<sup>41</sup>. KLda esperanto tilining ahamiyati shundaki, aniq lingvistik me’yorlarga asoslangan va ixcham grammatikaga ega ushbu til tabiiy tilni optimallashtirish va formallashtirishda qulay lingvistik dastur vazifasini o‘taydi.

Matnlarga ishlov berishning avtomatik tahrir yo‘nalishi XX asrning 60-yillariga kelib shakllandı. U matn muharrir dasturlari bilan bирgalikda yangicha imkoniyatlар asosida rivojlanmoqda. Oddiy muharrirlardan farqi shundaki, unda tahrir avtomatik tarzda qisqa vaqt ichida katta hajmli matnlar tez tekshirilib, xatolarni samarali to‘g‘rilash imkoniyatlari bo‘ladi. Avtomatik tahrirning pragmatik jihatı shundaki, u kelajakda taraqqiy etsa, yetarli ma’lumotlar bazasi yaratilsa va maxsus dasturlar ishlab chiqilsa, muharrir kasbi uchun ehtiyoj qolmaydi. Bu esa matn bilan ishlashni osonlashtiradi.<sup>42</sup>

*Ingliz matn muharriri sistemasi tarixi.* Bugungi kunda keng tarqalgan ingliz tilidagi matnlarni tahrir va tahlil qilish dasturlarining yaratilish tarixini amerikalik kompyuter texnologiyalari olimi Lester Donald Ernest boshlab bergen. Olim 1959-yildan o‘z faoliyatini matnlarni qayta ishslash sohasiga qaratdi. Shundan so‘ng u qo‘l yozuvini o‘qishga mo‘ljallangan dastlabki kompyuter tizimi va imloni tekshiruvchi birinchi dasturni ishlab chiqdi<sup>43</sup>. 1961-yilda tarmoqlanuvchi texnologiyani o‘rganishga rahbar bo‘lgan Les Ernest 10000 ta maqbul so‘zlar ro‘yxatiga asoslangan birinchi imlo tekshiruvini tarmoqda amalga oshirishga harakat qildi<sup>44</sup>. 1971-yil

<sup>40</sup> Кубрякова Е.С. Память и ее роль в исследовании речевой деятельности // Текст в коммуникации. –Москва: Языкоznания, 1991. – С.18.

<sup>41</sup> Abjalova M. Esperanto tilini bilasizmi? – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2010. – 64 b. – lug‘at: – 8 b.

<sup>42</sup> Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – Toshkent, 2011. – B. 98.

<sup>43</sup> Ernest, Les. The First Three Spelling Checkers. Stanford University. <http://web.stanford.edu/~learnest/les/>

<sup>44</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Spell\\_checker](https://en.wikipedia.org/wiki/Spell_checker)

fevral oyida L.Ernest rahbarligida Stenford universitetining sun’iy intellekt laboratoriyasida aspirant Ralf Gorin (DEC PDP-10 uchun SPELL (imlo tekshirish)) ingliz tilidagi matnlar uchun ilk imlo tekshiruvchi amaliy dasturni yaratadi<sup>45</sup>. Gorin SPELLning tezroq ishlashi uchun dasturni assembler dasturlash tilida yozgan; Bu Gorinning matndagi bir yoki bir nechta qo’shni harflar bilan farqlanuvchi so‘zlarni dastur ro‘yxatidan ularning to‘g‘ri variantini qidirish vazifasini bajaruvchi dastlabki orfo muharrir dasturi sanaladi. Gorin SPELL dasturiy ta’mintoni SAIL (Stenford sun’iy intellekt laboratoriysi)ning ko‘plab dasturlari kabi ommaviy tarzda taqdim etdi, natijada shaxsiy kompyuterlarning keng tarqalishidan o’n yil oldin yangi ARPAnet sistemasi orqali dastur tezda butun dunyoga tarqaldi<sup>46</sup>. SPELL va uning algoritmlari hamda ma’lumotlar tuzilmasi Unix ispell dasturiga turki berdi. 1970-yillarga kelib imlo tekshirish mahsulotlari meynfreymlarda keng tarqaldi. Jorjtaun universitetining olti tilshunosdan iborat guruhi tomonidan IBM korporatsiyasi uchun birinchi imlo tekshirish sistemasi yaratildi<sup>47</sup>.

Shaxsiy kompyuterlar uchun dastlabki imlo tekshirgichlari 1980-yilda paydo bo‘ldi. Jumladan, 1981-yil yanvarida reklama matnlarini chop etish maqsadida 1980-yilning oxirlarida Commodore sistemasi uchun “WordCheck” (so‘z tekshirish) ishlab chiqildi<sup>48</sup>. 1981-yilda Genri Kuchera VAX Digital Equipment Corp texnologiyasi uchun dastur ixtiro qildi<sup>49</sup>. Mariya Mariani va Random House<sup>50</sup> kabi ishlab chiquvchilar birinchi navbatda shaxsiy kompyuter uchun tez rivojlanayotgan dasturiy ta’mint bozoriga, shuningdek, Apple Macintosh, VAX va Unix uchun OEM paketlarini ishlab chiqishdi. Shaxsiy kompyuterda ushbu imloni tekshish mahsuloti alohida dastur bo‘lib, yetarli xotiraga ega bo‘lgan. Biroq yakka tartibdagi paketlar bozori qisqa muddatli bo‘lganligi sababli 1980-yillarning o‘rtalariga kelib, mutaxassislar WordStar va WordPerfect kabi orfografik tekshirish imkoniyati mavjud bo‘lgan matnlarni qayta ishlash paketlarini ishlab chiqardilar va litsenziyaladilar. Avtomatik imlo tekshirish imkoniyati ingliz tilidan Yevropa davlatlari tillariga qadar kengaytirildi. Garchi flektiv tillarni tahrir qiluvchi dasturning LT va

<sup>45</sup>Peterson, James. Computer Programs for Detecting and Correcting Spelling Errors. 1980. [https://en.wikipedia.org/wiki/Spell\\_checker](https://en.wikipedia.org/wiki/Spell_checker)

<sup>46</sup>Earnest, Les. Visible Legacies for Y3K. <http://web.stanford.edu/~learnest/les/>

<sup>47</sup><https://web.archive.org/web/20090205140452/http://cled.georgetown.edu/faculty/>

<sup>48</sup>Harvey, Charlotte Bruce. Teaching Computers to Spell (obituary for Henry Kučera). Brown Alumni Magazine. 2010. – P. 79.

<sup>49</sup>Advertisement. Micro Computer Industries, Ltd // Compute! Magazine, Issue 8, Vol. 3, № 1. 1981. – P. 119.

<sup>50</sup>Advertisement. The Spelling Bee Is Over // PC Magazine. 1982. – P. 165.


algoritmi agglyutinativ tabiatli tillar grammtikasiga mos kelmasa-da, keyinchalik bir qancha Osiyo tillari doirasida shunday sistemalar ishlab chiqildi. Jumladan, venger va fin tillaridagi matnlar imlosini tekshirish tizimini yaratish uchun lingvistik ta'minotning morfologiyasini qayta ishlashga to‘g‘ri kelgan. Bir qancha davlatlar tomonidan milliy tillarga mansub imloni tekshirish sistemasiga sarmoya kiritmagan bo‘lsa-da, WordPerfect kabi kompaniyalar o‘z dasturlarini global marketing strategiyasi doirasida iloji boricha ko‘plab milliy bozorlarga joylashtirishga harakat qilishgan.

Bugungi kunda Firefox 2.0 kabi veb-brauzerlar ko‘plab elektron saytlarga, bloglarga va ijtimoiy tarmoqlarga foydalanuvchi tomonidan yoziladigan har qanday hajmdagi matnlarning imlosini tekshirish, Wikitextni tahrirlash imkoniyatiga ega. Shuningdek, Google Chrome, Konqueror i Opera veb-brauzerlari, KMail pochta mijizi va Pidgin lahzali xabarlashuvlari GNU Aspell va hozirda Hunspell sistemasidan foydalanib, avtomatik imlo tekshirishni taklif qilmoqda. Mac OS X (Makintosh operatsion) sistemasi hozirda boshqa barcha sistemalar uchun avtomatik orfografik tekshirishga ega bo‘lib, bu xizmatni yanada takomillashtirish yo‘lidan bormoqda. Ba’zi imlo tekshirish mahsulotlari muayyan sohalarga mo‘ljallangan<sup>51</sup>. Asosiy maqsad soha doirasida yaratilgan LTDagi terminlar, etimologik lug‘atlar, qisqartma so‘zlar, maxsus belgilar asosida kompyuterga kiritilayotgan matnlarni sifatli tahrir va tahlil qilishdan iborat.

Avtomatik tahrir va tahlil sistemasi (ATTS) matnni tahrir va tahlil qilishga mo‘ljallangan dastur ustida olib boriladigan ishlar tartibidir.

---

<sup>51</sup> «Медицинская проверка орфографии для Firefox и Thunderbird».e-MedTools. 2017.; Quathamer, доктор Тобиас «Немецкий медицинский словарь слов» / Доктор Тобиас Куатхамер. 2016.



1-chizma. Avtomatik lingvistik tahlil jarayoni sxemasi.

ATTSni yaratishda qilinadigan ishlarni umumiylar tarzda quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Tilshunoslik me'yorlari jamlangan lingvistik modullarni yaratish.
2. Modullarda berilgan modellar yordamida dastur algoritmini tuzish.
3. Algoritmdan foydalangan holda dasturni yaratish.

Bugungi kunda matnlarni tahrir qiluvchi yoxud uning tahlilini ham amalga oshiruvchi avtomatik lingvotizim va texnologiyalar yaratilgan bo'lib, ularning ishslash prinsiplari yanada takomillashtirilmoqda. Tubanda shunday tizim va texnologiyalar borasida so'z yuritildi.

***Imloni tekshirish tizimi (spell-checker<sup>52</sup> ingl. spell checker)*** – kompyuter dasturi bo'lib, kiritilgan matnning orfografik tahririni amalga oshiradi. Aniqlangan imlo xatolari maxsus belgilanadi, ya'ni xato yozilgan leksema tagiga chiziladi. Ko'p hollarda matn teruvchiga imloviy xatolarga ishora qilishdan tashqari dastur maxsus eslatmasi sifatida so'zning to'g'ri yozilish variantlarini ham taklif qiladi. Shuningdek, matnga qanday tuzatish kiritish mumkinligiga izohlar ham beriladi.

<sup>52</sup> Русский орфографический словарь: около 200 000 слов / РАН. Ин-т рус. яз. им. В. В. Виноградова / Под ред. В. В. Лопатина, О. Е. Ивановой. – Изд. 4-е, испр. и доп. – Москва: ACT-Пресс Книга, 2012. – С. 709. – (Фундаментал. словари рус. яз.). – ISBN 978-5-462-01272-3.

Matnni avtomatik tahrir qilishga bo‘lgan ehtiyojning o‘sib borishi natijasida imloni avtomatik tekshirish jarayoni shaxsiy EHM dasturiy ta’midotidan veb-brauzerlargacha ko‘chirilgan bo‘lib, Internet tizimida ishlaydi<sup>53</sup>. Shuningdek, *orfografik tekshiruv (Speller)* sistemasi ham matnni orfografik jihatdan to‘liq tekshiruvchi modulga ega bo‘lib, uning qulayligi shundaki, keltirilgan ko‘rsatmalar orqali matnni joylashtiruvchi dasturning lingvistik ta’motiga yangi so‘zlar, so‘zshakllarni kiritib avtomatik lug‘atni shu zahoti boyitishi mumkin.

**Morfologik analizator (Morfoanalizator)** – bu so‘zlar va so‘zshakllarini lug‘atdagi shakli (leksikon) bilan taqqoslash, ularning asosi (lemmasi) va so‘zlarning grammatik shakllari (formant / affiks / affiksal morfemalari)ni aniqlash hamda ularga tavsif berish bilan shug‘ullanadigan algoritmlar to‘plamidir, ya’ni dasturiy ta’mot. Masalan:


<kitobning> [ot, turdosh ot, ot turi: narsa nomi, birlik, qaratqich kelishigi]

<qizil> [sifat, sifat turi: rang, oddiy daraja, birlik, bosh kelishik]

**Sintaktik tahlil tizimi (Parser)** (ingl. *parser; parse* – tahlil qilish) yoxud sintaktik analizator – dastur qismi yoki faqat sintaktik tahlilni amalga oshirish uchun yaratilgan maxsus dastur<sup>54</sup>. Kirish ma’lumotlarini (matn) muayyan formatga keltirish orqali tahlil qiladi. Umuman olganda, parser – bu C, C ++, C #, Delphi, PHP, Python kabi tillarda yozilgan va jumlanı tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan dasturiy ta’mot. Jumla tahlili sol\_SyntaxAnalysis funktsiyasi yordamida amalga oshiriladi. Tahlilda jumla elementlarining sintaktik munosabatlari aniq belgilab qo‘yilgan sintaktik daraxt, ya’ni tobek daraxtiga asoslaniladi. Masalan: *Bizning sportchilar g‘oliblikni qo‘lga kiritishdi* jumlesi quyidagicha tobeli qismlarga ajratilib, turkumligi bo‘yicha tahlil qilinadi:

<sup>53</sup> Сокирко А. В. Морфологические модули на сайте [www.aot.ru](http://www.aot.ru) (Электронный ресурс) / А. В. Сокирко. Режим доступа: [http://www.aot.ru/docs/sokirk0/Dialog2004.htm.](http://www.aot.ru/docs/sokirk0/Dialog2004.htm;); Russian Link Grammar Parser [Электронный ресурс] / С. Протасов. Режим доступа: <http://sz.ru/parser/>; Русский морфологический словарь Дмитрия Григорьева [Электронный ресурс]. Режим доступа: [http://www.aot.ru/download/LexGroup.rar.](http://www.aot.ru/download/LexGroup.rar;); Парсер Mystem [Электронный ресурс] / Yandex. <http://company.yandex.ru/technology/products/mystem/mystem.xm>!

<sup>54</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki/Parsing>



Bevosita ishtirokchilar (BI) metodiga ko‘ra tayanch nuqta konstruksiya (qurilma) deb ataladi. Konstruksiya tarkibidan bevosita ishtirokchilar (BeI) va bilvosita ishtirokchilar (BiI) ajratiladi.

Parserda quyidagilar asosiy o‘rinda turadi: tasniflangan leksemalar ketma-ketligi, ierarxik tuzilmalar, ma’lumotlar jadvali, tezauruslar va h.k.

Morfoanalizator va parserlar asosida lemmatizatsiya hamda stemming texnologiyalari mavjud bo‘lib, asosan, so‘zshaklini asos va qo‘shimchalarga ajratib tahlil qilish jarayoni hisoblanadi.

**Lemmatizatsiya** (lemmatization) – so‘zshakllarni uning lug‘atdagi oddiy shakli – lemmaga keltirish jarayoni<sup>55</sup>, ya’ni so‘zshakl lemma deb atalmish ta’mindagi so‘zning asosiy yoki lug‘at shakliga qaytariladi. Bu jarayon ayrim rus va xorij manbalarida normallashtirish deyiladi<sup>56</sup>.

O‘zbek kompyuter lingvistikasining lingvistik tahlil yo‘nalishida esa otlar uchun bosh kelishik, birlik son (*kitoblarimni* → *kitob*), fe’llar uchun aniq nisbat, bo‘lishli, fe’lning II shaxs buyruq-istak mayli (*keltirilmagan* → *kel*) va sifatlar uchun uning oddiy darajasi (*oppoq* → *oq*, *pastroq* → *past*) oddiy shakllar hisoblanadi.

Flektiv tillarda lemmatizatsiya qiyin jarayon sanaladi, chunki flektiv tillarda asos va affiks chegarasi yo‘qoladi. Shu bois muayyan so‘zshaklning lemmasi (asosi)ni topish bir muncha qiyinlashadi. Masalan, *vodit* – *voju*, *pit* – *pyu* – *pyosh* – *pey*; *man* – *men*, *tooth* – *teeth* kabi.

**Stemming (stemming)** – kiritilgan so‘zning asosi (o‘zak)ni topish jarayoni<sup>57</sup>, ya’ni affiksal morfemalarni kesib chiqish texnologiyasi. Bunda topilgan so‘z asosi morfologiyyada qabul qilingan so‘z o‘zagiga mos kelishi talab qilinmaydi. Masalan, ingliz tilidagi *flies* (pashshalar) so‘zshaklidagi

<sup>55</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki/Lemmatisation>

<sup>56</sup> Muller, Thomas; Cotterell, Ryan; Fraser, Alexander; Schütze, Hinrich. Joint Lemmatization and Morphological Tagging with LEMMING (Elektron resurs).

<sup>57</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki/Лемматизация>

-es ko‘plik qo‘shimchasi kesib tahlil qilinadi, xolos. Uning asosi *fly* ekanligi tahlil qilinmaydi. Shu bois dastur ta’minotiga “tayyor qolipli so‘zlar” asos sifatida alohida kategoriya qilib kiritilish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Masalan, *huquq*, *tadqiq* kabi leksemalarga egalik affikslari qo‘shilganda leksema so‘ngidagi *q* undoshi o‘zgarishga uchramagani bois bunday istisnoli leksemalar “tayyor qolipli so‘zlar”, ya’ni “Avtomatik hosila” kategoriyasiga *huquqi*, *tadqiqi* tarzida kiritiladi va ular stemmingda asos, deb qabul qilinadi.

Kompyuter lingvistikasida so‘zning o‘zagini topish vazifasi uzoq yillar davom etayotgan muammo hisoblanadi.

Stemming, asosan, foydalanuvchining so‘rovi bo‘yicha izlanishni kengaytirish maqsadida qidiruv tizimlari uchun qo‘llaniladi, matnni me’yorlashtirish jarayonining qismi hisoblanadi. So‘z asosini topishning muayyan usuli stemming algoritmi, uning amalga oshirilishi, ya’ni dasturning o‘zi stemmer deyiladi.

Ma’lumki, matnda bir leksemaning turli so‘zshakllari qo‘llanilishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi *organize*, *organizes*, *organizing*, o‘zbek tilidagi *kelyapti*, *kelgan*, *kelmoqdalar* va h.k. Shuningdek, ifoda va mazmun planiga ko‘ra yaqin so‘zlar oilalari ham mavjud. Masalan, *democracy* (demokratiya) – *democratic* (demokratik) – *democratization* (demokratlashtirish). Lemmatizatsiya va stemming yaqin ifodaga ega so‘zlarga morfemalarning birika olish imkoniyatini ularning asosini topish orqali aniqlaydi. Stemming va lemmatizatsiyaning maqsadi so‘zshakllarini umumiylashtirishdir. Masalan, ingliz tilidagi *cars*, *car’s*, *cars’* so‘zshakllarini *car* asos (lemma, stem)ga keltirish kabi. Jarayon bir xil ko‘rinsa-da, stemming lemmatizatsiyadan farq qiladi.

Stemming, odatda, taxminiy jarayon deyiladi. Zero, stemmingda so‘zshakllar oxiridan boshlab lingvistik ta’minotga kiritilgan asos shaklga qadar kesib kelinadi. Ko‘p hollarda bu holat o‘zini oqlagan.

Lemmatizatsiya so‘zlar leksikonidan foydalanib, ularning morfologik tahlilini amalga oshiruvchi aniq jarayon bo‘lib, bunda faqat fleksiyaga uchrangan affikslar o‘chiriladi va lemma deb atalmish ta’minotdagi so‘zning asosiy yoki lug‘at shakliga qaytariladi.

Yuqorida aytilgan farqni faktik misolda ko‘ramiz: ingliz tilidagi *saw* leksemasi stemmingda *s* harfiga qadar kesib, tekshiriladi, lemmatizatsiya esa uni *see* (fe’l yoki otga mansubligiga qarab) fe’lining o‘tgan zamon shakliga qaytaradi. Ko‘rinadiki, stemming bir asosdan yuzaga kelgan so‘zshakllardagi belgilar bilan ishlaydi, lemmatizatsiya esa bir lemmaning

flektiv (affiks qo'shilishi natijasida o'zgarishga uchragan) shaklini e'tiborga oladi.

**Tokenizatsiya** – elektron matndan birliklarni, ya'ni kiritilayotgan belgilar, ramzlar va so'zlarni ajratib chiqish jarayoni<sup>58</sup>. Tokenizatsiya ingl. *tokenizing* so'zidan olingan bo'lib, injiner (kompyuter texnologiyalari mutaxassisilari)lar tomonidan qo'llanishga kiritilgan termin hisoblanadi va tilshunoslikda grafematik tahlil birikmasi bilan tushuntiriladi. Mazkur texnologiya grafematik tahrir bosqichida muhim o'rin tutadi (qarang: II bob, 2.2-paragraf).

Lingvistik tahlil dasturlash tillarining manba kodi tarjimalari va kompilyator (o'zgalar tadqiqot natijalarining mustaqil yoki qo'shimcha ishlovlarsiz berilishi)larida, shuningdek, tabiiy tillarning turli parser – dasturlarning LTlarini yaratishda qo'llaniladi.

Quyidagi jadvalda avtomatik tahrir va tahlil modullari, ularning vazifalarini amalga oshiruvchi texnologiyalar va dasturiy ta'minotlarning modulga mos ravishdagi nomi yaxlitlandi:

Avtomatik tahrir va tahlil modullari	Texnologiya nomi	Dasturiy ta'minot nomi	
Orfografik tahrir	Spelling	Spell checker	
Grafematik tahrir (tahlil)	Tokenizatsiya/ segmentlash	Tokenizator	
Morfologik tahlil	Stemming	Stemmer	morfoanalizator
	Lemmatizatsiya		
Sintaktik tahlil	parsing	Parser	

Sistema yoxud texnologiyaning qanday nomlanishidan qat'iy nazar, foydalanuvchi uchun matnni qayta ishlovchi mahsulotning yaratilgani va uning sifat darajasi muhimdir. Chunki matn ustida ishlash, ya'ni rasmiy hujjatlarni yuritish barcha turdag'i faoliyatlarning asosi hisoblanadi. Hujjatlar esa o'z navbatida savodli yozilishi joiz.

O'zbek tilidagi matnlarni avtomatik tarzda tahrir qilish dasturini yuzaga chiqarishda, albatta, tilshunoslar tomonidan yaratiladigan lingvistik ma'lumotlar bazasi muhim ahamiyatga ega. Bu borada ko'p bosqichli o'zbek tili tahrir va tahlil dasturining LT ustida ish olib borilmoqda. Matnlarni avtomatik tahrir qiluvchi dasturlar LMlarining shakllantilishi mukammal dasturlar ishlab chiqilishiga zamin yaratadi, bu esa o'zbek adabiy tilidagi matlarning savodli yozilishi va dunyo tillari qatoridan o'rin olishiga xizmat qiladi. EHM xotirasiga kiritilishi lozim bo'lgan u yoki bu

<sup>58</sup> <https://research-journal.org/languages/k-voprosu-o-tokenizacii-teksta/>. Гречачин В.А. К вопросу о токенизации текста [Электронный ресурс]

til (nutq) birliklari, shuningdek, so‘zlararo bog‘lanishning grammatik qoidalari kibernetik apparat uchun tuzilgan dasturda o‘zining qat’iy matematik tavsifiga ega bo‘lgandagina inson tomonidan topshirilgan vazifalar – operatsiyalarning hammasini “aqlli” mashinalar aniq bajarishi mumkin<sup>59</sup>.

Dasturning lingvistik ta’mintonini yaratuvchi mutaxassisdan DTning mukammal yaratilishi talab qilinadi. Chunki DT tahrir va tahlil dasturining ishlishini ta’minlovchi va uning sifatini namoyon etuvchi bosh sistema hisoblanadi. Bosh sistema, o‘z navbatida, quyidagi sistemalarni o‘z ichiga oladi:



2-chizma. Dasturiy ta’motni tashkil etuvchi ostsystemalar.

1. Ma'lumotlar bazasi bilan ishlovchi sistema. Bu tizim ma'lumotlar bazasiga kiritilgan ma'lumot bilan ishlashni ta'minlaydi.
2. Tahlil qiluvchi sistema ma'lumotlarni tahlil qiladi.
3. Sintez qiluvchi sistema tahlil qilingan ma'lumotlarning tartiblanishini ta'minlaydi.
4. Ma'lumotlarni qabul qilish va chiqarishni ta'minlovchi sistema dastur uchun kerakli ma'lumotlarning qabul qilinishi va zarur hollarda chiqarilishini boshqaradi.

Ma'lumki, kompyuter kashf etilmasdan ilgari matnlar yozuv mashinkalarida terilgan, bu jarayonda imloviy, punktuatsion, stilistik va grammatik xatolarga yo‘l qo‘yilsa, matnni boshdan oxirigacha qayta yozib chiqishga to‘g‘ri kelgan, bu esa foydalanuvchiga noqulaylik tug‘dirgan, vaqtning va ish kuchining ortiqcha sarflanishiga bois bo‘lgan. Matnning kompyuter orqali tahlil qilinishi natijasida birmuncha qulayliklar paydo bo‘ldi. Kompyuterda foydalanuvchi dialogli rejimda ishlaydi va o‘z o‘rnida xatolarni to‘g‘rilash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Hatto matn bilan ishslash jarayonida matnni shakl jihatdan ham tahlil qilish imkoniyati

<sup>59</sup> Rizayev S. Kibernetika va tilshunoslik. – Toshkent: O‘zbekiston, 1976. – B.13.

mavjud. Shuni ta'kidlash kerakki, avtomatik tahlillash sistemasi faqat matn muharrirlari dasturlari bazasiga qo'shilgan, masalan, rus, ingliz, fransuz, nemis va boshqa tillarda amal qiladi. Bazada LTi mavjud bo'limgan tilda kompyuterga matn kiritilsa dastur uni avto-lingvistik tahlil qilolmaydi (aslicha yozilgan baynalmilal so'zlar esa bundan mustasno). Masalan, *chellenj*, *xesh-teg*, *karantin*, *komyuter*, *internet*, *klaviatura*, *modem*, *telefon*, *faks* kabi. Avtomatik tahlillash jarayonida Microsoft Word (MS WORD) ta'minotida mavjud bo'limgan so'z uchrasa, uning ostiga to'lqinli qizil chiziq chiziladi. Mazkur holatda inson – foydalanuvchining ishtiroki zarur, ya'ni foydalanuvchi so'zning imlosi to'g'ri ekanligiga amin bo'lsa, uning avtotahlilda to'g'ri deb tekshirilishi uchun MS WORD lug'atiga "lug'atga kiritish" (kontekst menyudagi "dobavit v slovar" buyrug'i orqali) mumkin. Matn kiritish davomida so'z yoki so'zlar birikmasi ostiga yashil to'lqinli chiziq chiziladi, bu tinish belgining noto'g'ri qo'llanishi yoxud so'zlarning qusurli grammatik bog'lanishi bilan bog'liq. Bunday holatda foydalanuvchi xatoni o'zi to'g'rilab qo'yishi kerak yoki ostiga chizilgan so'zshaklda sichqonchaning o'ng tomoni bosilsa kontekst menuy ochiladi, unda mazkur so'zshaklning to'g'ri varianti taklif etiladi yoxud to'g'rilash uchun lingvistik ko'rsatma beriladi, so'ng xatoni to'g'rilash kerak bo'ladi. Shuningdek, nuqtadan keyingi kichik harfning avtomatik tarzda bosh harfga o'tkazilishi, bandlarning avtomatik raqamlashtirilishi; xatboshini to'g'rilash kabi mexanik ishlar avtomatik tahlilda erishilgan yutuqlar hisoblanadi.

Ma'lum bo'ladiki, matnlarni tuzatish ikki usulda amalga oshiriladi:

1. Inson tomonidan matnlarning tahrirlanishi (muharrirlik ishi).
2. Kompyuter vositasida tahrirlash (avtomatik tahrir).

Shuni ta'kidlash lozimki, har ikki holatda ham mutaxassisning faoliyati (qobiliyat, temperament, xarakter, irodaviy sifatlar, ijtimoiy holat)<sup>60</sup> muhim ahamiyatga ega. Muharrir matnlarni bevosita tahrir va tahlil qiladi, avtomatik tahlilda esa tilshunos bilvosita qatnashadi, ya'ni dasturning lingvistik bazasini yaratib beradi.

Dissertatsiyada rus, ingliz, nemis, fransuz kabi tillardagi leksemalar, jumlalar, hatto, butun matnni ATT qilishga mo'ljallangan dasturlar yoki global tarmoqda (Internet) qidiruvga berilganda, ularni morfologik, sintaktik, semantik jihatdan tahlil qiluvchi dasturlar borasida ma'lumotlar berildi. Bundan ko'zlangan maqsad jahon tilshunosligida tan olingen va

<sup>60</sup> Abjalova M., Toshimov R. Matnlarni lingvistik tahrirlashning psixologik asoslari // O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot va ijtimoiy-falsafiy tafakkur yangilanishi. Yosh olimlar ilmiy konferensiyasi materiallari, II qism. – Toshkent, 2011. – B. 155-158.

ayni damda foydalanilayotgan asosiy lingvistik dasturlar haqida ilmiy-nazariy faktlar, ularning ishlash darajasi, tahlil yoki tahrir davomidagi imkoniyatlarini o'rganishdir. M.Mahmudiyan ta'kidlaganidek, til, o'z ta'rifiga ko'ra, insoniyat tajribasining barcha sohalarini qoplamog'i lozim<sup>61</sup>. Shuni nazarda tutgan holda bugungi kunda ilm-fanning turli sohalarida, kundalik hayotda kompyuterdan foydalanish jarayonida o'zbek tilida matn yozilayotganda matnning to'g'ridan-to'g'ri tahriri va tahlilini ta'minlash masalasi o'zbek tilshunoslarining oldida yechimini kutayotgan masala ekanligini ta'kidlash o'zini oqlaydi.

O'zbek tilidagi matnlarni Microsoft Office Word dasturiga kiritish jarayonida, ularni ATT qilishga erishish, buning uchun dasturning lingvistik ta'minini yaratish maqsadida, bugungi kunda keng qo'llanishda bo'lган dasturlar chuqur o'rganildi. Ularning amaliy ahamiyati qisqa sharh tarzida berildi.

Lingvistik tahlil dasturlari jahon tilshunosligida quyidagicha guruhlanadi:

1. Lingvistik texnologiyalar va sistemalar<sup>62</sup>.
2. Matnni lingvistik (morphologik, sintaktik) tahlil qilish dasturlari.
3. Matnni statistik tahlil qilish utilitlari<sup>61</sup>.

Quyida faqat birinchi guruh tarkibiga kiruvchi dasturlar borasida lingvistik ma'lumotlar berildi.

<b>Nomi, muallif(lar)i</b>	<b>Vazifalari</b>
AskNet  Intell Servis	Semantik savol-javob tarzidagi qidiruv sistemasi AskNet va ishlov berish instrumentlari rus va ingliz tillaridagi matnlarni lingvistik tahlil qilishni to'liq amalga oshiradi. Lingvistik tahlil qilish moduli o'z zimmasiga morfologiya (lug'atli va lug'atsiz), sintaksis, semantikani oladi. Intell Servisning dasturiy mahsulotlarida to'la versiyalar bilan korporativ (uyushma)li, saytli va shaxsiy (maxsus) qidiruv tizimlari taklif qilinadi. Internet bo'yicha savol-javobli qidiruv metaqidiruvli tizimlar bazasida ( <a href="http://www.asknet.ru">www.asknet.ru</a> ) amalga oshiriladi. Hozirda analitik qidiruv tizimi AQUA ishlab chiqilmoqda. Bu tizim matnni avtomatik tekshirishda semantik nuqtayi

<sup>61</sup> Махмудиян М. Лингвистика. – Москва, 1985. – С. 173.

<sup>62</sup> [www.krugosvet.ru](http://www.krugosvet.ru)

<sup>61</sup> Utilita (ingl. utility) operatsion sistema (OS)ning ishi bilan bog'liq ravishda maxsus odatiy vazifalarni bajarishga mo'ljallangan yirik dasturiy ta'minotning bir qismi bo'lган yordamchi kompyuter dasturi.

	nazardan savollarga javob topadi. Dasturlar savdosotiqa keng yoyilmoqda. Lingvistik tahlil darajalari: grafematik, morfologik, sintaktik va semantik. <sup>62</sup>
<b>Ontos</b>  <b>Ontos</b>	Ushbu dastur matnli hujjatlarni tahlil qilish, annotatsiyaning tuzilishini tekshirish, kiritilgan matnlarga (OntosMiner, LightOntos for Workgroups, Ontos SOA, TAIS Ontos) ishlov berishga mo‘ljallangan. Dastur algoritmlari grafematik, morfologik va semantik tahlilga qaratiladi. Sistemalar morfologik lug‘atlar va semantik kartrijlardan asosiy tillar (ingliz, nemis, fransuz, rus) uchun foydalanadi. Matnda yo‘l qo‘yilgan xatolarning to‘g‘ri javoblari (variantlari) ko‘rsatiladi, grafalarning bog‘lanishi beriladi. Dasturlar Java.netda amalga oshiriladi va ular Microsoft SQL Serverda ishlatiladi. Lingvistik tahlil darajalari: grafematik, morfologik, semantik – tematik sinonimlar.
<b>Google Mini</b>  <b>Google Desktop</b>  <b>Google</b>	Dasturli apparat kompleksi Google Mini va Google Desktop dasturlari tarmoq ichi, ya’ni Internetda kompyuter vositasida xabarlarni qidirishga mo‘ljallangan. Asosiy tillarda (rus, ingliz va h.k.) kalit so‘zlar bo‘yicha morfologik jihatdan tekshiruvni amalga oshiradi. Lingvistik tahlil imkoniyatlari: grafematik va morfologik.
<b>Yandex. Server</b>  <b>Yandeks</b>	Dastur (NTTR) serveri uchun mo‘ljallangan, bir yoki bir necha saytlar bo‘yicha qidiruv va raqamlashni amalga oshiradi. Qidiruv rus, ingliz va ukrain tillarining morfologiyasi bo‘yicha ishlaydi. Qidiruv natijasi hujjatlar ro‘yxatining relevantlik yoki sana asosida tartiblanishi hisoblanadi. Relevantlikda hujjatdagi leksemalarning miqdori, ularning chastotali tavsifi va leksemalararo joylashishi inobatga olinadi. Matnlarning sintaktik va semantik tahlili hisobga olinmagan. Dastur versiyalari Windows va Unix uchun mo‘ljallangan. Lingvistik tahlil darajalari: grafematik va morfologik.
<b>Galaktika-ZOOM</b>	Dastur hujjatning ma’noga ega so‘z va so‘z birikmalarini aniqlaydi, foydalanuvchi tomonidan kiritilgan kalit so‘zlar hamda ularning sinonimlari

<sup>62</sup> www.asknet.ru

Galaktika	yuzasidan tekshiradi, qidiruv ishini olib boradi. Shuningdek, hujjatda uchraydigan so‘zlarning chastotasi bo‘yicha statistikani formallashtiradi. Dastur rus tilidagi matnlarning tahlilini ta’minlaydi. Algoritmlar morfologik va statistik tahlildan foydalanishga asoslanadi. Lingvistik tahlil darajalari: grafemmatik va morfologik.
-----------	---

Demak, lingvistik ta’minoti tarkibining to‘ldirib borilishiga ko‘ra ATT dasturini *turg‘un (statik)* va *dinamik* (o‘zgaruvchan) turlarga ajratish mumkin. Turg‘un tahlil dasturi LTi faqat mutaxassis tomonidan yaratiladi, uning neologizmlar, yangi lingvistik modellar, til me’yorlari bilan bog‘liq o‘zgarishlar dasturning keyingi versiyalariga kiritib boriladi. Ma’lum bo‘lganidek, LTga foydalanuvchi tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri so‘zshakllarni kiritish imkoniyati bo‘lmaydi.

Dinamik muharrir dasturining vazifasi doimiy ravishda leksikografik ta’minotni yangi so‘zlar bilan to‘ldirib, boyitib borish hisoblanadi. Ko‘p hollarda ushbu vazifa foydalanuvchi tomonidan amalga oshiriladi, ya’ni matnda qo‘llanilayotgan muayyan neologizm, yangi termin maxsus so‘rovlarga binoan ta’minotning zarur moduliga kiritilishi natijasida keyingi o‘rinlarda uning turli shakllarda qo‘llanilganda tahrir va tahlil qilinishiga erishiladi. Bu matn muharrir dasturi rivoji uchun xizmat qiladi, chunki til doimiy harakatda, so‘zlar yangi-yangi ma’nolar kasb etishi, neologizm, arxaizm, istorizmlarning paydo bo‘lishini kuzatib borish imkonini beradi. E.I.Bolshakova bunday imkoniyatga morfologik lug‘atni boyitish turlari sifatida qaraydi<sup>63</sup> va uni ikki turga ajratadi: 1) lug‘atl boyitish (turg‘un DT); 2) lug‘atsiz boyitish (dinamik DT) imkoniyati.

**“Informatik” kompaniyasining lingvistik modullari.** Tubanda Microsoft Word matn muharrir sistemasiga joylashtirilgan rus tilidagi turli sintaktik qurilishga ega matnlarni tahrir va tahlil qiluvchi ORFO avtomat tekshiruvchining ishi tahlil qilindi. Ushbu kompaniyaga 1989-yilda asos solingan. Kompaniya lingvistik texnologiyalar doirasidagi masalalarni ishlab chiqadi va ularni amalga oshiradi. 1995-yildan ushbu lingvistik texnologiyalar kompaniyasi Microsoft korporatsiyasi bilan hamkorlikda faoliyat olib borishni yo‘lga qo‘ydi. Natijada rus mutaxassislari tomonidan ishlab chiqilgan LMlar dunyoning turli hududlariga yetib bordi. Bugungi kunda kompaniyaning lingvistik mahsulotlaridan dunyoning rivojlangan davlatlarida keng foydalaniladi. A. Mayorova “Doveryay, no proveryay.

<sup>63</sup> Большая Е.И. и др. Автоматическая обработка текстов на естественном языке и компьютерная лингвистика. – Москва: МИЭМ, 2011. – С. 112-122.

Sistemi kontrolya orfografiini konserviruyut yazik” (“Доверяй, но проверяй. Системы контроля орфографии консервируют язык” / “Ishon, ammo tekshir. Imloni nazorat qilish sistemalari tilni saqlab qoladi”) maqolasida shunday yozadi: “MS Word uchun matn tekshirish dasturini “Informatik” kompaniyasi ishlab chiqqan. Loyiha rahbari sobiq sovet Fanlar Akademiyasining aspiranti Oleg Grigorev bo‘lgan. Uning hamkorlari Igor Ashmanov va Nina Russova elektron lug‘at, morfologik model va gapni morfologik tahlil qilish modelini ishlab chiqishgan. Dasturning ilk versiyasi DOS tizimi tarkibida ishlagan, 1991-yildan sotila boshlangan. Keyinchalik jamoaning katta qismi O.Grigurev bilan AQShga jo‘nab ketdi. I.Ashmanov sarosimaga tushmasdan tarkibni yangilab, 1992-1993-yillarda Windows sistemasi uchun imloni tekshirish sistemasini yaratadi. Mazkur ishlanma avvalgisidan farq qilmaydi<sup>64</sup>”. ORFO avtomuharriri A.A.Zaliznyak muallifligidagi “Rus tilining grammatik lug‘ati” («Грамматический словарь русского языка»)<sup>65</sup> asosida yaratilgan. Mazkur lug‘at 1980-yillarda V.M.Andryushenko rahbarligida kompyuter texnologiyalariga o‘tkazilgan.

Kompaniyaning lingvistik modullari matnlar ustida ishlovchi mutaxassislar uchun morfologik kutubxona hisoblanadi. “Informatik” kompaniyasi dasturiy morfologik modullarni matnni morfologik tekshiruvchi dastur yaratuvchilari uchun taklif qiladi. Ushbu dasturiy morfologik modullar ma’lumotli qidiruv sistemasi, analitik sistemalar, elektron hujjatlar katalogi doirasida yirik hajmli matnlarni tekshiruvchi, qidiruv vazifasini bajaruvchi dasturlarning bazasi hisoblanadi.

E.K.Lavoshnikova “О компьютерной проверке синтаксических конструкций в текстах на русском языке” maqolasida rus tilidagi matnlarni uslubiy va grammatik jihatdan tekshirish dasturlari borasida so‘z yuritib, MS WORD matn muharririga joylashtirilgan ORFO 2002 sistemasining afzalliklarini atroflicha ko‘rsatib beradi<sup>66</sup>.

“Informatik” kompaniyasining morfologik modullarida hujjatlarning kontekstli qidiruvida sinonimlarni hisobga oladigan, ularning grammatikasi va orfografiyasini tekshiradigan maxsus texnologiyalar, lingvistik va matematik algoritmlardan foydalanilgan.

---

<sup>64</sup> Майорова А. Доверяй, но проверяй. Системы контроля орфографии консервируют язык / «Известия.Ру», izvestia.ru сайтидан

<sup>65</sup> Зализняк А.А. Грамматический словарь русского языка: Словоизменение: около 100000 слов. – Москва: Русский язык, 1977. – 879 с.

<sup>66</sup> Лавошникова Э. К. О компьютерной проверке синтаксических конструкций в текстах на русском языке // Информационные процессы. Том5, №3, 2005, – С. 201–212.

Ushbu kompaniya tomonidan yaratilgan morfologik modullar Samsung, Syngenta, Quantum Art, ALP, Yandex kabi yirik tashkilotlar tizimida keng foydalaniladi.

Kompaniya quyidagi modullarni taklif qiladi:

1. Orfografik tekshiruv.

2. Grammatik tekshiruv.

3. Morfologik tahlil. Rus, ukrain, nemis, ingliz, fransuz, ispan, italyan, portugal, braziliya tillari qamrab olingan.

4. Tezaurus

5. Microsoft uchun qidiruv va ma'lumot tashuvchilarni joylash imkoniyati.

**Orfografik tekshiruv** (Speller) – matnni imlo jihatdan to'liq tekshiruvchi modul. Uning qulayligi shundaki, keltirilgan ko'rsatmalar orqali matnni kirituvchi dasturning LTiga yangi so'zlar, so'zshakllarni kiritib, avtomatik lug'atni shu zahoti boyitish mumkin.

Foydalanuvchining avtomatik lug'atiga so'zlarni qo'shish moduli ikki variantda amalga oshiriladi:

1. Ecran interfeysi ichida joylashgan.

Rus tili me'yordi asosida qo'shilgan so'zlar paradigmasi haqidagi farazlar ro'yxatini generatsiya qiladi. 90% holatlarda berilgan uch farazning birinchisi to'g'ri hisoblanadi. Foydalanuvchi ro'yxatdan to'g'ri farazni tanlab oladi va so'z barcha so'zshakllari bilan lug'atga kiritiladi. Agar so'z murakkab affikslar kombinatsiyasiga ega bo'lsa, foydalanuvchi uning ko'p foydalaniladigan qismini tanlab olishi mumkin. Foydalanuvchi lug'ati "Informatik" kompaniyasining boshqa LMlariga ulanishi mumkin.

2. Ekransiz interfeys.

Rus tili me'yordi asosida qo'shilgan so'zlar paradigmasi haqidagi farazlar ro'yxatini generatsiya qiladi. Kompyuterning API funksiyasi har bir farazning so'zshakllari ro'yxati va ularning tavsifini olishga yordam beradi. Tanlab olingan farazlar foydalanuvchi lug'atga kiritilishi mumkin. Shundan keyin tekshiruv davomida ulardan foydalanish imkon bo'ladi. Foydalanuvchi lug'ati "Informatik" kompaniyasining boshqa lingvistik modullariga ulanishi mumkin. Rus, ukrain, ingliz, fransuz, nemis, ispan, italyan, portugal tillariga mo'ljallangan.

Mahsulot Windows OT uchun dinamik lug'at (\*.dll) ko'rinishida joylashtiriladi.

**Grammatik tekshiruv** (Russian Grammar) – rus tilining 40 dan ortiq turli grammatik me'yorlarini, shuningdek, gapdagi tinish belgilarni tekshiradi. Ushbu modul matnning xato yozilgan qismini topadi va o'sha

abzats (gap qismi)ni belgilaydi. Mahsulot Windows OT uchun dinamik lug‘at (\*.dll) ko‘rinishida joylashtiriladi.

**Morfologik kutubxona** – so‘zlarning morfologik tahlilini amalga oshirishga mo‘ljallangan bir qancha modullarni birlashtiradi va quyidagi vazifalarni yechishda yordam beradi:

– So‘zlarni lug‘at shakliga keltirish. Bu bir so‘z shaklini uning boshqa shakli orqali topishni ta’minlaydi. Masalan: *kitobni* so‘zini *kitobga* so‘zini qidiruvga berish orqali ham topish mumkin bo‘ladi. Ushbu modul tilning imlo lug‘ati yoki morfem lug‘atga muvofiq tayyorlanadi, hajmi cheklanmaydi. Har bir so‘z uchun kerakli ma’lumot va 4 baytli raqamli xesh-kod (hash-code) xabari beriladi, bu esa matnni indeksirlashga yordam beradi.

– Berilgan so‘zning hamma formalari sintezi.<sup>67</sup> Modul kiritilgan so‘zning barcha shakllarini taklif qiladi. Morfologik kutubxona ORFO lug‘atdagi mavjud leksemalarning aniq tahlilini amalga oshiradi. Rus tili lug‘at fondini 180 mingga yaqin leksema tashkil qiladi, maxsus lug‘atlarda yana 60 mingta; so‘zshakllari bilan birgalikdagi miqdori 4 mln.dan ortiq, deb hisobga kiritilgan. Shuningdek, ukrain tilining lingvistik ta’minoti (LT)ga 130 ming, ingliz tilining LTga 115 ming, nemis tilining LTga 100 ming, italyan tilining LTga 80 ming, fransuz tilining LTga 45 mingga yaqin leksema kiritilgan.

DTida mavjud bo‘lmagan leksemalar dastur interfeysi taklif qilgan paradigmalar ko‘rsatkichlari orqali foydalanuvchi tomonidan muayyan yangi leksemaga grammatik xarakteristika berish natijasida DTiga kiritiladi.

Bu jarayon dasturda quyidagi ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin<sup>68</sup>


---

<sup>67</sup> *Morfologik sintez* matnga avtomatik ishlov berish jarayonida yoxud uning so‘nggi – natijalarini foydalanuvchi hukmiga havola qilish bosqichida so‘zlarning turli shakllarini chiqarish, analiz natijalarini umumlashtirishdan iborat. Leksema shakllarini sintez qilish jarayoni so‘zshakllarni tahlil (analiz) qilish bilan bir xil ma’lumotlar bazasi va algoritmlarga asoslanadi. Shubhasiz, har qanday shaklni sintez qilish uchun ta’mindan leksema va uning grammatik xususiyatlari kiritilishi talab qilinadi, shundagina dastur grammatik parametrlariga ega bo‘lgan har qanday leksemaning shakllarini tahlil va sintez qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Sintez jarayoni uchun quyidagi parametrlar (xususiyatlari) zarur (<https://www.multitran.ru/morphology.htm>):

- 1) otlar uchun jins (o‘zga tillarda), son, kelishik;
- 2) sifat va ravishlarning (mavjud bo‘lsa) oddiy, qiyosiy va orttirma darajalari, ular mansub bo‘lgan jins, soni va turlanishi;
- 3) fe’l va sifatdoshning zamoni, tuslanishi, shakli.

<sup>68</sup> <https://www.multitran.ru/morphology.htm>



### 3-rasm. Grammatik xarakteristika berish jarayoni.

Modulga qisqa xarakteristika:

- Katta hajmdagi so‘zlar lug‘ati qo‘llaniladi.
- Lug‘atni tezkorlik bilan boyitish tizimi: 99 holatlarda kiritilayotgan so‘zlarning o‘zgarishini tizimning o‘zi aniqlaydi.
- So‘zlarning identifikatorlarini generatsiyalovchi tizim: sistemaga ma’lum so‘zlarning har biriga identifikator qo‘yiladi, bu esa makromatn ichida bir so‘zning boshqa shakli orqali ham topilishini ta’minlaydi.
- Modulning kutubxonasi informatsion qidiruvda sistemaning morfologik tahlil<sup>69</sup> qilishini ta’minlaydi: so‘zlarga grammatik tavsif beradi, ularning so‘zshakllarini ko‘rsatadi.
- Berilgan so‘zlarning barcha shakllari sintezlanadi.

**Tezaurus** (Russian Thesaurus) – rus tili sinonim, antonim va slavyan tillari oilasiga mansub leksemalar to‘plami bo‘lib, semantik tahlilni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Rus tilining sinonimlar lug‘atida 70000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmalar mavjud<sup>70</sup>. Lug‘at 10 000 ta sinonimlar guruhi (30 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasidan iborat), 3 500 ta antonim va 14 000 ta slavyan tillar oilasiga mansub leksemalar qatori (20 000 yaqin bir asosli so‘zlar)ni o‘z ichiga oladi.

Tezaurus quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- 1) ruscha so‘zlarning har qanday shaklini matndan topa oladi;

<sup>69</sup> *Morfologik tahlil* so‘zni morfemalarga ajratadi va grammatik ma’lumotlar tahlilini amalga oshiradi.

<sup>70</sup>Куц Виктор. Система проверки правописания ОРФО 2004. <http://www.comprice.ru/articles/detail.php?ID=43153>

2) har bir so‘zga, uning kiritilgan holatiga sinonim va antonimlarni taklif qiladi.

**Microsoft uchun qidiruv.** Russian Indexer for Microsoft – rus tilidagi hujjatlar bilan ishlash davomida *Microsoft Indexing Service* va *Microsoft SQL Server* imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu dastur morfologik qidiruvni amalga oshiruvchilar, mutaxassislar, sistemali indegratorlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, so‘zning barcha shakllarini topish va morfologik tahlilni amalga oshirish uchun qulay.

Russian Indexer for Microsoft imkoniyatlari: Microsoft SQL Serverda rus tilining morfologik me’yorlari asosidagi to‘liq matnli indekslarni yaratish (full text search index); qidiruvning aniqligi, to‘liq amalga oshirilishini ta’minalash va tezligini oshirish; saytlar/internet-magazinlar bo‘yicha natijali qidiruvdan foydalanish sanaladi.

Russian Indexer for Microsoft:

- Microsoft tajriba ma’lumotlarining tasnifiga mos ravishda ishlab chiqilgan;
- MS Office, XML, html format hujjatlarida ishlay oladi;
- formatlar ro‘yxatini kengaytirish imkoniyatiga ega;
- faylli sistemalar katalogi bilan ishlaydi (WEB, arxiv hujjatlar);
- jadvallar bo‘yicha ham ish ko‘radi;
- lug‘at boyligi 280 ming so‘z (4.5 mln. so‘zshakl)ni tashkil etadi.

Ko‘rinadiki, qisqa davr ichida rus matn muharriri katta natijalarga erishgan. Umuman, jahon kompyuter lingvistikasida mazkur soha bo‘yicha ko‘plab ilmiy va amaliy ishlanmalar amalga oshirilgan, hozirda tinimsiz rivojlanmoqda.

#### **1.4.Matnlarni avtomatik tahrir va tahlil qilish dasturining lingvistik ta’mnoti manbalari**


Istalgan tildagi matnlarni avtomatik tahrir va tahlil qilishda kompyuter xotirasida muayyan LT bo‘lishi talab qilinadi. Lotin yozuviga asoslangan yangi alifboni isloh qilish masalasi kun tartibida turgani bois mazkur tadqiqotda kirill yozuviga asoslangan imlo qoidalari va leksik manbalariga tayanildi. Kelgusida lotin yozuvidagi matnlarning ATTini amalga oshirish jarayoniga qulaylik yaratish maqsadida ayrim o‘rinlarda lotin imlosiga oid algoritmik qoidalari berildi.

Ta’mnot asosini lingvistik qoidalari va me’yorlar tashkil etadi. Shuningdek, LTdan muayyan tilning lingvistik va filologik lug‘at boyligi ham o‘rin oladi. Shu bois lingvistik protsessorni yaratishda qayta ishlanayotgan tabiiy til haqida yetarli darajada ma’lumotga ega bo‘lish

talab qilinadi. Bu o‘z navbatida lingvistik protsessorning mukammal bo‘lishini ta’minlaydi. Lingvistik ma’lumotlar tabiiy tilning adabiy me’yorlaridir.

O‘zbek tilidagi matnlarni avtomatik tahrir va tahlil qilish dasturining lingvistik protsessorini yaratishda tilshunosga o‘zbek adabiy tilining lingvistik lug‘atlari va grammatik qoidalar jamlanmasi zarur bo‘ladi.

Xorij KLda lingvistik lug‘atlar orasida nisbatan keng tarqalgan turi **morfologik lug‘at** hisoblanadi. Bunday lug‘atda leksemaning qaysi so‘z turkumiga oidligi, uning grammatik shakllari ro‘yxati, agar leksema flektiv tilga oid bo‘lsa, o‘zgarish holatlari ham (masalan: *pisat – pishu, vodit – voju; child – children, man – men*) aks etgan bo‘lib, lug‘at matnlarni morfologik tahlil qilishda yordam beradi. Lingvistik protsessorni yaratuvchi o‘zining ish uslubiga ko‘ra lug‘atga grammatik affikslar kiritishi mumkin. Masalan<sup>71</sup>:



4-rasm. Lemmani grammatik shakllantirish jarayoni.

Morfologik lug‘at so‘zshaklning, ya’ni ismlarning turlanishi va fe’llarning tuslanishini shartli belgilashning maxsus sistemasi orqali aks ettiradigan leksikografik manba hisoblanadi. Lug‘at to‘g‘ri yoki teskari alifbo tartibida tuziladi. Teskari (inversion) tartibda so‘zning so‘nggi harfi e’tiborga olinadi. Lug‘at avvalida turlanish va tuslanish hodisasi namuna tarzida ko‘rsatilgan “Grammatik ma’lumotlar” beriladi. Shu bois har bir so‘zda “grammatik ma’lumot”ga ishora qiluvchi grammatik belgi va indeks bo‘ladi. Bu jihat foydalanuvchiga muayyan so‘zning shakl o‘zgarish hodisasini aniqlashga yordam beradi. Namunani qidirishni tezlashtirish va qulaylik yaratish uchun lug‘atning har bir sahifasi yuqorisi

<sup>71</sup> <https://www.multitran.ru/GIF/ViewWordForms.gif>

yoki kolontitulida sahifada uchragan indekslar hisobi va indekslar ifodalagan “grammatik ma’lumot”lar lug‘atning qaysi sahifasida joylashgani haqida ma’lumot keltiriladi. Morfologik lug‘atni yaratish ko‘lami va uning ahamiyatini yaqqol ko‘rsatish maqsadida quyida taniqli rus leksikografi A.A. Zaliznyakning “Грамматический словарь русского языка” kitobidan fragment berildi:

ж 8а —47 | св (нсв) 2 —92

**ВАТЬ**

отретуширо́вать	св	2а	стасовáть	св	2а
вары́ировать	нсв	2а	растасовáть	св	2а
интэрвьюи́ровать	св-нсв	2а	фасовáть	нсв	2а
проинтэрвьюи́ровать	св	2а	расфасовáть	св	2а
кровáть	ж	8а	всовáть	св	2б
дивáн-кровáть	м, склоняются обе части (косв. формы и определения избегаются)		подсовáть	св	2б
крéсло-кровáть	с, склоняются обе части (косв. формы и определения избегаются)		колесовáть	св-нсв	2а
соббрóвать	св-нсв	2а	адресовáть	св-нсв	2а
особбрóвать	св	2а	переадресовáть	св	2а
воровáть	нсв	2а	пересовáть	св	2б
наворовáть	св	2а	интересовáть	нсв	2а
обворовáть	св	2а	заинтересовáть	св	2а
разворовáть	св	2а	рисовáть	нсв	2а
поворовáть	св	2а	зарисовáть	св	2а
своровáть	св	2а	нарисовáть	св	2а
уворовáть	св	2а	обрисовáть	св	2а
озоровáть	нсв	нп	подрисовáть	св	2а
созоровáть	св	нп	перерисовáть	св	2а
селитровáть	св-нсв	2а	разрисовáть	св	2а
нитровáть	св-нсв	2а	изрисовáть	св	2а
			пририсовáть	св	2а
			дорисовáть	св	2а
			порисовáть	св	2а
			прорисовáть	св	2а

O‘zbek tilidagi matnlarni ATT dasturining morfologik tahlil qilish bosqichi modullarini yaratishda ham morfologik lug‘at juda muhimdir. Ammo bunday lug‘atning yo‘qligi bois asosiy manba vazifasini bajaruvchi sifatida morfem lug‘atlardan foydalanildi. Bunday lug‘at birinchi marta A.G‘ulomov, A.N.Tixonov, R.Q.Qo‘ng‘urov tomonidan tuzilib, 1977-yilda “O‘qituvchi” nashriyoti tomonidan chop etilgan<sup>72</sup>.

Imlo lug‘atlaridagi leksemalarning qaysi so‘z turkumiga oidligini aniqlashda “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”<sup>73</sup> muhim yordamchi manba hisoblanadi. Leksemaning o‘ziga qanday affikslarni biriktira olishi, affikslar kombinatsiyalarini tuzishda “O‘zbek tilining morfem lug‘ati”ga tayanildi.

Ma’lumki, adibning til mahorati, eng avvalo, sinonimik qatorlardan foydalanishda ko‘zga tashlanadi. Sinonimik qatordan mos, kerakli birlikni tanlab olish ekspressivlikni, subyektiv bahoni aniq ifoda etishning eng

<sup>72</sup> G‘ulomov A. va boshq. O‘zbek tilining morfem lug‘ati. – Toshkent. 1977 – 463 б.; Samad A. “X” va “H”li so‘zlarning imloviy lug‘ati. – Toshkent, 2007. – 346 б.; Mengliyev B., Bahriiddinova B. O‘zbek tilining so‘z tarkibi o‘quv lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2007.

<sup>73</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi (A. Madvaliyev tahriri ostida). 5 jildli. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.

to‘g‘ri yo‘li bo‘lganligi tufayli u matn tuzishda zarur lingvistik vosita sanaladi. Buning ustiga tilda sinonimik variantlar borligi uchun uslubiy me’yorni belgilash imkoniyati mavjud. A.Hojiyevning “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”<sup>74</sup> ana shu sinonimik variantlarni farqlashda muayyan darajada amaliy yordam beradi.

O‘zlashma leksemalar lug‘atida o‘zbek tiliga boshqa tildan kirib kelgan leksemalar izohlanadi. Bu tildagi lug‘at – izohli lug‘atning bir ko‘rinishi bo‘lib, ular qaysi tildan o‘zlashgan leksemani izohlashiga ko‘ra turlicha nomlanadi<sup>75</sup>. Texnika asridagi yangilanish va o‘zgarishlar tufayli terminologiyada ko‘plab o‘zlashma so‘zlar paydo bo‘lmoqda, ilmiy va rasmiy terminlar ko‘lami oshmoqda. Shu bois o‘zlashma so‘zlar lug‘atining yangi tahririni chiqarish zamon talabidir.

Frazeologizmlar mohiyat e’tibori bilan, asosan, so‘zlashuv va badiiy nutq mevasidir. Ulardagi boshqa uslubga xos chegaralanishlar esa ma’lum muddat keyin yuzaga keladi. Chunonchi, birgina *o‘lmoq* leksemasining ma’nosini anglatadigan yuzga yaqin evfemizmlar sinonimik qatorining paydo bo‘lishi ularning vazifaviy chegaralanish imkoniyatini tug‘diradi. Masalan, bu qatorga kiradigan *olamdan o‘tmoq, dunyodan o‘tmoq, omonatini topshirmoq, qulog‘i ostida qolmoq, jon bermoq* so‘zlashuv uslubida ishlatilsa, *vafot etmoq, hayotdan ko‘z yummoq, dunyodan ko‘z yummoq, hayot bilan vidolashmoq* kabilar ommabop va rasmiy uslublarda uchraydi. *Allah rahmatiga yo‘l tutmoq, shahodat sharobini ichmoq, dorilfanadan dorilbaqoga rixlat qilmoq* singarilar esa badiiy matnga tegishlidir. Bundan ko‘rinib turibdiki, frazeologizmlar lug‘ati<sup>76</sup> dasturning mukammalligini ta’minlovchi manbalardan biri hisoblanadi.

Iboralar turg‘un so‘z birikma hisoblansa-da, komponentlari o‘rtasidagi sintaktik derivatsiya dinamik xarakterda bo‘ladi. Bu holat iboralarning faqat shakliy tomoniga ta’sir qilib, uning semantikasida ma’no yaxlitligi va majoziylik saqlanadi. Birikma komponentlarining sintaktik munosabati o‘z o‘rnida frazeologik birikmaning jumlada sintaktik munosabatga kirishishida birlamchi hisoblanadi. Masalan: *sabr kosasi to‘lmoq* – predikativ belgiga ega ibora, N (N<sub>0</sub>+N<sub>e.a.</sub>=>otli birikma)+V: *Mening sabr kosam to‘ldi; Sabr kosang to‘lgandir; Uning sabr kosasi ham to‘ldi; Sabr*

<sup>74</sup> Hojiyev A. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1974. – 308 b.

<sup>75</sup> Usmon O., Doniyorov R. Ruscha-internatsional so‘zlar izohli lug‘ati. – Toshkent, 1965.; Hamrayeva Y. O‘zbek tilining o‘zlashma so‘zlar o‘quv izohli lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2007.

<sup>76</sup> Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001. – 407 b.; Mengliyev B. va boshq. O‘zbek tili iboralarining o‘quv izohli lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2007.

*kosamiz to 'lib bormoqda*. Shu bois LTda 1393 frazema bazasi yaratildi, frazema so‘zga teng birlik [frazema=so‘z] deb olindi va morfologik tahlil moduli uchun ularda grammatik shakllarning o‘zgarish o‘rni belgilandi.

Matnni yozish jarayonida nutqda talaffuzi bir-biriga yaqin leksemalarni yanglish almashtirib yoxud aytilishi bo‘yicha yozish hollari ham uchramoqda. Masalan, *tanbur* o‘rniga *tambur*, *adil* o‘rniga *adl*, *teri* o‘rniga *tire*, *yonilg‘i* o‘rniga *yoqilg‘i*, *sudxo‘r* o‘rniga *sutxo‘r* qo‘llash kabi. Ko‘pchilik AYoQSh abbreviatsiyasining kengaytmasi *avtomobil* *yonilg‘i quyish shaxobchasi* ekanligiga ahamiyat bermaydi. Shuning uchun *avtomobil yoqilg‘i quyish* (yoxud *qo‘yish*) *shaxobchasi* deb o‘ylashadi. Vaholanki, *yonilg‘i* – gaz, kerosin, benzin kabi yonuvchi suyuqliklar majmui; *yoqilg‘i* – o‘tin, ko‘mir kabilar majmui<sup>77</sup>. Shuni nazarda tutib, bunday leksemalarning ma’nolarini farqlash maqsadida A.Ma’rufovning “Paronimlar lug‘ati”<sup>78</sup>ga murojaat qilamiz. Matnni kirituvchi shaxs leksemaning to‘g‘ri kiritilganiga shubha qilayotgan paytida dastur protsessoriga joylashtirilgan paronimlar lug‘atiga murojaat qiladi va leksemaning anglatgan ma’nosiga qarab uni o‘z o‘rnida qo‘llaydi.

ATT qilish dasturini yaratishdagi lingvistik muammolardan biri omonimlik hodisasini avtomatik tushunish masalasidir (qarang: II bob, 2.4-paragraf). Ushbu masala birmuncha dolzarb bo‘lib, uning echimini topishda, albatta, maxsus modullar muhim ahamiyatga molikdir. Lingvistik modullar dastur bazasidagi mavjud omonim so‘zlar uchun mo‘ljallangan bo‘ladi. Shu bois bazaga Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati”<sup>79</sup> kitobida keltirilgan, shuningdek, keyinchalik nutqda paydo bo‘lgan jami 1378 ta omonim birliklar jamlandi. Mazkur lingvistik ta’minotga jamlangan omonimshakllar statistikasi tubandagicha:

otshakl	866	ta,
fe'lshakl	227	ta,
ravishdosh	2	ta,
harakat nomi	3	ta,
ko‘makchi fe'lshakl	7	ta,
sifatshakl	183	ta,
sonshakl	7	ta,
ravishshakl	19	ta,
olmoshshakl	5	ta,
bog‘lovchishakl	5	ta,
ko‘makchishakl	5	ta,
yuklamashakl	8	ta,
modalshakl	7	ta,
undovshakl	12	ta,
taqlidshakl	16	ta,
hisob so‘zshakl	3	ta,
predikativ so‘zshakllar	5	ta.

Tezaurus va ontologiyalar lingvistik manbalarning o‘ta muhim turlaridan hisoblanadi. Tezaurus (yunoncha thesaurós – *xazina*, *boylit*) lug‘atning o‘ziga xos maxsus ko‘rinishi bo‘lib, unda lug‘aviy birliklar o‘rtasidagi semantik munosabat (sinonimlar, antonimlar, paronimlar,

<sup>77</sup> Ma’rufov A. Paronimlar lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1974. – B.20.

<sup>78</sup> O‘sha asar.

<sup>79</sup> Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1984. – 215 b.

giponimlar, giperonimlar va h.k.) ko‘rsatilgan bo‘ladi. Shu bois mazkur lug‘atlar ATTSning semantik tahlil bosqichida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Izohli lug‘atdan farqli ravishda tezaurus nafaqat so‘zning ma’nosini izohlaydi, balki muayyan so‘zning boshqa so‘zlar bilan bog‘lanishi (valentligi)ni ko‘rsatib beradi. Bu esa tezaurus lug‘atlardan sun’iy intellekt tizimining bilimlar asosini oshirishda foydalanish mumkinligini ko‘rsatadi. Bunday lug‘atlarning ommalashuvi informatsion qidiruv vazifasining yechimini beradi<sup>80</sup>.

Tezaurus tushunchasi bilan ontologiya tushunchasi chambarchas bog‘liq<sup>81</sup>. Ontologiya (yunoncha ontós – *borliq*, logós – *ta’limot*) – borliq haqidagi falsafiy ta’limot. Ontologik lug‘atlarning lingvistik hisoblanishining sababi ular ma’lum bir tilning so‘z boyligi asosida tuzilishi mumkin.

Ontologiyani til birliklarini nutqiy vaziyat, til egalarining ruhiyati, olam haqidagi bilimlari, intellektual salohiyati, assotsiativ tafakkuri, milliy-madaniy qarashlari kabi ekstralolingvistik omillar bilan bog‘liq holda to‘ldirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shundagina, lingvoontologiya mukammal foydalishga ega bo‘ladi. Zero, tildagi mavjud leksemalar inson kognitsiyasi mahsuli sifatida til egalarining olam haqidagi bilimlarini saqlash va uzatish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

WordNet<sup>82</sup> tizimi shunday lingvistik ontologiya hisoblanib, u yirik leksik resursdir. Ushbu tizimda ingliz tilidagi ot, sifat, fe’l, ravish turkumlariga oid leksemalar va ularning semantik bog‘lanishi mavjud. Tizimda ko‘rsatilgan turkumlarning har biridagi so‘zlar antonimlar, giponim va giperonimlar (jins-tur), xolonim va meronimlar (butun-bo‘lak) bilan munosabatda bo‘lgan sinonimlar guruhi (*sinsetlar*)ga ajratilgan. Tizim resursi 25000 ga yaqin so‘zni qamragan. Jins-tur munosabati uchun ierarxik munosabatdagi so‘zlar soni esa 15000 tani (7-8) tashkil etadi. Ierarxiyaning eng yuqorigi darajasi olam haqidagi asosiy tushunchalar tizimi – umumiyligini yuzaga keltiradi. Ingliz WordNet sxemasi bo‘yicha boshqa g‘arb tillarining leksik resurslari tuzilgan.

Nafaqat matnlarni ATT qiladigan, balki matnlarni qayta ishlovchi barcha lingvistik dasturlarning alohida lingvistik resursi tabiiy tilning

<sup>80</sup>Лукашевич Н.В., Салий А.Д. Тезаурус для автоматического индексирования и рубрицирования: разработка, структура, ведение // НТИ, Сер. 2, №1, 1996. – С.1-6.

<sup>81</sup> Hirst, G. Ontology and the Lexicon. In.: Handbook on Ontologies in Nformation Systems. Berlin, Springer, 2003.

<sup>82</sup> Word Net: an Electronic Lexical Database / Edit. by Christiane Fellbaum. Cambridge, MIT Press, 1998.

grammatikasidir. Birinchi o‘rinda grammatika o‘zining me’yoriy qoidalari bilan muhimdir. Grammatik qoidalari soni morfologiya va sintaksis modeliga bog‘liq.

Xulosa tarzida aytish joizki, lingvistik dasturlarning ta’mintonini yaratishda grammatik lug‘atlar muhim ahamiyatga ega. Grammatik lug‘atlar leksemaning morfologik va sintaktik xususiyatlari haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan lug‘atlar bo‘lib, ularda leksemalar to‘g‘ri yoki teskari alifbo tartibida yoziladi. Leksema haqidagi ma’lumotlar hajmi va leksemalarni tanlash prinsipi har bir grammatik lug‘atni yaratuvchining maqsadiga qarab farqlanadi<sup>83</sup>. A.Po‘latov hozirgi zamon talablariga ko‘ra samaradorligi katta bo‘lgan lug‘at kompyuter lug‘ati ekanligini ta’kidlaydi va kompyuterli lug‘at qismlari hamda unga quyiladigan talablarni keltiradi<sup>84</sup>. E.I.Bolshakova o‘z izlanishlarida lingvistik protsessor lingvistik ma’lumotlar modeliga asoslanishini, ya’ni DTning lingvistik resurslarini quyidagilar tashkil etishini ta’kidlaydi: kompyuter lug‘atlari, tabiiy til grammatikasi, so‘z birikmalari bazasi, tezaurus va ontologiyalar, matnlar majmuasi va korpus<sup>85</sup>.

Kompyuterli tezaurus va kompyuterli grammatik lug‘atlarni tuzish dasturning lingvistik modullarini ishlab chiqishdan ko‘ra keng ko‘lamli va sermashaqqat ishdir. Shuning uchun KLning muhim vazifalaridan biri avtomatlashtirilgan lingvistik resurslarni yaratish hisoblanadi<sup>86</sup>.

---

<sup>83</sup> [http://gramota.ru/slovari/types/17\\_5](http://gramota.ru/slovari/types/17_5)


<sup>84</sup> Po‘latov A. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent: Akademnashr, 2011. – B. 213.

<sup>85</sup> Большая Е.И. и др. Автоматическая обработка текстов на естественном языке и компьютерная лингвистика. Учебное пособие. – Москва: МИЭМ, 2011. – С. 97-99.

<sup>86</sup> Hearst, M.A. Automated Discovery of WordNet Relations. In: Fellbaum, C. (ed.) WordNet: An Electronic Lexical Database. MIT Press, Cambridge, 1998, – P. 131-151.

Matsumoto Y. Lexical Knowledge Acquisition. In: The Oxford Handbook of Computational Linguistics. Mitkov R. (ed.). Oxford University Press, 2003, – P. 395-413.

## Avtomatik tahrir va tahlil dasturi manbalari



5-rasm. ATT manbalari.

Matnlarni ATT qilish dasturini innovatsion ta’limning bir ko‘rinishi sifatida qayd etib, uning quyidagi imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatish mumkin:

- 1) turli hajmdagi matnlarni tezkor tahrir qiladi;
- 2) matn teruvchining yozma nutq malakasini takomillashtiradi;
- 3) foydalanuvchiga matnlarni mustaqil ravishda to‘g‘ri va savodli yozishida ko‘mak beradi;
- 4) o‘zbek tilining leksik, grammatik me’yorlarini o‘rganishda lingvistik manba vazifasini o‘taydi.

### 1.5. O‘zbek tilidagi matnlarni avtomatik tahrir va tahlil qilish sistemasini yaratishda uslub masalasi

Ma’lumki, til – ma’lumot manbai, ma’lumot esa (tilning yozma shaklida) matnda namoyon bo‘ladi. Matn o‘z navbatida til birliklarining grammatik jihatdan shakllanishidan yuzaga keladi. Demak, til va matn axborot almashuvining yozma shaklida bir-birini taqozo etuvchi vositalar hisoblanadi (“TIL↔MATN”). Shuningdek, til xoh og‘zaki, xoh yozma shaklda bo‘lsin, muloqot manbai sanalanadi. E.V. Yagunova tabiiy tilning har bir foydalanuvchisi yozma tildan foydalanish ko‘nikmasini egallasa (og‘zaki til qatorida) va bir tildan ikkinchi tilga (bir koddan ikkinchi kodga) muloqot talabi bilan o‘ta olish qobiliyatiga ega bo‘lsa uni bilingv

deb atash haqli, deydi<sup>87</sup>. Ko‘rinadiki, “TIL↔INSON” bog‘liqligi muhim o‘rin tutadi. Yuqoridagi fikr bilan birlashtirganda “TIL↔INSON↔MATN” bog‘lanishi yuzaga keladi, ya’ni til imkoniyatlari inson orqali yuzaga chiqadi, inson ma’lumotlarni muloqot vositasida yetkazadi, ma’lumotlar matnda saqlanadi va matn orqali namoyon bo‘ladi. Bir tabiiy tilning minglab foydalanuvchilari, ularning har birida turli xil ma’lumotlarni boshqalarga yetkazish maqsadi bo‘ladi. Shu bois bir tilda yaratilgan matnlardagi ma’lumotlar turi va darajasiga qarab bir-biridan uslub jihatidan farqlanadi.

O‘zbek tilidagi matnlarni ATT qilish dasturi lingvistik bazaning yaratilishida milliy tilning funksional uslublari e’tiborga olinishi darkor. Chunki til uslublariaro xilma-xillik, bir-biridan farqlanuvchi xususiyatlar LTning to‘liq va mukammal shaklda qisqa vaqt ichida dastur protsessoriga yetkazilishiga to‘sinqilik qiladi. Bu, asosan, ilmiy, rasmiy va publitsistik uslublarning so‘zlashuv hamda badiiy uslublardan vazifa va xususiyatlari jihatidan faqlanishida ko‘rinadi.

O‘zbek tili uslublarini vazifaviy jihatdan tasnif qilish ikki omilga – til va tildan tashqarida bo‘lgan omillarga tayanadi<sup>88</sup>. Uslublarning A.Shomaqsudov, I.Rasulov, R.Qo‘ng‘urov, E.Begmatovlar tomonidan tavsiya etilgan variantlari mavjud bo‘lib, ularda asosan beshta uslub – so‘zlashuv, ommabop, ilmiy, rasmiy va badiiy uslublar e’tirof etiladi<sup>89</sup>

So‘zlashuv uslubi maishiy muloqotdan iborat bo‘lib, unda sheva, jargon, argo, varvarizm, vulgarizm kabilarni o‘z ichiga olgan til qatlami yetakchilik qiladi. Shu bois so‘zlashuv uslubi ATT dasturining lingvistik ta’minotida o‘z o‘rniga ega emas.

Badiiy uslub rang-barang xarakterga ega. Unda milliy tilning barcha tasvir vositalari va hodisalari namoyon bo‘ladi. Hatto she’riy matnlarni hisobga olmaganda ham, ko‘pgina badiiy uslubdagi matnlarni bir xil xususiyatlar bo‘yicha tuzish qiyin. Badiiy uslubdagi matnlarda ma’lumot tashish vazifasi yo‘q bo‘lib, asosan, estetik vazifani bajaradi. Rasmiy, ilmiy va publitsistik uslublardagi matnlar asosida ma’lumot yotadi. Misol sifatida qonun, shartnomalar, farmon, farmoyish matnlari (yuridik kuchga ega bo‘lgan va to‘g‘ri ma’noda tuzilgan), gazeta, jurnal, ilmiy nashrlarni

<sup>87</sup>Автоматическая обработка текстов на естественном языке и компьютерная лингвистика. Учебное пособие / Большикова Е.И., Клышинский Э.С., Ландэ Д.В., Носков А.А., Пескова О.В., Ягунова Е.В. – Москва: МИЭМ, 2011. – 272 с.

<sup>88</sup> Xudoqulov M. Badiiy publitsistika janrlari. – Toshkent: Universitet, 2010. – B. 26.

<sup>89</sup> Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983, – 246 b.; Qo‘ng‘irov R., Begmatov E., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992.

sanab o‘tishimiz mumkin. Ushbu uch uslubning funksional xususiyatlari deyarli bir xil, ya’ni bunday matnlarda aniqlilik, qisqalik, mantiqiy izchillik yetakchilik qiladi. Ammo ta’kidlash o‘rinliki, rasmiy uslub boshqa uslublarga nisbatan qat’iy lingvistik talablarga bo‘ysunadi va amal qiladi. Quyida o‘zbek tilidagi mantlarni ATT dasturining qaysi uslubdagi matnlarni tahlil qilishga mo‘ljallanganligining sabablari yoritildi.

Rasmiy uslubning yozma shaklida qonun matnlari, buyruq, farmoyish, farmon kabi rasmiy ish qog‘ozlari, diplomatik shartnomalar va boshqa huquqiy hujjatlar yoziladi. Demak, ushbu hujjatlardagi bayon qilingan fikr ish qog‘ozining nutqini tashkil qiladi.

Rasmiy uslubdagi matnlar noaniqlikdan yiroq bo‘lib, fikrlar sodda, aniq mazmunda va tushunarli qilib yoziladi: *Davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdar shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas’uldirilar* (O‘zR Konstitutsiyasi, 2-modda).

Rasmiy uslubda yozilgan hujjatlardagi muhim holat shuki, ularda tayyor, formulaga kirib qolgan, andozalangan jumlalar ishlatiladi, o‘ziga xos ifodalariga ega: *buyuraman, yuklatilsin, ma’muriy javobgarlik, fuqarolik holati, fuqarolik javobgarligi, aybdor, gumondor, jabrlanuvchi, belgilanadi, asoslanadi, hisoblanadi, himoya qilinadi, amalga oshiradi, tan olinadi, ish ko‘radi, ado etadi, kafolatlanadi, taqiqlanadi, tavsiya etiladi, jamoat kafilligi, surishtiruv, jabrlanuvchi bilan yarashuv* singari leksik birliklar, birikmalar qo‘llanadi.

Shuningdek, hujjatlarda yangi leksemalar qo‘llanilmaydi, agar leksemalar terminologik ma’noda bo‘lsa ular umumiste’moldagi sodda leksemalar bilan almashtiriladi. Qisqartmalardan foydalanilganda ehtiyyotkorlik talab qilinadi.

Ushbu uslub uchun jargonlar, oddiy so‘zlashuvga xos leksemalar, emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lgan leksemalarning ishlatilishi me’yor sanalmaydi va shu jihat bilan boshqa uslublardan keskin farq qiladi.

Rasmiy uslubning grammatik me’yorlaridagi muhim jihat shuki, so‘zshakllar morfemik qoida asosida (asos+so‘z yasovchi affiks+lug‘aviy shakl yasovchi affiks+sintaktik shakl o‘zgartiruvchi affiks: *buyur+uq+lar+dagi=buyruqlardagi*) yoziladi. Bu esa dasturning lingvistik modullarini yaratishda tilshunosni *uylarimdagilarim, egnilarimda, bolalikdagilarimi* kabi nome’yoriy so‘zshakllar ustida vaqt sarflab, bosh qotirishdan saqlaydi.

Rasmiy uslubning sintaktik alomatlari ham matnda darhol ko‘zga tashlanadi. Unda darak gaplar, ayniqsa, qo‘shma gap shakli ko‘p ishlatiladi. Yoyiq va murakkab so‘z birikmalari mahsuldor hisoblanadi, murakkab tipdagi nomlar keng qo‘llaniladi. Gap tuzilishida o‘zbek tilining me’yoriga amal qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2014-yil 28-fevraldagagi “Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 53-mh-sonli buyrug‘ida idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish qoidalari berilgan bo‘lib, ushbu qoidalar matnlarni avtomatik tarzda tahrir qiluvchi dastur ta’mintoni shakllantirishda rasmiy uslubdagi matnlar uchun tayanch manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu buyruqda *idoraviy normativ-huquqiy hujjat* yoyiq so‘z birikmasiga vazirlik, davlat qo‘mitasi va idora tomonidan belgilangan tarzda qabul qilingan, umum majburiy davlat ko‘rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjat<sup>90</sup>, deb izoh berilgan.

Buyruqning 1-ilovasi, 2-§, 25-26-27-bandlarida quyidagi qoidalar kiritilgan bo‘lib, ular idoraviy normativ-huquqiy hujjatning ham shakliy, ham grafematik tuzilishini belgilab beradi:

“25. Huquqiy normalar arab raqamlarida belgilanib, nuqta qo‘yilgan bandlar ko‘rinishida bayon qilinadi va sarlavhaga ega bo‘lmaydi. Idoraviy normativ-huquqiy hujjat bandlari izchil ketma-ketlikda raqamlanishi kerak. Bandlar doirasimon qavslar bilan berkitiladigan kichik harflar yoki raqamlar ko‘rinishidagi kichik bandlarga hamda xatboshilarga bo‘linishi mumkin.

26. Idoraviy normativ-huquqiy hujjatda quyidagilarga:

- ikkitali raqamlarni ishlatishga (masalan, «1.1», «5.1.1», «1.a», «a.a» va h. k.);
- bir vaqtning o‘zida kichik bandlarni va mustaqil (kichik bandlar bilan bog‘lanmagan) xatboshilarni bayon etishga;
- xatboshilar boshlanishida defis yoki boshqa belgilar ishlatishga yo‘l qo‘yilmaydi.

27. Hajmiga ko‘ra idoraviy normativ-huquqiy hujjat kamayib boruvchi quyidagicha tuzilmaviy birliklarga bo‘linadi: bo‘limlar, boblar, paragraflar, bandlar, kichik bandlar va xatboshilar. Ikkinci va keyingi xatboshilarni bo‘lishga yo‘l qo‘yilmaydi.

---

<sup>90</sup>“Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2014-yil 28-fevraldagagi 53-mh-sonli buyrug‘i, 1-§, 1-bo‘lim, 2-band.

Bo‘limlar rim, boblar esa arab raqamlari bilan raqamlanadi va sarlavhalarga ega bo‘ladi. Paragraflar «§» belgisi bilan belgilanadi, arab raqamlari bilan raqamlanadi va sarlavhalarga ega bo‘ladi<sup>91</sup>.

Ilmiy uslub ilmiy asarlar uslubidir. Mazkur uslubda dalil va asoslarga tayanilishi, fikriy izchilllikning yetakchilik qilishi jihatdan rasmiy uslubga yaqin turadi.

Ilmiy uslubda so‘zlar bir ma’noda qo‘llanadi, sinonimik qatordagi variantlardan masalaning mohiyatini birmuncha aniq ifoda etadigan varianti tanlanadi yoki neytral varianti (dominanta)ni qo‘llash taqozo etiladi. Terminlarni ishlatish bu uslubning asosiy xususiyati sanalgani bois tahrir va tahlil dasturining lingvistik ta’minotini yaratishda terminlarga ham jiddiy e’tibor berish talab etiladi.

Mantiqiy izchilllik ilmiy bayon uslubining o‘ziga xos xususiyatini tashkil etadi. Ilmiy uslub matndagi so‘zlar, gaplar, abzatslarning o‘zaro mantiqiy bog‘lanishini talab qiladi. Shuning uchun ham ilmiy matnlar bu izchilllikni yuzaga keltiruvchi *ma’lumki*, *ma’lum bo’ladiki*, *ta’kidlash lozimki*, *ta’kidlash o’rinliki*, *darhaqiqat*, *binobarin*, *shunday ekan*, *birinchidan*, *ko’rinadiki*, *ta’kidlash joizki*, *xulosa qilib aytganda*, *xulosa qilganimizda*, *birgina misol* kabi ko‘plab bog‘lovchi vazifasini bajaradigan leksema va birikmalar qo‘llaniladi. Lingvistik ta’mindan bu kabi ifodalar “tayyor ifodalar” tarzida bir guruhgaga kiritiladi.

Bu uslubda xuddi rasmiy uslubda bo‘lgani kabi, leksemalar ko‘chma ma’nolarda qo‘llanmaydi, tasviriy vositalardan unumli foydalanilmaydi. Subyektiv emotsiyonallik, obrazlilik, og‘zaki nutq elementlari, umuman, g‘ayri adabiy unsurlar kam ishlatiladi. Mumkin qadar bayon bir xil me’yorda ifoda etiladi. Ilmiy uslubning morfologik xususiyatlari to‘g‘risida M.Mukarramovning “Hozirgi o‘zbek adabiy tilining ilmiy stili” monografiyasida quyidagi fikrlar bayon qilingan:

Ilmiy uslubda faqat adabiy tilda me’yor sifatida e’tirof etilgan grammatik ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. So‘z turkumlaridan ot faol, ko‘pincha takror qo‘llanadi. Subyektiv baho shakllari xos emas. *-lar* ko‘plikdan boshqa semantik-uslubiy ma’nolarni ifodalamasa-da, termin hosil qilishda ishtirok etadi. Umumiyligi egalik ustun turadi, I-II shaxs qo‘shimchalari ishlatilmaydi, III shaxs shakli faol. Undov va taqlid so‘zlar

<sup>91</sup>“Idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va qabul qilish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2014-yil 28-fevraldagagi 53-mh-sonli buyrug‘i, 1-bob, 2-§, 25-26-27-bandlar.

ham bu uslubga xos emas. Yuklamalarning esa imkoniyati chegaralangan<sup>92</sup>.

Ilmiy nutq uchun *deyiladi*, *aytiladi*, *yoritiladi*, *bayon qilinadi*, *aniqlanadi*, *tekshiriladi*, *foydalilaniladi*, *ta'riflanadi* singari xoslangan fe'lllar mavjud. Fe'lning majhul daraja shakli ham bu uslub uchun xos.

Rasmiy va ilmiy uslublarning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. So'zlar o'z ma'nosi (denotativ)da va har bir sohaning o'ziga xos terminlaridan foydalilaniladi.
2. Darak gaplar, qaror, buyruq ko'rsatmalardan foydalilaniladi.
3. Gap bo'laklari odatdagi tartibda bo'ladi.
4. Rasmiy uslubdagi hujjatlar qisqa, aniq, lo'nda barcha uchun tushunarli qilib tuziladi.
5. Tasviriylik va majoziylikka yo'l qo'yilmaydi.
6. Buyurish va undash ohangi kuchli bo'ladi.
7. Rasmiy hujjatlarning qolip matnlari – tayyor andozalari ishlab chiqilgan.
8. Yozma nutq shaklida amal qilinadi. Ifoda aniq, ixcham, izchil va tushunarli bo'ladi.

Til taraqqiyotida muhim omil sanaladigan publitsistikada tilning imkoniyatlaridan keng foydalananadi. Publitsistik janrda yozilgan asarlarning mohiyatan hozirjavobligi, axborot hamda targ'ibot-tashviqot xarakterda bo'lishi va ommani dunyo yoki mamlakat miqyosida sodir bo'layotgan voqeа-hodisalardan zudlik bilan xabardor qilish natijasida yuzaga keladigan novatorlik, ularda tabiiy ravishda yangi ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning qo'llanilishi va tilda me'yorlashishiga sabab bo'ladi. Boshqacha aytganda, ommabop uslub tilning yangi so'z va iboralar hisobiga boyib borishiga ko'maklashadi.

Ommabop uslubda shakllangan matnlar obrazliligi, ta'sirchanligi, tasviriy vositalarning faol qo'llanilishi bilan badiiy uslubga yaqinlashsa, dialektizmlar, istorizmlar, argo va jargonlar qo'llanilmasligi nuqtayi nazardan undan uzoqlashadi. Ifodaning aniqligi, publitsistik janrlarga xoslangan hamda ijtimoiy-siyosiy terminologiyaning qo'llanilishi jihatdan ilmiy uslubga o'xshaydi. Shu bilan birga, ifodadagi qisqalik, lo'ndalik, ixchamlik, yorqinlik kabi jihatlar uni ilmiy uslub bilan yonma-yon qo'yadi.

---

<sup>92</sup> Mukarramov M. Hozirgi o'zbek adabiy tilining ilmiy stili. – Toshkent: Fan, 1984. – B.13.

Ijtimoiy-siyosiy terminlar asosan *-chi*, *-parast*, *-parvar*, *-xona*, *-noma*, *-dor*, *-kor* kabi affikslar yordamida yasaladi: *terrorchi*, *qo'poruvchi*, *aqidaparast*, *millatparvar*, *devonxona*, *bojxona*, *hissador*, *tadbirkor* kabi.

Kezi kelganda mazkur uslubda so'z yasalish imkoniyatining boshqa vazifaviy uslublarga nisbatan mahsuldor ekanligini ta'kidlash o'rinni. Shuningdek, *MDH*, *BMT*, *NATO*, *NASA*, *YUNESKO*, *O'zMU*, *TDO'TAU* kabi qisqartmalardan keng foydalaniladi. Shu o'rinda tahrir dasturining grafematik tahrirlash bosqichining muhim ahamiyat kasb etishi yaqqol ko'rindi.

Badiiy uslub o'zbek tili vazifaviy uslublari orasida o'ziga xos mavqega ega bo'lib, ayni paytda alohida me'yorlarga ham ega. Til materialini qamrab olish imkoniyatining kengligi, umumxalq tilida mavjud barcha lingvistik birliklar, shu bilan birga, boshqa vazifaviy uslublarga xos elementlarning ham ishlatilaverishi, ularning muhim bir vazifa – badiiy-estetik vazifani bajarishga xizmat qilishi badiiy uslubning asosiy xususiyati hisoblanadi.

Badiiy adabiyot tilidagi fonetik o'zgarishlarning mavjudligi (*So'rma mendan, kim diloro / Do'stmi yo janona deb*. E.Vohidov; *Ne balolig' kun edikim. Oshino bo'ldim sango*. Alisher Navoiy; *Quyosh orqasidan – behisob chirog'/ Nuriga kiradi mamlakat shu chog'*. Zulfiya), shuningdek, orfografik me'yor talablariga muvofiq kelmaydigan *qaro*, *yamon*, *yaro*, *oshno*, *talosh* singari so'zlarning ishlatilishi lingvistik ta'minotni yaratishda badiiy uslubni cheklab turishga sabab bo'ladi. Bundan tashqari, hozirgi o'zbek adabiy tilida so'z yasovchi, ko'plik, egalik, kelishik, daraja, shaxs-son, zamon, mayl, nisbat kabi ma'nolarni ifodalovchi affikslarning nutqdagi ishtirokida, yordamchi so'zlarning turlicha ko'rinishlari va variantlarida namoyon bo'lishi badiiy uslubga oid matnlarda ko'p uchraydi. Bu esa o'z navbatida:

birinchidan, affikslarning har bir varianti va ular orqali hosil qilinadigan affiklar kombinatsiyasi ustida ishlashda ko'p vaqt ni talab qiladi. Natijada ishni yakunga yetkazish sezilarli darajada orqaga suriladi;

ikkinchidan, affiklar kombinatsiyasi ulkan hisobni tashkil etishi bilan birga dastur protsessoridan ham katta hajmni talab etadi;

uchinchidan, hosil qilingan minglab kombinatsiyalarning har biri qaysi leksemaga birikishi yoxud har bir leksemaning o'sha kombinatsiyalar bilan bog'lana olish yoki bog'lanmasligini tekshirishda tilshunosdan o'ta jiddiylik va diqqat e'tiborni talab qildi. Chunki o'zbek tili leksikasi boy til hisoblanadi, ularning har birini hosil qilingan minglab

affikslarning kombinatsiyalari bilan birika olish xususiyatini tekshirib ko‘rish imkonsizdir.

Bundan tashqari, rasmiy, ilmiy va ommabop uslublarda grammatik shakllarning adabiy-me’yoriy variantlari ishlatsa, badiiy uslubda bu grammatik shakllarning barcha ko‘rinishlari – lahja va tarixiy variantlari ham asarning mavzu talabi bilan qo‘llanilaveradi.

So‘zlashuv uslubi kishilarning o‘zaro erkin muomalalarini yuzaga keltirishda xizmat qiladi. Bugungi kunda so‘zlashuv uslubi nafaqat og‘zaki, balki yozma shaklda ham amalda. Buni, asosan, global tarmoqda yoshlar o‘rtasidagi yozishmalarda ko‘rishimiz mumkin. Vaqtni tejash maqsadida *w-sh*, *6-o'*, *4-ch*, *u-o'* harflari almashib *yaxwi* (yaxshi), *ki4ik* (kichik), *yow* (yosh), *yu* yoki, *yo* (yo‘q), *nimidi* (nima edi), *k64a* (ko‘cha) kabi leksemalarni yozishda qo‘llanilishi so‘zlashuv uslubida yozilgan matnlarni avtomatik tahrirlashda butunlay chetlab o‘tishni taqozo etadi. Bu uslubning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u xoh og‘zaki, xoh yozma shaklda bo‘lsin, nutq jarayonida til va tildan tashqari omillar faol qo‘llaniladi, ayniqsa, sheva elementlari yetakchilik qiladi, varvarizmlarga keng o‘rin ajratiladi. Ayni paytda, bu jihat so‘zlashuv uslubidagi me’yoriy holatlarni belgilashni qiyinlashtiradi.

E’tiborli tomoni shundaki, nutqda tovushlarning uyg‘unlashuvi (*ketti*, *ottan*, *yigichcha*), bir tovush o‘rnida ikkinchisining talaffuz qilinishi (*traktir*, *zaril*, *direktr*, *kampitr*), tovushlarning o‘rin almashishi (*bunni*, *turpoq*, *aynalmoq*), tovushlarning orttirilishi (*o‘ramol*, *fikir*, *banka*, *ustol*), tushirib qoldirilishi (*gazet*) kabi fonetik hodisalar avvalo so‘zlashuv uslubida namoyon bo‘ladi.

Ko‘rib o‘tganimizdek, matn uslubiy mohiyatiga ko‘ra ilmiy matn (tezis, maqola, ma’ruza, annotatsiya, taqrizlar), badiiy matn (nasriy va nazmiy asarlar), rasmiy matn (ma’lumotnama, qaror, buyruq, farmon, farmoyish, tavsifnama, tavsiyanomalar, rasmiy nutq matni), publisistik matn (kundalik nashrlardagi maqolalar), so‘zlashuv matni (internet tarmoqlaridagi yozma muloqot) kabi tarmoqlarga bo‘linadi.

Zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan unumli foydalanish ko‘lami barcha sohada oshmoqda. Hatto texnologiyasiz ish faoliyatini yuritish ham qiyin kechadi. O‘zbek tilidagi matnlarga avtomatik ishlov beruvchi DTning mukammal bo‘lishini ta’minlash, uning aniqligi va sifat ko‘rsatkichini oshirish maqsadida badiiy va publisistik uslublarga xos matnlarda arxaizm, istorizm va dialektizmlarning qo‘llanishi me’riy hol hisoblanishi bois, ilk qadamda, ilmiy va rasmiy matnlar tadqiqot obyekti sifatida olindi. Matnlarni tahrir va tahlil qilish dasturining yaratilishi matn

teruvchi yozma nutq malakasining takomillashuvi, matnlarni mustaqil ravishda to‘g‘ri va savodli yozishida ko‘mak beradi. Shu bois lingvistik ta’mnotin mukammallashtirish jarayonida keyingi bosqichlarda badiiy uslub qamrovi ham e’tiborga olingan.

## 1.6. Matnlarni avtomatik tahrir qilishdagi muammolar

ATT dasturining lingvistik bazasini yaratishda o‘zbek tili doirasida muammolar ko‘zga tashlanadi. O‘zbek tili affikslarining ko‘p variantliligi tahrirlash dasturining lingvistik ma’lumotlar ta’mnotinini yaratish, lisoniy-axborot bazasini kengaytirishda birmuncha noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Bu noqulayliklar quyidagilarda ko‘rinadi:


1. Bir so‘zning uslublar doirasida o‘z qo‘llanish variantiga egaligi va ushbu uslublarning me’yorlarini hisobga olib aytish mumkinki, so‘zning hamma uslubdagi ko‘rinishi hamda affikslar bilan kelish shaklini yaratish murakkab vazifa. Shu sababli ATT dasturining LTini yaratishda ilmiy va rasmiy uslublarda qo‘llaniladigan so‘z va affikslarning olinishi ishning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, *samo*, *osmon*, *ko‘k*, *falak* sinonimik qatoridagi *samo* va *osmon* so‘zлari ot turkumi, *ko‘k* so‘zi esa faqat rang bildiruvchi so‘z sifatida olinib affikslar biriktirilsa, lisoniy bazaning kengayishi va ish hajmi ortishining oldi olingan bo‘ladi. *Falak* so‘zi esa badiiy uslubga mansub bo‘lganligi uchun alohida guruh tarkibiga kiritiladi (lug‘at boyligi sifatida) va keyingi bosqichlarda dasturni mukammallashtirish maqsadida bunday guruhalr ham ishlab chiqiladi.

2. Affikslarning ko‘p variantliligi, omonimlik, bir tomondan, axborot bazasini kengaytiradi, ikkinchi tomondan, dasturlash jarayonida murakkab nostandard dasturlar ishlab chiqilishiga olib keladi va har bir uslub, har bir yangi matnga alohida dasturlar yaratishni talab qiladi. Bu holat mutaxassislardan ko‘p mehnat, katta shijoatni taqozo etadi. Masalan, *-gina* “iliq” munosabatni ifodalovchi affiks va ayiruv yuklamasi vazifasida keladi (*onaginam* – *onamgina*). *-la* affiksi ayni damda so‘z yasovchi va shakl yasovchi affiks hisoblanadi: *ishla* – *quvla*. Dastur o‘z ta’mnotiniga kiritilgan ma’lumotga binoan buni foydalanuvchiga ko‘rsata oladi. Ammo affikslarning nomi va vazifasini ta’mnotinga kiritib qo‘yishning o‘zi yetarli emas. Asosiy ish affikslar kombinatsiyalarini har bir so‘zga qo‘shilib kelish holatida modellashtirish, ularning aranjirovkasini berish hisoblanadi.

3. O‘zbek adabiy tilida so‘zga affiks qo‘shilishi natijasida tovush tushishi (*shahar* – *shahri*), tovush almashinishi (*quloq* – *qulog‘i*), tovush orttirilishi (*u* – *unga*) hodisalarini kuzatishimiz mumkin. Shu bois

algoritmlar ishlab chiqishda o‘zakda ro‘y bergan o‘zgarishlar hisobga olinib, hosil qilinadigan so‘zlarni “avtomatik hosila” sifatida dastur ta’midotiga kiritish lozim, deb topildi. “Avtomatik hosila” bu so‘zlarga affikslar qo‘sish jarayonida hosila so‘zda ro‘y beradigan tovush o‘zgarishlarining lingvistik ta’midotda aynan saqlanishidir. Masalan, *singil*, *ko‘ngil*, *qorin* so‘zlariga egalik kategoriyasining I shaxs-birlik affiksi qo‘shilishi natijasida quyidagi o‘zgarishlar ro‘y beradi: {*singil*, *ko‘ngil*, *qorin*} + -im = {*singlim*, *ko‘nglim*, *qornim*}. *Quloq*, *qiroq*, *bo‘yoq*, so‘zlariga egalik kategoriyasining II shaxs-birlik affiksi qo‘shilganda so‘z oxiridagi *q* tovushi *g*’ tovushiga almashadi: {*Quloq*, *qiroq*, *bo‘yoq*, + -ing = {*qulog‘ing*, *qirog‘ing*, *bo‘yog‘ing*,}}. Avtomatik tahrir dasturining lingvistik ta’midotiga hosil qilingan *singlim*, *ko‘nglim*, *qornim*, *qulog‘ing*, *qirog‘ing*, *bo‘yog‘ing* so‘zlari avtomatik hosila (tayyor o‘zak) sifatida kiritiladi, so‘ngra ularga affikslar kombinatsiyasining birikish algoritmi modullar orqali tuziladi. Dasturni yaratishda o‘zbek tilining mana shunday orfografik me’yorlariga e’tibor qaratiladi va shunga binoan dastur algoritmi tuziladi.

Biz tomondan yaratilgan dastur Ubuntu 16.4 (Linux) operatsion sistemasi Python 3 dasturlash tilida (Uztextanalysis) bo‘lib, unda quyidagi jarayonga erishildi:



6-rasm. Mazkur tasvirda tadqiqotimiz natijasida *shaxrining* so‘zshakli dastur tomonidan tahlil qilinib, shu so‘z bilan bog‘liq to‘g‘ri variantlarni taklif qilishiga erishilgani ko‘rinadi.

O‘zbek tilida yozilayotgan matnlar, turli sohalarga oid hujjatlarni avtomatik ravishda tahrir qilishga erishish maqsadida yuqorida ilk qadamda e’tiborga olinishi kerak bo‘lgan muammolar morfologik tahlil doirasida ko‘rib chiqildi va ATT dasturining lingvistik ta’motini yaratish borasida muhim xulosalar chiqarildi.

## BIRINCHI BOB BO‘YICHA XULOSA

O‘zbek tilidagi matnlarni Microsoft Office Word dasturiga kiritish jarayonida matnni avtomatik tahrir qilishga erishish, buning uchun dasturning lingvistik ta’minini yaratish maqsadida bugungi kunda keng qo‘llanishda bo‘lgan dasturlar chuqur o‘rganildi. Ularning amaliy ahamiyati qisqa sharh tarzida berildi. Vazifalari, ish faoliyati chuqur tadqiq etildi va matnlarga avtomatik ishlov beruvchi dastur ta’minotini yaratishda quyidagi lingvistik imkoniyatlarning muhim ekanligi aniqlandi:

1. Matnlarning leksik, morfologik va sintaktik sathlarda tahrir va tahlilini amalga oshiruvchi spell-cheker, orfografik tekshiruv (Speller), morfoanalizator, parser kabi sistemalarga o‘zbek tilidagi matnlarni tahrir va tahlil qilish dasturini yaratishda asosiy dasturiy vosita sifatida tayanish ish samaradorligini oshiradi.

2. Tokenizatsiya, lemmatizatsiya (lemmatization), stemming (stemming) texnologiyalari matnlarni tahrir va tahlil qilish dasturida eng sermahsul jarayon hisoblanadi.

4. Har qanday dasturning lingvistik bazasini yaratishda kerakli manba – “O‘zbek tilining morfologik lug‘ati”dir. Morfologik lug‘at tilshunosning vaqtini tejaydi va belgilangan natijaga erishishni tezlashtiradi. Zero, bunday lug‘atda bir leksemaning qaysi turkumga oidligi, uning so‘zshakllari keltiriladi. Bu esa dasturning mukammal chiqishini ta’minlaydi. Shu bois o‘zbek tilidagi matnlarga ishlov beruvchi dasturlarning lingvistik ta’minotini yaratishda qulaylik va natijaga tezkor erishish maqsadida ushbu lug‘atning ishlab chiqilishi maqsadga muvofiqdir.

5. O‘zbek tilining tipik agglyutinativ til ekanligi va binobarin, tilimizda affikslarning ko‘p variantliligi, omonimlik, bir tomondan, axborot bazasini kengaytiradi, ikkinchi tomondan, dasturlash jarayonida murakkab nostandard dasturlar ishlab chiqilishiga olib keladi va har bir uslub, har bir yangi matnga alohida dasturlar yaratishni taqozo etadi. Bu holat mutaxassislardan ko‘p mehnat, katta shijoatni talab qiladi. Masalan, *-gina* affiksi “iliq” munosabatni ifodalovchi affiks va ayiruv yuklamasi vazifasida keladi (onaginam-onamgina). *-la* affiksi ayni damda so‘z yasovchi va shakl yasovchi affiks hisoblanadi: *ishla-quvla*. Dastur o‘z ta’minotiga kiritilgan ma’lumotga binoan buni foydalanuvchiga ko‘rsata oladi. Ammo affikslarning nomi va vazifasini ta’minotga kiritib qo‘yishning o‘zi yetarli emas. Asosiy ish affikslar kombinatsiyalarini har bir so‘zga qo‘shilib kelish holatida modellashtirish hisoblanadi.

3. O‘zbek adabiy tilining grammatik qoidalarini o‘zida jamlagan “O‘zbek tilining qisqartirilgan grammatikasi”ni yaratish darkor. Bunday

grammatika lingvistik bazani tuzishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Chunki tayyor manbaning mavjud bo‘lishi tilshunos yoki dasturchini o‘nlab grammatika ustida vaqt sarflashidan saqlaydi.

4. O‘zbek adabiy tiliga mansub leksemalarni o‘zida jamlagan “O‘zbek tilining tezaurus lug‘ati”ni yaratish lozim. Shunda avtomatik tahlil dasturining sintaktik va semantik tahlil bosqichlari muammolarining yechimi hal etiladi.

5. O‘zbek tilining milliy korpusini yaratish talab qilinadi. Bu tarkibiy sohalar bo‘yicha guruhlangan matnlar jamlanmasi bo‘lib, lingvistik modullarni yaratish borasida tadqiqotlar olib borishda qo‘l keladi.


6. Dasturning ilk bora joriylanayotgani e’tiborga olinib, ishning avvalida rasmiy-idoraviy va ilmiy uslublardagi matnlar tahriri va tahliliga mo‘ljallangan lingvistik ta’minot yaratish maqsadga muvofiq sanaladi. Bir so‘zning uslublar doirasida o‘z qo‘llanish variantiga egaligi va ushbu uslublarning me’yorlarini hisobga olib aytish mumkinki, so‘zning hamma uslubdagi ko‘rinishi hamda affikslar bilan kelish shaklini yaratish murakkab vazifa. Shu bois ATT dasturining LTini yaratishda ilmiy va rasmiy uslublarda qo‘llaniladigan so‘z va affikslarning olinishi ishning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, *samo*, *osmon*, *ko‘k*, *falak* sinonimik qatoridagi samo va osmon so‘zlari ot turkumi, ko‘k so‘zi esa faqat rang bildiruvchi so‘z sifatida olinib affikslar biriktirilsa, lisoniy bazaning kengayishi va ish hajmi ortishining oldi olingan bo‘ladi. Falak so‘zi esa badiiy uslubga mansub bo‘lganligi uchun alohida guruh tarkibiga kiritiladi (lug‘at boyligi sifatida) va keyingi bosqichlarda dasturni mukammallashtirish maqsadida bunday guruhsalar ham ishlab chiqiladi.

7. O‘zbek adabiy tilida so‘zga affiks qo‘shilishi natijasida tovush tushishi (*shahar – shahri*), tovush almashinishi (*quloq – qulog‘i*), tovush orttirilishi (*u – unga*) hodisalarini kuzatishimiz mumkin. Shu bois algoritmlar ishlab chiqishda o‘zakda ro‘y bergen o‘zgarishlar hisobga olinib, hosil qilinadigan so‘zlarni “avtomatik hosila” sifatida dastur ta’minotiga kiritish lozim, deb topildi. “Avtomatik hosila” bu so‘zlarga affikslarni qo‘shish jarayonida hosila so‘zda ro‘y beradigan tovush o‘zgarishlarining lingvistik ta’minotda aynan saqlanishidir. Tegishli morfemik o‘zgarish avtomatik hosila (tayyor o‘zak) sifatida kiritiladi, so‘ngra ularga affikslar kombinatsiyasining birikish algoritmi modellar orqali tuziladi. Dasturni yaratishda o‘zbek tilining mana shunday orfografik me’yorlariga e’tibor qaratiladi va shunga binoan dastur algoritmi tuziladi.

## **II BOB. MATNNI AVTOMATIK TAHRIR VA TAHLIL QILISH SISTEMASI MODULLARI**

### **2.1. Matnlarni avtomatik tahlil qilish borasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar yo‘nalishi va sistema bosqichlari**


Kundalik turmushning ajralmas qismiga aylangan kompyuter texnologiyalarida matn asosiy o‘rinni egallaydi. Shu bois amaliy tilshunoslik vakillari dastavval matnni avtomatik ravishda bir tildan boshqa bir yoki bir necha tabiiy tilga tarjima qiluvchi, matnni morfologik, sintaktik va semantik jihatdan avtomatik tahrir qiluvchi, matndagi so‘zlarning chastotasini ko‘rsatuvchi va boshqa shu kabi dasturlarni yaratish ustida ish olib borishdi. Tabiiy tillardagi matnlarning kompyuter tahriri borasida xorijdagi tilshunoslar tomonidan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda, katta hajmli hujjatlar ham matematik metodlar asosida tahrir qilinmoqda. Shu bilan bir qatorda, qidiruv tarmog‘ida kiritmalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tahlil va tahrir qilinishiga erishilmoqda. Bugungi kunda matnni texnik tahlil qilish borasida yaratilayotgan ishlar asosan quyidagi yo‘nalishda olib borilmoqda:




Matnlarga ishlov berish yo‘nalishida ATT muhim o‘rin tutadi. Kompyuter vositasida amalga oshiriladigan bunday tahlil usuli inson tomonidan qilinadigan lingvistik tahrir va tahlildan vaqt hamda moddiy mablag‘ning tejalishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, ATT ish jarayonida, ya’ni matnni kopyuterga kiritish paytida foydalanuvchining savodini oshirishga ham xizmat qiladi. Matnni kirituvchi tomonidan yo‘l qo‘yilgan orfografik, sintaktik yoxud semantik xatoni tahlil qilish dasturi o‘sha onda aniqlaydi va to‘g‘ri yozish variantlarini havola qiladi. Deylik, *hokim* so‘zi kiritilishi kerak, ammo dastur foydalanuvchisi so‘zni *xokim* tarzida yozdi,

<sup>93</sup> X.S. Yasulova “Математические модели синтаксиса” (2011). <https://cyberleninka.ru/article/v/matematicheskie-modeli-sintaksisa>) maqolasida KL an‘anaviy tilshunoslikdagi terminlarning kompyuter bilan aloqador holda boyitilganini e’tirof etadi va hatto KLdagi barcha terminlar oldidan “kompyuterli/kompyuterbop” so‘zini qo‘yish joiz, deydi. Boisi KL fanining asosiy maqsadi lingvistik masalalarni hal qilishning kompyuter dasturlarini yaratishdir. Mazkur tadqiqotda “компьютерная морфология” биримали термины (BT)ни о‘zbek tiliga “kompyuterli morfologiya”, “компьютерный синтаксис” BTни “kompyuterli sistaksis”, “компьютерная семантика” BTни “kompyuterli semantika” tarzida kalkalash maqsadga muvofiq hisoblandi.

shunda dastur o‘ziga joylangan lingvistik modullarda so‘zni tahlil qilib, uning xato yozilganini aniqlaydi va foydalanuvchiga *hokim*, *hakim* variantlarini taqdim etadi. Natijada foydalanuvchi o‘zbek imlo lug‘atida *xokim* tub so‘zi mavjud emasligini anglaydi. Fikrimizga Uztextanalysis dasturidagi fragmentlar bilan aniqlik kiritamiz:



- 1) “*xokim*” tarzida yozilgan so‘z tagiga qizil to‘lqinli chiziq chizildi;
- 2) tagiga chizilgan so‘z belgilandi, sichqonchaning o‘ng tomoni bosilib xato so‘zga taklif qilinayotgan so‘zshakllardan kerakli so‘z tanlab olindi;



- 3) xato bartaraf etildi.

E’tiborli jihat shundaki, dastur tomonidan foydalanuvchiga taklif qilinayotgan so‘zlar qatorida *xokim* leksemasi bilan bog‘liq so‘zshakllar uchramadi. Bu jihat foydalanuvchiga mazkur so‘zning imlo lug‘atida mavjud emasligi va keyingi holatlarda shu so‘z bilan bog‘liq xatoga yo‘l qo‘ymaslik kerakligi borasida xulosani beradi. Bu dasturning bevosita ta’limiy ahamiyatini namoyon etadi.

Tahrir dasturi nafaqat so‘zlarning to‘g‘ri yozilayotganini tekshiradi, balki belgilarning o‘z o‘rnida qo‘llanilayotganini ham nazoratga oladi. Deylik, «*Siyosiy fanlar*» fani tarmog‘i ixtisosliklari bo‘yicha tayanch doktoranturada 4 kishi, va doktoranturada 2 kishi miqdorida belgilash to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin<sup>94</sup>. jumlesi grammatik jihatdan to‘g‘ri

<sup>94</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-yanvardagi «Siyosiy fanlar sohasida kadrlarni tayyorlash, fundamental va amaliy tadqiqotlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4139-son Qarori. <http://www.lex.uz/docs/4182353>.

tuzilgan, lekin vergul belgisi *kishi* so‘zidan so‘ng bir bo‘sh joy – probel tashlab yozilgan (grafemmatik xato), vergul hamda va bog‘lovchisi bir o‘rinda noto‘g‘ri qo‘llanilgan. Lingvistik tahrir dasturi ushbu kichik xatolarni inobatga olib tuziladi.

Lingvistik protsessor ko‘p bosqichli bo‘lib, har bir bosqichga chuqur ishlov berish talab qilinadi. Xususan, ularga alohida modullar ishlab chiqilishi kerak. Matn tahlili jarayonida modullar quyidagilarni amalga oshiradi:

- 1) leksik-morfologik – so‘zshakldan uning leksik-grammatik xususiyatlariga o‘tish;
- 2) sintaktik jumlalarni ifodalovchi leksik va gramma tik xususiyatlar zanjiridan uning sintaktik tuzilishiga o‘tish;
- 3) semantik – sintaktik tahlil qilingan lingvistik birlikdan semantik ishlovga o‘tish.

Umuman, matnlarni tahrir va tahlil qiluvchi dasturning mukammal bo‘lishi uchun quyidagi lingvistik modullar ishlab chiqilishi lozim<sup>95</sup>:

1. Grafematik tahrir modullari.
2. Morfologik tahlil modullari.
3. Sintaktik tahlil modullari.
4. Semantik tahlil modullari.

Grafematik tahrir – matnda qo‘llangan turli ramzlar, belgilar va alohida qo‘llangan harflarni tahrir qilish bosqichi<sup>96</sup>.

Morfologik tahlil modullari – so‘zshaklidan uning lemma (leksemaning lug‘atdagi shakli) yoki asosi (so‘zning o‘zak, yadro qismi)ga qadar tahlil qilinadi.

Sintaktik tahlil – matndagi jumlaning gramma tik tarkibini aniqlash.

Semantik tahlil – leksemani semasi bo‘yicha matnda qo‘llanilish o‘rnini tahlil qilish.

## **2.2. Grafematik tahrirlash moduli va uning texnologiyasi**

Grafematik tahlil (GT) matnni lingvistik jihatdan avtomatik tekshirishning ilk bosqichi hisoblanadi, shu bois vazifa nuqtayi nazaridan ishda mazkur modul tahrir bosqichi, deb hisoblandi. Ushbu bosqichda matndagi abzats, so‘z, gap, raqam, punktuatsion va boshqa maxsus ramziy belgilar aniqlanadi. *Grafema* – yozma matn birligi (harf, tinish belgilar),

<sup>95</sup> Большакова Е.И. и др. Автоматическая обработка текстов на естественном языке и компьютерная лингвистика. – Москва, 2011. – С.106.; Леонтьева Н.Н. Автоматическое понимание текстов: системы, модели, ресурсы. – Москва, 2006. – С.50.

<sup>96</sup> Леонтьева Н.Н. Автоматическое понимание текстов: системы, модели, ресурсы. – Москва, 2006. – С. 50.

ingliz tilida *token* deyiladi, *tokenization* so‘zi shundan kelib chiqqan. GT bosqichining maqsadi matndagi eng kichik birliklarni aniqlash va tasniflashdir. Bunday birliklarga so‘z, abzats, tinish belgilari, sanalar, pul birliklari ramzlari, so‘z-raqamli birikmalar, sonlar, IP-manzillar va fayl nomlari, telefon raqamlari oid. I.M.Nojov o‘z tadqiqotida GT birligi har ikki tomondan bo‘shliq (probel) bilan ajralib turadigan belgilar majmuasi, deb ta’kidlaydi<sup>97</sup>.

GT jarayonida quyidagi vazifalar bajariladi:

- 1) matn oqimini so‘zlarga segmentlab, ularni tasniflash. Bu birliklarga jarayon davomida keyingi tahrir uchun izoh beriladi. Masalan, AA – so‘z, faqat bosh harflardan iborat. Aa – so‘z, bosh harf bilan boshlanadi kabi. Buning uchun alifbodagi bosh va kichik harflarning barchasi dastur moduliga kiritiladi (ilova: 1-jadval);
- 2) matndan olingan so‘zlarni chastota bo‘yicha tartibga solish;
- 3) so‘zlarning ayrim kombinatsiyalarini yirikroq birliklar – “barqaror iboralar”ga birlashtirish (ibora boshi va oxiriga belgi qo‘yadi: BI1... BI2);
- 4) so‘zlar (yashirin, noaniq)ga maxsus belgi berish;
- 5) abzatsni aniqlash va raqamlash;
- 6) qisqartma so‘zlar (abbreviaturalar)ni aniqlash.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun tilshunoslik metodlariga tayangan holda formal yondashuvni ishlab chiqish talab qilinadi.

Grafematik tahrirlash bosqichida matnda qo‘llanilgan elementlar oqimini so‘zshakl va turli ramzlarga ajratish, matnni morfologik tahlil jarayoniga tayyorlash, matnni korpusga kiritish maqsadida *tokenizatsiya* texnologiyasidan foydalanish maqbul hisoblanadi. Boisi tokenizatsiya elektron matndagi barcha birliklarni ajratish jarayonidir. Buni quyidagi *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 15-iyundagi «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivaliga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida»gi PQ-103-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin* jumlasini segmentlash, ya’ni tokenlarga ajratish bilan ko‘rsatish mumkin:


[‘O‘zbekiston’, ‘Respublikasi’, ‘Prezidentining’, ‘2005’, ‘-’, ‘yil’, ‘15’, ‘-’, ‘iyundagi’, ‘«’, ‘Sharq’, ‘taronalari’, ‘»’, ‘xalqaro’, ‘musiqa’, ‘festivaliga’, ‘tayyorgarlik’, ‘ko‘rish’, ‘va’, ‘uni’, ‘o‘tkazish’, ‘to‘g‘risida’, ‘», ‘gi’, ‘PQ’, ‘-’, ‘103’, ‘-’, ‘sonli’, ‘qarori’, ‘o‘z’, ‘kuchini’, ‘yo‘qotgan’, ‘deb’, ‘hisoblansin’, ‘:]

<sup>97</sup> Ножов И.М. Морфологическая и синтаксическая обработка текста (модели и программы): Дис. канд. филол.наук. – Москва, 2003. – С. 59.

Bu yerda kvadrat qavs matnning boshlanish va yakunlanish joyini ko'rsatadi. Birtirnoq elementni ajratuvchi belgi, vergul ajratilgan belgilarni bir-biridan alohidalashga xizmat qiladi. Mazkur misolda tokenizatsiya jarayonida 'gi' bo'g'ini (tokenizatsiyada "qism" deyiladi) ma'noga ega bo'limgani bois kesib tashlanadi. Mazkur jarayondan so'ng elementlarni teglashtirish, ularni hisoblash, guruhlashtirish, ortiqcha qo'llangan belgi yoki ma'noga ega bo'limgan so'zlarni o'chirish mumkin.

Boshqird davlat universiteti aspiranti V.A.Grechachin matnni tokenizatsiyalash jarayonining algoritmini Python tilida tuzadi<sup>98</sup>. Tokenizatsiya texnologiyasi Daniel Jurafskiy hamda Jeyms Martinlarning «Speech and Language Processing»<sup>99</sup> kitobida amaliy dasturlar misolida yoritib berilgan.

Grafematik tahrir manbalari sifatida quyidagilar xizmat qiladi:



#### 7-chizma. Grafematik tahrir manbalari.

Demak, GT modullari asosini quyidagi belgilar va birikmalar qatori tashkil etadi:

1. Lotin, kirill va ingliz alifbolaridagi bosh va kichik harflar (ilovada 1-jadval).
2. 0 dan 9 gacha bo'lgan sonlar va rim raqamlari (2-jadval). Qolgan murakkab sonlarning ushbu o'nta son orqali yuzaga keltirilishi dasturga algoritm qilib kiritiladi.
3. Tinish belgilari: nuqta, vergul, qo'shtirnoq, qavs, tire, ikki nuqta, nuqtali vergul, ko'p nuqta, so'roq va undov (3-jadval).
4. Matematik ifodalar: qo'shish (+), ayirish (-), bo'lish (÷,:), ko'paytirish (×,·), qavs va uning ko'rinishlari (), [], cheksizlik belgisi (∞), darajaga ko'tarish ( $x^2$ ), ildiz osti ( $\sqrt{\cdot}$ ), tenglik (=) va teng emaslik ( $\neq$ ) belgilari, katta (>) va kichik (<) ishoralari kabilar. Algoritnga ularning faqat sonlar orasida kelish ma'lumoti beriladi (3-jadval).

<sup>98</sup> Гречачин В. А. К вопросу о токенизации текста. <https://research-journal.org/languages/k-voprosu-o-tokenizacii-teksta/>

<sup>99</sup> Jurafsky, D. Speech and Langauge Processing / D. Jurafsky, J. H. Martin. – 2<sup>nd</sup> – New Jersey: Prentice Hall, 2008. – 1024 p.

5. Tire (–) va chiziqcha (–)ning alohida belgilar ekanligi yoziladi.
6. Tutuq belgisining vazifalari ko‘rsatiladi.
7. Diakritik belgilar. Matn lotin yozuvida yozilayotganda dastur algoritmi o‘ va g‘ harflari ustidagi «‘» diakritik belgisi «’» tutuq belgisiga almashtirib qo‘yilganda, bunday holatni xato, deb hisoblaydi va matn kirituvchini ushbu xato haqida ogohlantiradi. Mazkur jihatlar ATT dasturi lotin yozuvida kiritilayotgan matnlar tahririni amalga oshirishga mo‘ljallangan vaziyatlarda zarur hisoblanadi.
8. Havola belgilari: raqamli (2,3...) va yulduzchali (\*) qo‘rinishlari.
9. Maxsus belgilari: ^, √, %, &, \, { }\_, № kabilar.
10. Atoqli o‘rin-joy otlari sifatida qit‘a, o‘lka, davlat, viloyat, shahar, tuman, qishloq, mahalla, posyolka, daha, ko‘cha nomlari (toponimlar);
11. Kishi ismlari, laqablar, taxallus (antroponom)lar, yulduz va sayyoralar nomlari (astroponimlar), hayvonlarga berilgan maxsus nom (zoonim)lar kabi atoqli otlarni kiritish darkor.
12. Qisqartma so‘zlar: *NDKI*, *O‘zMU*, *YUNESKO*, *SamDU*, *TDO‘TAU* kabi.

**Qoida:** qisqartma so‘zlarning yozilishi:

- 1) faqat bosh harf bilan yoziladi, harflardan so‘ng tinish belgi (nuqta), probel qo‘ymaydi: *TDO‘TAU*, *BMT*, *AQSH*, *MDH*, *NATO* va h.k.;
- 2) birinchi so‘zning dastlabki bo‘g‘ini, keyingi so‘zlarning bosh harfi olinadi: *O‘zMU*, *SamDU*, *BuxDU*, *O‘zFA* va h.k.;
- 3) birinchi so‘zning birinchi, ikkinchi bo‘g‘ini va keyingi so‘zning to‘liq shakli olinadi: *santexnik*, *agitpoyezd*;
- 4) so‘zlarning dastlabki bo‘g‘inlari olinadi: *filfak*, *ijroqo ‘m*.

Matndagi belgilarning asosiy qismini tabiiy til alifbosidagi harflar tashkil etadi. So‘zlarni tashkil qiluvchi harflar ma’lum bir yozuv (kirill, lotin va h.k.)da kiritilayotganda so‘z tarkibida o‘zga yozuv elementi yozilib ketishi mumkin. Masalan, *maktab*, *makr*, *g‘arb*, *aksiya* kabi. GT bunday xatolarni aniqlaydi va o‘zidan keyingi (morphologik) bosqichga o‘tkazadi. Ayrim hollarda matnlarda maxsus belgilarni uchratish mumkin. Masalan, haroratni ko‘rsatuvchi belgi, ©, \*, &, №, &, <, > kabi belgilar. Bunday belgilar tahrir dasturining lingvistik ma’lumotlar omboriga “maxsus belgilar – MaxB” nomi ostida har birining vazifasi yozilgan holda kiritiladi. Ular qatoriga bo‘sh joy ajratuvchi probel va xatboshi, satr oxirini ko‘rsatuvchi belgilar ham kiradi. Masalan, (“leksema”), – tarzida ketma-ket kelgan belgilar tizimi quyidagicha izohlanadi:

( – ochuvchi qavs;  
 “ – ochuvchi qo’shtirnoq;  
 leksema – lug‘aviy birlik;  
 ” – yopuvchi qo’shtirnoq;  
 ) – yopuvchi qavs;  
 , – vergul;  
 – – tire.

Bunday izohlar sintaktik yoki semantik tahlilda belgilarning o‘rni hamda ahamiyati uchun muhimdir. Bundan tashqari, yozuvda shunday holatlar yuzaga chiqadiki, ularni e’tibordan chetda qoldirib bo‘lmaydi. Masalan, so‘zlardagi harflar bir bo‘shliq – probel qo‘yib yozilgan bo‘lishi mumkin (*A R I Z A*). Agar bunday holatlar yuzasidan grafematik tahrir modullariga ma’lumot kiritilmasa, dastur *A R I Z A* so‘zidagi harflarni bir so‘zni tashkil etuvchilar deb emas, balki alohida qo‘llangan harflar ketma-ketligi deb hisoblaydi. Shuningdek, kasr sonlarni ifodalashda qo‘llaniladigan nuqta yoki vergul raqamlarni ajratuvchi belgilar sifatida emas, balki raqamlarning bir butunlikda qabul qilinishini bildiradi. Masalan, *I.25* va *5,5* raqamlari bir butun sonlar.

Lotin grafikasida bitilgan o‘zbekcha matnlarni kompyuter vositasida yozish jarayonida diakritik belgilarning turli holatda qo‘yilganiga guvoh bo‘lamiz.

<b>Noto‘g‘ri</b>	<b>To‘g‘ri</b>
O`o` G`g`	O‘ o‘
O'o' G'g'	G‘ g‘
O'o' G'g'	
fe`l	fe’l
a‘lo	a’lo

Bunday xatoga ommaviy axborot vositalari va reklama matnlarida yo‘l qo‘yilayotgani achinarli hol. Chunki har bir belgi o‘z o‘rni hamda vazifasiga ega. Lotin alifbosidagi o‘ va g‘ harflarini ifodalashga xizmat qiladigan diakritik belgini to‘g‘ri qo‘yish qoidasi (tutuq belgisi (‘)ning yuqoriga qaragan teskari holati(‘)) “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari”da yozib qo‘yilgan<sup>100</sup>. Tutuq belgisining vazifalaridan (tutuq belgisi unli tovushdan keyin qo‘yilsa, uning cho‘zib o‘qilishini ta’minlaydi: *she’r, ma’no*; undosh tovushdan so‘ng qo‘yilsa, o‘zidan keyin

<sup>100</sup> O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari. 1995-yil 24-avgust, 339-son / <http://lex.uz/docs/1625271>

kelgan unlidan ajratib o‘qilishga xizmat qiladi: *sur’at*, *qit’ā*) anglash mumkinki, diakritik belgi bilan tutuq belgisining almashtirib qo‘llanilishi aslo mumkin emas.

Lingvistik tahrir dasturining GT bosqichi modullarini yaratishda yuqoridagi holatlarning har biri matn elementlari tiplari tarzida yuzaga chiqariladi<sup>101</sup>. Quyida tiplarning qanday birliklarni o‘z tarkibiga olishi keltirildi:

LekB – leksik birlik, bir yozuvga mansub alifbodagi harflardan yuzaga kelgan leksema (*volida*, *buyruq*, *yurak*, *hayot*, *oldin* kabi);

ChetL – chet tili leksemasi (*printer*, *byuro*);

RB – raqamlı butunlik (1986, 18/04/2012, 5.05, 19,25)

HRB – harf-raqamlı butunlik (*Boing-767*, SU-27, “Kelajak ovozi – 2017”, “Yil ayoli – 2018”)

ABBR – abbreviatura (*BMT*, *MDH*, *O’zR*, *DXX*, *O’zMU*)

QB – qisqartirilgan birikmalar (va h.k., va *boshq.*, *m-n:*)

Lingvistik tahrir va tahlil dasturi ma’lumotlar bazasiga GT bosqichida quyidagi belgilar kiritildi:

<b>Nº</b>	<b>Tushunchcha yoxud termin nomi</b>	<b>ramzi</b>
1	Bosh harf	À
2	Kichik harf	ă
3	Probel (bo‘shliq)	□#
4	abzats	¶
5	Tinish belgilar ramzlari (ilova: 4-jadval)	

Bir qarashda ahamiyatsiz tuyulgan belgilar tahriri matnlarning savodli yozilishida o‘z o‘rniga ega. Bir juz’iy lingvistik xato ham matnning sifatiga putur yetkazishi mumkin. Shu bois o‘zbek tilidagi matnlarni avtomatik tahrirlovchi dasturning lingvistik ta’mintonini yaratishda, asosan, kirill va lotin yozuvidagi qisqartma so‘zlar, grafemalar tahririni amalga oshiruvchi grafematik tahrirlash modullarini tashkil etuvchi lingvistik belgilarga alohida urg‘u berildi. Grafematik tahrir ko‘p bosqichli tahrirlash dasturining ilk bosqichi hisoblanib, u keyingi bosqichlarning samarali va to‘laqonli bo‘lishida xizmat qiladi.

<sup>101</sup> Леонтьева Н.Н. Автоматическое понимание текстов: системы, модели, ресурсы: учебное пособие. –Москва: Академия, 2006. – С.58.

## **2.3. Morfologik tahlil qilish modulini yaratish prinsiplari va uning algoritmi**

Morfologik tahlil (MT) tarixi qadimgi hind tilshunosi Panini bilan bog‘liq. U Aşṭādhyāyī matnidan foydalanib sanskrit tili morfologiyasining 3959 ta qoidasini yaratadi<sup>102</sup>. Yunon-rim grammatikasi an’anasi ham MT bilan shug‘ullanish bo‘lgan<sup>103</sup>. 1859-yilda A.Shleyxer tilshunoslikdagi “morfologiya” terminini o‘ylab topadi<sup>104</sup>. O‘tgan asrning 60-70-yillariga kelib, mashinali morfologiya qamrovidagi barcha tadqiqotlar mashina lug‘atini yaratish bilan boshlangan<sup>105</sup>.

MTda, asosan, matn imlosini tekshirish, so‘zlarning grammatik shakllanishi va ularning tahlili ko‘zda tutiladi. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi ishlar amalga oshirilishi kerak:

- 1) tilning lug‘at tarkibini kompyuterga kiritish, ya’ni elektron kompyuter lug‘atini tuzish;
- 2) lug‘atdagi adabiy tilga mansub so‘zlarni ajratib olish;
- 3) ajratib olingan so‘zlarni uslubiy (ilmiy, badiiy, publisistik, rasmiy-idoraviy va so‘zlashuv) jihatdan guruhlash;
- 4) adabiy so‘zlarni turkumlarga ajratish;
- 5) so‘zlarni turkum doirasida semantik guruhlash (masalan, ot turkumidagi so‘zlarni shaxs otlari, o‘simlik nom (fitonim)lari, joy nom (toponim)lari kabi guruhlarga ajratish);
- 6) guruhlangan so‘zlarning affikslar kombinatsiyasini tuzish; bunda affikslar kombinatsiyasining amalda adabiy til doirasida foydalaniladigan hajmi qamrab olinadi (ilovada 5-jadval). Kombinatsiyalar qatorini tuzishda affikslar ketma-ketligiga e’tibor qaratiladi. M-n, ot turkumida *ko ‘plik+egalik +kelishik* kategoriyasi va h.k.

Grammatik vositaning so‘z tarkibidagi tartibi ma’lum qonuniyatga ega bo‘lib, grammatik vositaning joylashishidagi tartib va izchillik uning ma’no va grammatik xususiyati bilan bog‘liq: *yangi lug‘aviy ma’no hosil qiluvchi vosita* birinchi (1), *lug‘aviy ma’noga ta’sir qiluvchi vosita* ikkinchi (2) va *lug‘aviy ma’noga ta’sir qilmaydigan, lekin so‘zni bog‘laydigan vosita* uchinchi (3) bo‘lib qo‘shiladi: S+1+2+3.

Affikslarning joylashuvidagi me’yoriy holat ba’zan buziladi: *opa-*

<sup>102</sup> Leonard Bloomfield (1927). On some rules of Pāṇini. Journal of the American Oriental Society. 47. American Oriental Society. – P. 61-70.

<sup>103</sup> [https://en.wikipedia.org/wiki/Morphology\\_\(linguistics\)](https://en.wikipedia.org/wiki/Morphology_(linguistics))

<sup>104</sup> Schleicher, August. Zur Morphologie der Sprache. Mémoires de l’Académie Impériale des Sciences de St.-Pétersbourg. VII. I, N.7. St. Petersburg. 1859. – P. 35.

<sup>105</sup> Ножов И.М. Морфологическая и синтаксическая обработка текста (модели и программы): Дис. канд. филол.наук. – Москва, 2003. – С. 54.

*lar-in, opa-m-lar, ayt-di-ng-lar, ayt-di-lar-ing* kabi. Bu so‘zlashuv va badiiy uslubdagi matnlarda kam uchraydigan hodisa. Quyida faqat shakl hosil qiluvchi affikslar doirasida fikr yuritildi.

Lug‘aviy shakl hosil qiluvchining odatdagи tartibi:

– otta: *kichraytirish-erkalash* + *son*. Kichraytirish-erkalash shaklining kam qo‘llanadigani ko‘p qo‘llanadiganidan (ular bazada ko‘rsatiladi) avval keladi: *kitobcha, xatcha*;

– sifatda *-roq* qo‘s Shimchasi *-ish*, *-imtir* affiksidan keyin, shuningdek, ravishdosh va sifatdoshga qo‘s shilganda ham ularni hosil qiluvchi affiksdan keyin qo‘s hiladi: *oqishroq, ko‘kimtirroq, sovingiraganroq, tortinibroq* va h.k.;

– sonda: taxmin bildiradigan *-cha* affiksi «dona» ma’nosini ifodalovchi *-ta* (urg‘usiz) unsuridan keyin keladi: *o‘ntacha* kabi;

– olmoshda: gumon bildiruvchi *-dir* (urg‘usiz) elementi, umuman, yuklama tabiatida bo‘lib, hamma turdagи affikslardan keyin qo‘s hiladi: *nima-lar-ni-dir*;

– fe’lda: o‘zlikdan boshqa nisbat ko‘rsatkichi orttirma nisbat affiksidan keyin qo‘s hiladi: *tarqa-til-di, yugur-tir-ish-di, tik-tir-ish-di*; fe’lning tarz affiksi va kuchaytiruvchisi (*chayqa, bura, to‘zg‘i*); bo‘lishsizlik affiksi (*urintirma, chayqatma*); zamon affiksi; shart mayli affiksi va buyruq maylining kuchaytiruvchisi (*bordi, boradi, borsa, boray, borgin/borgil*), fe’lning xoslangan shaklini hosil qiluvchi affiks (*bormoq, borgan, borib* va h.k.) oxirida qo‘s hiladi.

Sintaktik shaklning tartibi:

– ismlarda: egalik affiksi+kelishik affiksi: *martabasini, o‘qiganimni*;

– fe’llarda: tasdiq-inkor + zamon / mayl + shaxs + son: *o‘tmayapsan*.

Affiks-yuklama hamma turdagи affiksdan keyin qo‘s hiladi: *davlatimiznimi, loyihamgami, o‘qimayapsanmi*.

7) Tuzilgan affikslar kombinatsiyasi so‘zlarga biriktiriladi.

8) Tilshunoslar tomonidan amalga oshirilgan yuqoridagi ishlар dasturchi tomonidan ta’minotga kiritiladi.

Morfologik tahlil texnologiyalari yaratilgan bo‘lib, bugungi kunda samarador texnologiyalarga aylangan stemming va lemmatizatsiya jarayonini qayd etish mumkin. Dissertatsiyaning 1.3-paragrafida misollar bilan tushuntirilganidek, stemming bir asosdan yuzaga kelgan so‘zshakllardagi belgilari bilan ishlaydi, ya’ni so‘zshakldagi affikslarni asosdan ajratib tahlil qiladi (tovush o‘zgarishi hodisalari tahlil qilinmaydi):

*подснежник* → *под/снег/ник*, *водный* → *вод/ный*; *happiness* → *happi/ness*, *babies* → *babi/es*, lemmatizatsiya esa bir lemmanning flektiv (affiks qo'shilishi natijasida o'zgarishga uchragan) shaklini e'tiborga oladi, asosning asliy holatini tiklaydi: *подснежник* → *под/снег/ник*, *водный* → *вода+ный*; *happiness* → *happy+ness*, *babies* → *baby+es*. Ma'lum bo'ladiki, so'zning eng kichik birligi – bitta tovush (harf / grafema)ga qadar tahlil qilish (stemming) va tovush o'zgarishlari o'rnini aniqlab, asosni asliy holatiga binoan tahlil qilish (lemmatizatsiya) texnologiyalari o'z vazifa imkoniyati jihatidan ahamiyatli sanaladi.

Ma'lumki, egalik va kelishik affikslari bilan o'zgarish xususiyatiga ega so'zlar ismlar atamasi ostida birlashtiriladi. Ular tarkibiga ot, sifat, son, olmosh, taqlid so'z, fe'lning sifatdosh va harakat nomi kiradi. Shuni nazarda tutib, tilshunoslikdagi turlanish va boshqa grammatik kategoriyalarning so'zlarga birikib kelish hodisasi ismlarga mansub turkumlarda kuzatilgani bois dasturning LTni yaratishda morfologik sintez ismlar doirasida amalga oshirildi. Buning uchun lug'aviy shakl yasovchi va sintaktik shakl hosil qiluvchi affikslar bazasi Accessda yaratildi (gr\_form). Ko'plik shakliga ega yoxud semantik ko'plikka ega so'zlar (asosan, sanalmaydigan otlar, mavhum otlar) sol\_CorrNounNumber guruhiga birlashtirildi.

O'zbek tilidagi ismlarning grammatik shakllanishi uchun maxsus dasturiy qism (sol\_GenIsmForm) yaratildi. Bunda 1) grammatik shakllar nomi jadvalga maxsus belgi berib kiritildi (id\_entry, iform); 2) id\_dims maydoniga ega affikslar ID\_Wordga bog'lanadi, natijada List of derivate maydonida so'zshaklni yuzaga keltiradi.

Ai orqali affikslar quyidagi holatda ifodalanadi:

Ai	Belgi izohi	ID	Lemma turkumi
A1	ko'plik affiksi	k_a	Ism asosli shakllar
A2	egalik affiksi	e_a	
A3	kelishik affiksi	ke_a	
A4	o'rin-joy ot affiksi	u_j	
A5	qarashlilik affiksi	q_a	
A6	chegaralash affiksi	ch_a	
A7	sifat darajasi affikslari	Adj_a	
A8	affiksli yuklamalar	aff_part	
A9	inkor shaklni hosil qiluvchi aff.	ink_a	
A10	ajratish (-gina)	aj_a	
A11	tegishlilik (-ligi)	teg_a	
A12	o'xshatish, solishtirish (-chalik, -day, -dek)	us_a	

```


SELECT sg_form.name
FROM sg_entry, sg_form, coord_pairs
WHERE sg_entry.name='davlat'
    AND sg_form.id_entry=sg_entry.id
    AND coord_pairs.id=sg_form.id_dims
    AND coord_pairs.str_pairs LIKE '%egalik+kelishik%' – egalik
va kelishikdagi so 'zshakl.

```

**List of derivate:** davlatimni / davlatingga / davlatidan / davlatingizning / davlatlarida / davlatimizni / davlatingizda / davlatning ...

Dasturning LT wordform\_set\_coord maydoniga esa affikslar tartibi kiritildi. Jumladan, wordform\_set\_coord(lemma+s\_ya +sh\_ya + sin\_ya). Bu yerda lemma – asos, s\_ya – so‘z yasovchi affiks, sh\_ya – shakl hosil qiluvchi affiks, sin\_ya – sintaktik shakl hosil qiluvchi affiks. “x” belgisi affiksning birikish tartibi qat’iy talab qilinmaydigan holatni anglatadi. Shundan so‘ng so‘zshaklning matnda uchraydigan holati namoyon bo‘ladi: wordform\_refresh( wrd ). Aynan morfologik tahlilning shu jarayoni mashina tarjimasida muhim o‘ringa ega.

Kompyuter yordamida matnni MT qilishning texnik zanjiri quyidagi ko‘rinishda berildi:



8-chizma. Morfologik texnik tahlilning zanjirli ko‘rinishi.

Morfologik tahlildagi asosiy birliklar:

1. Ifoda plani birliklari (grafemalar).
2. Ma’no tashuvchi kichik birliklar (morfemalar).
3. Ma’noli qismlar (so‘zlar).
4. Ma'lumotning kommunikativ tashuvchilari (gaplar).

O‘zbek tilida yozilayotgan matnlar, turli sohalarga oid hujjatlarni ATT qilishga erishish maqsadida yuqorida ilk qadamda e’tiborga olinishi kerak

bo‘lgan jihatlar MT doirasida ko‘rib chiqildi, tahrirlovchi dasturning lingvistik ta’minotini yaratish borasida muayyan xulosalar chiqarildi.

*Matnni avtomatik tahrir va tahlil qilish algoritmi.* Ma’lumki, har qanday dastur algoritmlar asosida ishlaydi, algoritmlar esa ma’lumotlar manbaiga tayanadi. Matnlarni qayta ishlovchi lingvistik dasturlar ham milliy tilning lingvistik qoidalariga tayanib tuzilgan algoritmlar asosida o‘z vazifasini bajaradi. MT algoritmida quyidagi belgilardan foydalaniladi:

Us – lingvistik ta’minotdagi so‘zlar bazasi, Us="SELECT \* FROM 'Us";

Ys – o‘zbek tilidagi barcha yasovchi affikslar bazasi, Ys="SELECT \* FROM 'Ys";

Sq – o‘zbek tilidagi grammatik kategoriylar bazasi, Sq="SELECT \* FROM 'Sq";

$S_i$  – W matndan ajratib olingan so‘zshakllar,  $1 \leq i \leq n$ , n – W matndagi so‘zshakllar soni;

$S_{q_j}$  – Sq bazadagi affikslar,  $1 \leq j \leq m$ , m – Sq bazadagi affikslar soni.

Tz – so‘zning qusurli yozilganligini vizual ko‘rsatuvchi va yozilgan xato so‘zga maqbul so‘zshakl variantlarini beruvchi maxsus funksiya.

Quyida gaplarni tokenlarga ajratgan holda, lemma bo‘yicha o‘zbek tilidagi so‘zlar bazasidan izlanadi, topilmasa o‘zbek tilidagi barcha yasama so‘zlar bazasidan izlanadi. Asos yoki yasalma bazadan topilgach, unga birikish ehtimolidagi affikslar IDsi bo‘yicha o‘zbek tilidagi barcha affikslar bazasidan olinadi. Demak, tahlil algoritmi quyidagicha bo‘ladi:

1.  $S_i$  dagi har bir so‘z, Us bazasidan izlansin. Topilsa, keyingi qadamga, aks holda 5-qadamga o‘tsin.

2.  $S_i$  so‘zning Us bazadagi ID (tartib raqami) olinsin.

3.  $S_i$  so‘zning ID raqamiga to‘g‘ri keladigan affiks  $S_{q_j}$  – Sq bazadan izlansin.

4.  $S_i+S_{q_j}$  to‘g‘ri bo‘lsa 10-qadamga o‘tilsin, aks holda keyingi qadamga o‘tilsin.

5.  $S_i$  dagi har bir so‘z, Ys bazasidan izlansin. Topilsa, keyingi qadamga, aks holda 3-qadamga o‘tilsin.

6.  $S_i$  so‘zning Ys bazadagi ID (tartib raqami) olinsin.

7.  $S_i$  so‘zning ID raqamiga to‘g‘ri keladigan affiks  $S_{q_j}$  – Sq bazadan izlansin.


8.  $S_i+S_{q_j}$  to‘g‘ri bo‘lsa, 10-qadamga o‘tilsin, aks holda keyingi qadamga o‘tilsin.

9. Tz fuksiya amalga oshirilsin va 10-qadamga o‘tilsin.

10. So‘z to‘g‘ri yozilganligi tasdiqlansin va keyingi  $S_{i+1}$  so‘zga o‘tilsin.

Algoritm ish tartibini misol orqali tahlil qilamiz: *iste’molchilarning* so‘zshakli stemming qilinadi, ya’ni wordform\_set\_coord maydonida berilgan affikslar tartibi bo‘yicha kesib chiqiladi: *iste’mol/chi/lar/ning*. Shundan so‘ng *iste’mol* lemma imlosi List of Words bazasidan tekshiriladi, *-chi*, *-lar*, *-ning* affikslari Sqj – Sq bazasidan qidiriladi, bunda *-lar*, *-ning* shakl yasovchi va sintaktik munosabat shakli ekanligi aniqlanadi, *-chi* yasovchi affiksni topish uchun Ys bazasiga murojaat qilinadi. Lemma va affikslarning LTda mavjudligi topilgach, so‘zning to‘g‘ri yozilganligi tasdiqlanadi va keyingi so‘zga o‘tiladi.

Misolni dasturdagi tahlil jarayoni bilan boyitamiz:



9-rasm. Xato yozilgan yasama so‘z va ravishdosh bilan shakllangan xato so‘zning dastur tomonidan tahlil qilinishi natijasida ularga to‘g‘ri variantlarni taklif etish jarayoni.

#### 2.4. Omonimlarni tahlil qilish texnologiyasi

Ma’lumki, omonimlar yozilishi bir xil fonemalardan iborat shakllar hisoblanadi. Shu bois omonimiyada ifoda plani yetakchi<sup>106</sup>. Omonim hodisada yasama leksema va tub leksema, shuningdek, ularga grammatic ma’no ifodalovchi affiks qo‘shilganda voqe bo‘ladigan shakliy teng kelish ham qamrab olinadi. Masalan, *terim* so‘zshakli *ter* – fe’l leksemasiga *-im* leksema yasovchisining birikishi natijasida hosil qilingan leksemaning birlik, bosh kelishik formasiga teng.

Aniqroq bo‘lish uchun, bir necha turdagи omonimlarni ajratib ko‘rsatish mumkin:

- 1) nutqning bir qismi yoki lug‘atdagi shakli (lemma) farqlanadi;

<sup>106</sup> Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1984. – B.5.

2) ba’zi morfologik xususiyatlar, masalan, kelishik, egalik yoki sonda (boy morfologiyalı tillarda mavjud) farqlanadi;

3) bir-biridan faqat mazmun jihatdan farqlanadi (bu holat semantik farqlanishda uchraydi).

Tilning morfologik sathini o‘zida qamragan universal tizim (korpus) mavjud bo‘lmagan holda ko‘pgina tillarda so‘zlarning turlanish va tuslanish jarayonlarida LTga kiritilgan morfologik lug‘atlarga murojaat qilinadi. Shu bois turli xil lug‘atlar uchun omonimlik (noaniqlik) tushunchasi biroz farq qilishi mumkin.

Morfologik lug‘atlar bilan bir qatorda korpus, deb ataladigan to‘liq matnlar to‘plami mavjud<sup>107</sup>. Korpus ta’mintoning shakllantirilishiga qarab omonim shakllarning nafaqat morfologik, balki semantik va sintaktik xususiyatlari ham namoyon bo‘ladi<sup>108</sup>. Axborot olishning qulay imkoniyatlari yaratilishi natijasida korpus til haqidagi mukammal ma’lumot manbaiga aylanadi, masalan, omonim shakllarning eng keng tarqalgan turi statistikasini bilish mumkin.

Bugungi kunda lingvistik tadqiqot va amaliy topshiriqlar yechimi uchun til korpuslari zamonaviy tilshunoslikning inkor etib bo‘lmas ish quroliga aylandi, chunki korpus turli lingvistik topshiriqlarni yechishga xizmat qiladi<sup>109</sup>.

Korpus muayyan elektron manbaga leksik, morfologik, grammatick, semantik belgilar asosida ishlov berilganligi sababli lingvistik tadqiqotlarda foydalanish uchun juda qulay imkoniyatni beradi. Sh.Xamroyeva ta’kidlaganidek, til korpusi elektron kutubxonadan farqli ravishda muayyan tilni tadqiq qilish, o‘rganish va o‘rgatish uchun zaruriy, foydali va qiziqarli matnlar to‘planishini nazarda tutadi.<sup>110</sup>

1-jadvalda SinTagRus<sup>111</sup> va OpenCorpora<sup>112</sup> rus tili korpuslariga asoslanib, rus tilida omonim hodisalar statistikasi aks ettirilgan.

<sup>107</sup> [www.dialog-21.ru/media/2138/zakharov.pdf](http://www.dialog-21.ru/media/2138/zakharov.pdf) Захаров В.П. Корпуса русского языка.; [https://www.myfilology.ru/177/istoriya-korpusnoj-lingvistiki](http://www.myfilology.ru/177/istoriya-korpusnoj-lingvistiki). История корпусной лингвистики.; <http://www.ruscorpora.ru>.

<sup>108</sup> Ochiq rus milliy korpusi saydi – <http://opencorpora.org>.

<sup>109</sup> Недошивина Е.В. Программы для работы с корпусами текстов: обзор основных корпусных менеджеров. Учебно-методическое пособие. – СПб, 2006. – С.26.

<sup>110</sup> Xamroyeva Sh. O‘zbek tili mualliflik korpusini tuzishning lingvistik asoslari: Fil.fan. bo‘yicha falsafa dokt. (PhD) diss. avtoref. – Qarshi, 2018. – 53 b.

<sup>111</sup> Богуславский И.М., Иомдин Л.Л. и др. Разработка синтаксически размеченного корпуса русского языка. // Доклады научной конференции «Корпусная лингвистика и лингвистические базы данных». – СПб: изд-во Санкт-Петербургского университета, 2002. – С. 40-50.

<sup>112</sup> Bocharov V.V., Alexeeva S.V., Granovsky D.V., Protopopova E.V., Stepanova M.E., Surikov A.V. Crowdsourcing morphological annotation // Компьютерная лингвистика и

<b>So‘zlar</b>	<b>SinTagRus %</b>	<b>OpenCorpora %</b>
Omonimlikka ega bo‘lmagan so‘zshakllar	47.58	70.84
Muayyan morfologik xususiyatlarga ega omonimlar	25.58	16.31
Nutq (matn)da voqelangan ko‘rinishdagi omonimlar	12.40	11.91
Omonim lemma turkumi	11.70	0.26
Omonim lemma morfologik xususiyatlari bilan	2.26	0.00
Sintagmatik munosabatdagi omonim lemma	0.48	0.67

Jadvaldan turli korpuslardagi omonimlik turlicha ekanini ko‘rish mumkin. Bu morfologiyaning nafaqat turli modellaridan foydalanimishiga, balki matnlar uslubi va ma’lumotlar miqdoriga ham nisbatan bog‘liqidir. Rus tili korpusiga birlashtirilgan matnlar tarkibida omonimlikka ega so‘zshakllar ko‘p uchraydi. Shu bois xorijiy va rus tilshunosligida omonimlikni farqlash masalasi (“snyatiya omonimii”) alohida tadqiq qilinadi<sup>113</sup>.

Omonimlikni bartaraf etish uchun har bir so‘zni “tasniflash” kerak, ya’ni uni lemma – gap bo‘lagi va morfologik xususiyatlar majmui bilan taqqoslash mumkin, ular qulaylik uchun bir tegga qo‘shiladi. Barcha mumkin bo‘lgan teglarni o‘rganish uchun morfologik lug‘atdagi so‘zlarga tegishli havolalarni topish yoki MyStem<sup>114</sup> kabi morfologik analizatorni

интеллектуальные технологии: По материалам ежегодной Международной конференции «Диалог» (Бекасово, 29 мая – 2 июня 2013 г.). Вып. 12 (19). – Москва: РГГУ, 2013.

<sup>113</sup> Кобрицов Б.П. Модели многозначности русской предметной лексики: глобальные и локальные правила разрешения омонимии. Автореф... канд. филол. наук. Москва: РГГУ, 2004.; Зеленков Ю.Г., Сегалович И.В., Титов В.А. Вероятностная модель снятия морфологической омонимии на основе нормализующих подстановок и позиций соседних слов (Электрон ресурс). [http://www.dialog-21.ru/media/2444/zelenkov\\_segalovich.pdf](http://www.dialog-21.ru/media/2444/zelenkov_segalovich.pdf); Кобрицов Б.П. Методы снятия семантической неоднозначности. НТИ, Сер.2, Вып. 3, 2004.; Кобрицов Б.П., Ляшевская О.Н., Шеманаева О.Ю. Снятие лексико-семантической омонимии в новостных и газетно журнальных текстах: поверхностные фильтры и статистическая оценка (Электрон ресурс). [http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/1388/1/IMAT\\_2005\\_03.pdf](http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/1388/1/IMAT_2005_03.pdf); Hearst M.A. Noun homograph disambiguation using local context in large text corpora // Proceedings of the 7th conference, UW Centre for the New OED & Text Research Using Corpora, 1991.; Yarowsky D. Word sense disambiguation using statistical models of Roget’s categories trained on large corpora // Proceedings of the 14th International Conference on Computational Linguistics, COLING’92, 23–28 August, Nantes, France, 1992. – P. 454-460.

<sup>114</sup> <http://tech.yandex.ru/mystem> – MyStem морфологик таҳлил дастури сайти.

ishlatish etarli bo‘lib, u so‘z teglarini topishda yordam beradi. Shundan so‘ng bir nechta teglar orasidan faqat tegishli tegni tanlash kerak bo‘ladi.

Ushbu muammoni hal qilishda kompyuterni o‘rganish (kompyuter yordamida intensiv ta’lim), ayniqsa, tasniflash usullari yordam berishi mumkin. Tasnifni boshlashdan avval tasniflovchi, ya’ni klassifikator belgilangan holatda bo‘lgan haqiqiy misollar bo‘yicha o‘qitilishi kerak. O‘quv mashqi obyektning xususiyatlari (qo‘shni so‘zlarning gap bo‘lagi, tinish belgisi)ni va teg o‘rtasidagi munosabatni aniqlashdan iborat. Dasturning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi tanlangan metodga bog‘liq bo‘ladi.

Quyida omonim so‘zlarshakllarni matn tarkibida aniqlashning keng qo‘llaniladigan usullari haqida so‘z yuritildi.

Grammatikaga oid manbalardan ma’lumki, omonimiyanı farqlash (ya’ni noaniqlikni bartaraf etish)ning deyarli barcha usullari ikki guruhga bo‘linadi<sup>115</sup>:

1. Grammatik me’yorlarga asoslangan usullar. O‘z navbatida, ular quyidagicha guruhlanadi:

- texnologiyalarning aralashuviziz qo‘lda kiritilgan metodlar;
- qoidalarni avtomatik yaratish usullari.

2. Statistikaga asoslangan usullar.

Ushbu guruhlarning har birida afzallik va kamchiliklar mavjud. Shunday holat bo‘ladiki, har ikkala guruhga tegishli metodlar kombinatsiyasidan yuzaga kelgan metod yaxshiroq natijani ko‘rsatishi mumkin. Bunday gibrid metod bilan tanishishdan oldin har bir turning vakillarini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

**Brill usuli.** Qoidalarni avtomatik generatsiya qilish metodining yaqqol namunasi – amerikalik lingvist Erik Brill metodidir<sup>116</sup>. Ish uslubi quyidagicha:

1. Boshlash: Har bir so‘z o‘sha so‘zning tez-tez ishlatib turiladigan tegi (nutqning asl qismida) bilan bog‘lanishi lozim. Noma’lum so‘zlar ot so‘z turkumi sifatida qabul qilinadi. Boshlash bosqichidan nafaqat o‘rganish jarayoni boshlanadi, balki omonimlarni bartaraf etish metodi ham harakatga keladi.

2. Tez-tez uchraydigan xatolik uchun o‘zgarish (qayta ishslash) qoidasini yaratish.

---

<sup>115</sup> Рысаков С.В. Методы борьбы с омонимией. <http://samag.ru/archive/article/3059>.

<sup>116</sup> Brill E. Transformation-Based Error-Driven Learning and Natural Language Processing: A Case Study in Part-of-Speech Tagging // Computational Linguistics. Vol. 21. 1995. – P. 543-565. <http://acl.ldc.upenn.edu/J/J95/J95-4004.pdf>

3. Istalgan minimal xatoga erishguncha ikkinchi bosqichni takrorlash.

O'tkazish (qayta ishslash) qoidalarida “eski teg, yangi teg, shart” to‘plamlari o‘z ifodasini topadi va qoidada belgilangan shart bajarilganda eski teg yangisi bilan almashtiriladi. Ushbu metodning kamchiligi qoidalar sonining ko‘payishi bilan aniqlik darajasining pasayishida kuzatiladi<sup>117</sup>, bu Paretoning prinsipiga mos keladi: 80% harakat 20% natijani ta’minlaydi. Shu bilan birga, prinsip aksincha jarayonda ham ishlaydi: boshlash bosqichining faqat bitta qadamini bajarish natijasida omonimlikni bartaraf etishda yuqori aniqlikka erishish mumkin. SinTagRus korpusida o’tkazilgan test natijalaridan ma’lum bo‘ldiki, ushbu metod har bir so‘zning gapdagi o‘rnini 97,4%, morfologik xususiyatlarning to‘liq majmuini 87,6% aniqlik bilan topish imkonini beradi.

1-jadvalga binoan, SinTagRus korpusidagi so‘zlarning deyarli yarmi shakldosh emas. Bu holat o‘z navbatida dasturda morfologik xususiyatlarni va gap bo‘laklarini aniqlashda omonimlikni farqlash metodi emas, balki morfologik lug‘at, ya’ni morfologik analizatorning mukammal ishlab chiqilgani bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shakldosh so‘zlarni bartaraf etish metodining foydali ishini baholash uchun statistikani barcha so‘zlar bilan emas, balki faqat omonimlar bo‘yicha hisoblash kerak. Bundan aniq bo‘ladiki, nutqning bir qismini belgilash vazifasi korpusning 24,10 % ga to‘g‘ri keladi, gap bo‘lagi va morfologik xususiyatlarni aniqlash esa 51,94 % ni tashkil qiladi. Brill usulining qisqartirilgan versiyasi bo‘lgan yuqorida aytilgan chastota metodi uchun foydali aniqlik 89,1 % bo‘lsa, gap bo‘lagi va morfologik xususiyatlarni aniqlash ko‘rsatkichi 76,2 % ni tashkil qiladi.

**Yashirin Markov modeli.** Baum L.E. va uning hamkasblari tomonidan ishlab chiqilgan<sup>118</sup> mazkur model omonimlikni aniqlashning statistik metodi statistik jarayonda yuzaga keladigan barcha variantlar ehtimolligini hisobga olishga yordam beradi. Masalan, ma’lum bir matnda ot turkumiga oid so‘zlar bog‘lovchiga nisbatan tez-tez va ko‘p uchrasa unda ayni kontekstda mavjud omonim katta ehtimollik bilan bog‘lovchi emas, ot turkumiga oid so‘z bo‘ladi, keyingi ehtimollikda bog‘lovchi sifatida hisobga olinadi. Kontekstni tavsiflash uchun N-grammadan foydalilaniladi. N-gramma – matnlarga avtomatik ishlov berishda keng qo‘llaniladigan matematik hisob vositasidir. O‘zbek kompyuter

---

<sup>117</sup> Brill E. A simple rule-based part of speech tagger //Proceedings of ANLC. 92, – C. 154.

<sup>118</sup> Baum, L. E.; Sell, G. R. Growth transformations for functions on manifolds. Pacific Journal of Mathematics. 27 (2) 1968. – P. 211-227.; [https://en.wikipedia.org/wiki/Hidden\\_Markov\\_model](https://en.wikipedia.org/wiki/Hidden_Markov_model).

lingvistikasida S.Rizayev harf birikmalarini bigramm, trigramm terminlari bilan ifodalagan<sup>119</sup>.

N-gramma – so‘zlar yoki teglar kabi N-identifikator elementlarning ketma-ketligini ifodalaydi. Ikki element ketma-ketligi – bigramma, uch element ketma-ketligi esa trigramma, deyiladi. Masalan, *old qo ‘shimcha+ot* holati bigrammaga misol bo‘ladi.

Omonimlikni aniqlashning oddiy statistik metodi va boshqa shu kabi metodlarning tavsifini keltirish uchun quyidagi usullar ishlataladi:

- $w_i$  – jumladagi i-o‘rinda joylashgan so‘z,  $t_i$  – ushbu so‘zning identifikatori (tegi).

- $D_{(w)} = \{t_1^w, t_2^w, \dots, t_k^w\}$  w so‘zining barcha mumkin bo‘lgan belgilar majmui. Ushbu ma’lumotlarni morfologik lug‘at yordamida olish mumkin. Agar so‘z lug‘atda bo‘lmasa uni Brill usulida bajarilganidek, ot so‘z turkumi sifatida hisoblash mumkin, ammo lingvistik ta’minot ishonchli bo‘lishi uchun barcha mumkin bo‘lgan teglarni qo‘yib chiqish kerak.

- $C$  – korpusdagi muayyan holatlar soni (n-gramma). Bunda  $C(t)$  – t teglar soni; va  $C(t_1, t_2)$  – bigrammalar soni ( $t_1, t_2$ ).

- $C_t(w, t)$  – t tegli w so‘zlar soni.

- $F(w, t)$  – w so‘zida t tegi mavjudligi ehtimoli. Tavsiflar quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$F(w, t) = \frac{C_t(w, t)}{C(t)}$$

–  $P(t_i|t_{i-1})$  - bu  $t_{i-1}$  tegidan keyin  $t_i$  tegining kelish ehtimollik holati. Bunda  $i = 1$  bo‘lganda  $t_i$  tegi gapda birinchi teg hisoblanadi. Hisoblash formulasi quyidagicha:

$$P(t_i|t_{i-1}) = \frac{C(t_{i-1}, t_i)}{C(t_{i-1})}$$

Yashirin Markov modeliga asoslanib, omonimlikni aniqlashning statistik metodi yordami bilan ishslash natijasida  $n$  uzunlikdagi jumlada  $T_i \in D(w_i)$  bo‘lganda  $T=\{T_1, T_2, \dots, T_n\}$  teglarning ehtimoliy ketma-ketligi topiladi.<sup>120</sup>

**Modellar modifikatsiyasi.** Lingvistik korpusdagi statistikaga asosan ehtimollik hisob-kitobida ba’zi kam uchraydigan teglar juftligi uchun R ehtimolligi nolga teng bo‘ladi. Bu arzimasdek tuyulgan xatolik qolgan ehtimolliklardan qat’iy nazar, ketma-ketlik natijasining nolga tushishiga olib kelishi mumkin. Ushbu kamchilikni bartaraf etish maqsadida

---

<sup>119</sup> Rizayev S. O‘zbek tilshunosligida lingvostatistika asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 18.

<sup>120</sup>[http://www.academia.edu/15517740/Анализ\\_статистических\\_алгоритмов\\_снятия\\_морфологической\\_омонимии\\_в\\_русском\\_языке](http://www.academia.edu/15517740/Анализ_статистических_алгоритмов_снятия_морфологической_омонимии_в_русском_языке).

statistikada silliqlash jarayoni<sup>121</sup> bajariladi. Oddiy misol,  $P$  funksiyasida Laplasning silliqlanishida  $P$  ning qiymati noldan kattaroq bo‘lishi talab qilinadi:

$$P(t_i|t_{i-1}) = \frac{C(t_{i-1}, t_i) + 1}{C(t_{i-1}) + 1}$$

Albatta, silliqlash – qulay usul emas, shuning uchun unga juda ko‘p tayanilmaydi. Lingvistik korpus hajmi qanchalik katta bo‘lsa, to‘plangan ma’lumotlar shonchli va kam uchraydigan lingvistik holatlarni o‘tkazib yuborish ehtimoli kamroq bo‘ladi<sup>122</sup>. Odatda korpusning hajmi cheklangan bo‘ladi, ammo statistika yig‘ish uchun xususiyatlarni tanlash erkinligi mavjud. Bigrammalar o‘rniga trigrammalar hisobga olinishi mumkin. Bu holda qidiruv formulasi quyidagi shaklni oladi:

$$P(t_i|t_{i-1}, t_{i-2}) = \frac{C(t_{i-2}, t_{i-1}, t_i)}{C(t_{i-2}, t_{i-1})} \text{ holatida}$$

$$\operatorname{argmax}_T \prod_{i=1}^n P(T_i|T_{i-1}, T_{i-2}), \text{ bo‘ladi.}$$

Lingvistik ta’mnotin yaratishda omonimlarni aniqlash metodida tekshiriladigan belgilarning til xususiyatlariga tinish belgilarini ham qo‘shish mumkin, ammo bu holatda tinish belgilari N-grammada hisobga olinishi muammoligicha turadi. Masalan, agar punktuatsiya alohida teg sifatida hisobga olinsa bigramma statistikasida orasiga tinish belgisining qo‘yilishi natijasida juft teglar alohida-alohida teglar, deb qabul qilinadi. Teglardagi ketma-ket juftlikni saqlab qolish uchun bigramma (teg, teg)ni trigramma (teg, punktuatsiya, teg)ga almashtirish maqsadga muvofiqdir. Bunda qidiruv holati quyidagicha tus oladi:

$$\operatorname{argmax}_T \prod_{i=1}^n P(T_i|T_{i-1}, pm_{i-1}),$$

$$P(t_i|t_{i-1}, pm_{i-1}) = \frac{C(t_{i-1}, pm_{i-1}, t_i)}{C(t_{i-1})},$$

$pm_i$  – i so‘zidan keyingi tinish belgisi. Bu yerda va oldingi misollarda mahraj boshqa ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin: i so‘zning istalgan shaklida barcha zanjirlar uchun mahraj bir xil bo‘lsa maksimal izlanishga ta’sir qilmaydi. Chastotali modelda bo‘lgani kabi so‘zning belgisi sifatida foydalanish mumkin.

<sup>121</sup> Рысаков С.В. Методы борьбы с омонимией. <http://samag.ru/archive/article/3059>.

<sup>122</sup> Клышинский Э.С., Рысаков С.В. Статистические методы снятия омонимии // «Новые информационные технологии в автоматизированных системах». 2015. – С. 556-557.

Amaliyot shuni ko‘rsatdiki, yashirin Markov modelidagi teglar chastotasi to‘g‘risidagi ma’lumotlardan aniqlikka erishish mumkin. Tinish belgilarsiz bigrammalarni ishlatganda qidirish formulasi quyidagi holatda bo‘ladi:

$$\operatorname{argmax}_T \prod_{i=1}^n P(T_i|T_{i-1}) \cdot F(w_i, T_i)$$

barcha so‘zlarni alohida guruhlarga ajratib, hisob-kitobni yanada aniqroq qilish mumkin. Buni amalga oshirish uchun  $G(w)$  funksiyasi kiritiladi va har bir so‘z o‘zi tegishli bo‘lgan guruh identifikatori bilan bog‘lanadi. Guruhlarning kiritilishi bilan R funksiyasi quyidagi shaklga keladi:

$$P_G(t_i|t_{i-1}; g_i) = \frac{C_{g_i}(t_{i-1}, t_i)}{C(t_{i-1})},$$

bu yerda  $g_i = G(w_i)$ , va  $C_g$  oxirgi so‘z g guruhiga to‘g‘ri keladigan n-gramm sonini bildiradi. So‘zlarni guruhlashda qo‘llaniladigan metodning tanlanishiga bog‘liq ravishda metodning aniqligini oshirish yoki kamaytirish ham mumkin. Muallif tomonidan taklif qilingan modifikatsiyada har bir guruhda so‘z qabul qilishi mumkin bo‘lgan mos keluvchi teg varianti ro‘yxati, ya’ni  $G(w) = D(w)$  mavjud. Buning natijasida qidirish formulasi tubandagicha bo‘ladi<sup>123</sup>:

$$\operatorname{argmax}_T \prod_{i=1}^n P_G(T_i|T_{i-1}; D(w_i))$$

Yuqorida omonimlarni aniqlash bo‘yicha ishlab chiqilgan manbalar va formulalar asosida o‘zbek adabiy tili matnlaridagi leksemalarni tekshirish formulasi yaratildi.

S – Rasmiy va ilmiy uslubdagi matnlar majmuasi.

$T_c$  – S matnlar majmuasi (korpus)dagi teglar soni.

$w_i$  – biror matnning i – o‘rnidagi so‘z,  $t_j$  – w so‘zining S korpusdagi tegi.  $n$  –  $t_j$  teglar soni.

Matndagi  $w_i$  so‘zi va undan keyin kelgan  $w_{i+1}$  so‘zlarini bigramma sifatida olinadi.

$W_i=\{w_i, w_{i+1}\}$  – matndagi i – o‘rindagi so‘z va undan keyingi so‘zlardan tashkil topgan bigramma.

$Y_j=\{w(t_j), w(t_{j+1})\}$  – S korpusdagi  $t_j$  – tegli j – o‘rinda turgan va undan keyingi so‘zlardan tashkil topgan bigramma.

---

<sup>123</sup> Рысаков С.В. Методы борьбы с омонимией. <http://samag.ru/archive/article/3059>.

Endi berilgan  $w_i$  – so‘zining to‘g‘riliqi, affikslarning to‘g‘ri qo‘shilganligi mavjud S matnlar to‘plamiga tayangan holda tekshirish quyidagi formula yordamida amalga oshiriladi.

$$\prod_{j=1}^n (W_i, Y_j) \Rightarrow W_i$$

O‘zbek milliy korpusining yaratilmaganligi, rasmiy va ilmiy uslubdagagi matnlar bazasi to‘la shakllantirilmaganligi e’tiborga olinib, o‘zbek tilidagi omonim shakllarni tahlil qilishda N-grammga bog‘liq ravishda omonim-tahlil texnologiyasi qo‘llanildi. Buning uchun o‘zbek tilidagi omonimlar LTga ID bilan kiritildi, bu jihat kontekstda omonimlarning grammatik shakllanishini tahlil qilish imkoniyatini beradi. Tahlil aniqligini oshirish maqsadida omonimshaklning turkumi aniqlandi va unga ramziy qiymat berildi. Shundan so‘ng omonimlar bazasi (List of homonym) so‘z birikmalari modeli (Models of CompWords)ga bog‘landi (List of homonym=> Models of CompWords). Natijada kiritilgan M – omonim o‘zi bilan kelgan N – so‘zga bog‘liq ravishda LTdagi M – omonimning ID raqamiga to‘g‘ri keluvchi Q – affikslarni oladi, ya’ni, M[id]+Q[id].

Mazkur texnologiyani misol orqali tahlil qilamiz:  $yeng_1 \rightarrow N/ot$  (kiyimning qo‘lni qoplab turadigan qismi),  $yeng_2 \rightarrow V/fe'l$  (g‘olib kelmoq, ustun kelmoq),  $yeng_3 \rightarrow V/fe'l$  (ye'yishga undovchi buyruq fe'li) omonimshakllar matnda sintaktik modulda yaratilgan so‘z birikmalari modelidagi so‘z turkumlari ramzlariga mos ravishda o‘zidan keyin kelgan so‘z (bigramma – ikki belgi ketma-ketligi) bilan sintaktik bog‘lanishda qabul qiladigan grammatik vositasi tahlil qilinadi. Demak, bu yerda N va V bilan bog‘liq modellarga murojaat qilinadi:  $N_{com-ni} + V$  (*yengini kesmoq*),  $N_{com-ga} + V$  (*yengiga qadamoq*),  $Pron_{ni(dir)} + V$  (*hammani yengmoq*),  $Pron_{dan(dir)} + V$  (*mendan yengilmoq*),  $Adj_{dan} + V$  (*Vh*) (*kuchsizdan yengilmoq*) va h.k.

Umuman, omonim-tahlil texnologiyasi muayyan omonim so‘zga boshqa so‘zning ma’lum grammatik ko‘rsatkich orqali bog‘lanishi bilan tushuntiriladi va bu jarayon tahlil imkoniyati hamda tahlilning aniqligini oshiradi.

## 2.5. Lingvistik protsessorning sintaktikoldi tahlil jarayoni

Formal tillar va formal grammatika nazariyasi XX asrning 50-yillarida N.Xomskiyning generativ nazariyasidan kelib chiqdi. Ushbu nazariya sintaktik tuzilmalarini tahlil qilish uchun asos bo‘ldi<sup>124</sup>. Avtomatik sintaktik tahlil (parsing<sup>125</sup>) kompyuter lingvistikasi nazariyasining eng ko‘p o‘rganilayotgan sohasidir. Sintaktik analizatorlar ma’lumotlar bazasi interfeyslarini loyihalashtirish, sun’iy intellekt, matnlarga avtomatik ishlov berish, avtomatlashtirilgan ma’lumot-qidiruv tizimi sohasi, mashina tarjimasida keng qo‘llanilmoqda. Ta’kidlash kerakki, avtomatik sintaktik tahlil (ST) usullari ishi tabiiy tilning formal sintaktik nazariyalaridan kelib chiqadi.

Sintaksis deganda tilshunoslikda asosiy birligi gap va eng kichik birligi so‘z birikmalari bo‘lgan sathlar nazarda tutilgan. Unda gap tarzida muayyan hukmni ifoda qiladigan grammatik izchil bog‘langan so‘zlar zanjiri tushuniladi. Grammatik izchil zanjir – so‘zshakllarning o‘zaro ma’lum bir grammatik munosabatlarda bog‘lanishidir. So‘zshakl yoki grammatik so‘z leksemaning o‘ziga biriktirishi mumkin bo‘lgan grammatik shaklda kelishidir. Shunday qilib, gapning sintaktik tuzilishi so‘zshakllarning o‘zaro sintaktik bog‘langan zanjiridan tashkil topadi.

STda asosiy maqsad (birinchi qadamda) so‘zlarning o‘zaro bog‘lanish me’yorlarini e’tiborga olish. Bir so‘zshakl bir qancha so‘zning grammatik formasiga to‘g‘ri kelishi mumkin. Bunday holatda so‘zlarni farqlash uchun matn kirituvchiga shunday so‘zlar varianti ko‘rsatiladi va matn teruvchi so‘zlardan muvofiqini tanlab qo‘yadi. Ushbu jarayon MTda ham kuzatiladi, ya’ni so‘zning xato yozilgani aniqlangach, matn teruvchiga tanlab qo‘yish imkonini beruvchi so‘zlar varianti taklif etiladi. Masalan:




давлат органлари ва бошқа ташкилотларда кадрларни хорижда тайёрлаш ва хорижий мутахасисларни жаълб этиш ушбу тизимни таомиллаштириш бўйича таклифлар ишлаб чиқиш;

10-rasm. Gap tarkibidagi *mutaxassislarni* so‘zshaklining xato yozilgani qizil to‘lqinli chiziq bilan chizilib ko‘rsatilmoqda.

<sup>124</sup> Большакова Е.И. Автоматическая обработка текстов: задачи, подходы, ресурсы (электрон ресурс).


[https://www.hse.ru/data/2017/07/24//КЛ\\_задачи\\_подходы\\_ресурсы](https://www.hse.ru/data/2017/07/24//КЛ_задачи_подходы_ресурсы).

<sup>125</sup> Rekers, Jan, and Andy Schürr. Defining and parsing visual languages with layered graph grammars. Journal of Visual Languages & Computing 8.1 (1997): – P. 27-55.



11-rasm. Xato yozilgan so‘zga ehtimoldagi to‘g‘ri variantlar taklif etilmoqda.

Matn tahlilining chizmadagi aksi quyidagi holatda bo‘ladi:



12-chizma. Tahlil jarayoni.

Sintaktikoldi tahlil jarayoni matnni sintaktik tahlil bosqichiga tayyorlab berish vazifasini bajaradi. Ushbu jarayonda matndagi murakkab tarkibli birliklar bo‘laklarga bo‘linib tahlil qilinadi, sodda birliklar esa ma’no jihatdan guruhlanadi. Bu jarayonni kishi miyasida soniya ichida turli fikrlarning aylanishiga o‘xshatish mumkin, zotan, sintaktikoldi tahlil jarayoni ko‘zga tashlanmaydi, tahlil faqat dastur sistemasida lingvistik ma’lumotlar asosida olib boriladi.

Sintaktikoldi tahlil jarayoni birinchi galda matndagi birliklar: gap, alohida kelgan so‘zlar va tinish belgilarni aniqlab oladi. Mashina tarjimasi tizimidan farqli o‘laroq, ushbu jarayonda dialogik havolalar, kirish gaplar va birikmalar e’tiborga olinmaydi. Har bir punktuatsion va raqamli birliklarni, turli belgilarni tekshirish GTning, so‘zshakllarni tahlil qilish esa MTning vazifasi sanaladi. Sintaktikoldi tahlil jarayonida shunday muammolar yuzaga keladiki, ular lingvistik yondashuv orqali o‘z yechimini talab qiladi.

Odatda gap nuqta, so‘roq, undov belgilari, ayrim hollarda ko‘p nuqta bilan tugaydi. Ammo bizga ma’lumki, aynan shu belgilar gap o‘rtasida ham qo‘llaniladi. Nuqta ko‘p hollarda qisqartmalarda ishlatiladi: *v.h., va boshq.*, *K.R.Rahimov, Toshkent sh., Mirobod tum., Fayzobod ko‘ch., 2018-*

y. kabi. Undov va so‘roq belgilaridan ko‘chirma gaplarda his-hayajonni anglatish va savol berishda foydalaniladi: *U nima ham qilsin?, nimayam desin?, nimani tushuntirsin?...* Misollardan ko‘rinib turibdiki, yuqorida keltirilgan tinish belgilari hamma vaqt gapni tugallovchi belgilar vazifasini bajarmaydi.

Matnda bosh harflar masalasi ham muammoni yuzaga keltiradi. *Asal judayam ajoyib* (1). *Biznikiga karimalar kelishdi* (2). *Bizga ma’lumki, Yer o’z o’qi atrofida aylanadi. Uyga kelib qarasam, dadam yerga bosh qo ‘yib yotgan ekan* (3).

Pragmatika yoki kontekstning ishtirokisiz yuqorida keltirilgan misollardagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar qanday ma’noda kelayotganini anglash qiyin: (1) gapda *asal* so‘zi ismni anglatayaptimi yoki shirinliknimi? (2) gapdagi *karimalar* so‘zi Karima ismli qiz bilan birgalikdagi shaxslarni anglatayapti, ammo avtomatik tahrir dasturi ism kichik harf bilan yozilgan, deya so‘zni xato yozilgan deb hisoblaydi. (3) misolning 1-gapida Yer sayyorasi haqida fikr yuritilgan, 2-gapda esa ona zamin nazarda tutilgan. Lekin sintaktikoldi tahlil jarayonida 1-gapdagi Yer so‘zi Yer sayyorasi birikmasi tarzida yozilmagani uchun ushbu so‘zda ona zamin haqida fikr yuritilayotganini hisobga olib, uning xato yozilganligini ko‘rsatadi. Bu holatda dasturning ma’lumotlar bazasiga ushbu qoidalarni kiritish talab etiladi:

1. Turdosh otlar atoqli ot vazifasida ham keladi yoki aksincha: *t.ot* → *at.ot*. Ushbu qoidaning muqim bo‘lishi uchun morfologik tahlil modullarida o‘zbek adabiy tilidagi turdosh va atoqli otlar guruhlari to‘liq va aniq ko‘rsatilishi lozim.

2. Atoqli otlarga *-lar* shakl yasovchi affiksi qo‘shilganda atoqli otlar bosh harf bilan emas, kichik harf bilan yoziladi: *at.ot+lar=t.ot* → *farhodlar, salimalar, komronbeklar*.

3. Toponimlarga *-lik* so‘z yasovchi affiksi qo‘shilganda joy nomlari kichik harf bilan yoziladi:  $N_{top.} + lik = N_{top.} \rightarrow toshkentlik, navoiylik, nurobodlik, chimkentlik, qoraqamishlik, urgutlik$  va h.k.

4. Har bir uslubning o‘ziga xos xususiyatlari dastur ta’midotiga kiritiladi. Kiritilgan ma’lumotlar asosida yozilayotgan gapning qaysi uslubga xosligi avtomatik tarzda aniqlanadi, natijada gapda ishtirok etayotgan so‘zlar imlosi tekshiriladi. Masalan: yuqorida keltirilgan (3) misoldagi 1-gap ilmiy uslubga oid bo‘lib, unda ishtirok etgan Yer so‘zi bosh harf bilan yoziladi. 2-gap badiiy uslubga xos bo‘lgani bois *yer* so‘zi kichik harfda yozilgan.

O‘zbek tili agglyutinativ tabiatga ega. Shu bois so‘zshakllar asos so‘zga affikslarning ketma-ket (*asos+so‘z yasovchi affiks+so‘z shaklini hosil qiluvchi affiks+so‘z o‘zgartiruvchi affiks*) birikishi natijasida yuzaga keladi. Masalan: *bil+im+don+lar+ga, joy+lar+dagi, xona+dosh+lar+im+niki+da* kabi. Bir so‘zga affikslar va kombinatsiyalarning birikib kelishi natijasida minglab so‘zshakllar yuzaga chiqadi. Bunday ulkan hajmli so‘zshakllarni morfologik lug‘atda saqlash qiyin. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun tahrir dasturining morfologik lug‘atiga asos so‘zlar va fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlar grammatik va semantik ma’lumotlari bilan kiritiladi, affikslar esa parametrlari, ya’ni so‘zga qo‘shilib, qanday ma’no ifodalashi, qanday turkumdagি so‘zlarga birikishi, qanday tur affikslari bilan birga kelishi beriladi. Ushbu vazifalar bajarilmasa, *uy+dagi+lar+im+dagi+lar+ning* kabi so‘zshakllarni to‘g‘ri yozilgan, deb hisoblaydi.

Yana bir muhim muammo – tire va chiziqcha muammosi. Ma’lumki, tire (–) tinish belgi, chiziqcha esa “-” diakritik belgi hisoblanadi. Ikkisi ham o‘z vazifalariga ega. Ammo ko‘p hollarda matnlarda ikki belgining o‘rni almashtirib qo‘llanganiga duch kelamiz. Buni bartaraf etish uchun lingvistik ma’lumotlar bazasiga chiziqcha va tire bajaradigan vazifalar algoritmi kiritiladi, shuningdek, chiziqcha bilan birikadigan qo‘sishchalar, juft va qo‘shma so‘zlar ham tayyor so‘zshakllar sifatida kiritiladi.

Matnda keltirilgan raqamlar borasida ham muammolar mavjud. Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 24-avgustdagi “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida”gi qarori bilan qabul qilingan “O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari”ning 56-bandida shunday qoida yozilgan: tartib son arab raqamlari bilan yozilsa, -(i)nchi affiksi o‘rniga chiziqcha (-) qo‘yiladi: *7-sinf, 5-«A» sinfi, 3-, 7-, 8-sinf o‘quvchilari, 60-yillar, 1991-yilning 1-sentabri* kabi<sup>126</sup>. Tartib sonni ko‘rsatuvchi rim raqamlaridan keyin chiziqcha yozilmaydi: *XX asr, X sinf* kabi. Demak, lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosi asosida yozilgan matnlarda yil va oy raqamlaridan so‘ng -(i)nchi ma’nosini ifodalash maqsadida chiziqcha “-” qo‘yiladi. Masalan: *2012-yil, 18-aprel*. Ammo bu hamma vaqt ham to‘g‘ri kelavermaydi. Masalan: *Navoiy kon-metallurgiya kombinatining 60 yilligi. O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishganiga 26 yil to‘ldi. Komronbekning sportda erishgan bu yutug‘iga 3 oy bo‘ldi*. Misollardan ko‘rinib turibdiki, dasturning lingvistik ma’lumotlar bazasi

---

<sup>126</sup> Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining yangi alifbosi va imlosi. – Toshkent: Universitet, 2002. – B.46.

yaratilayotganda yuqoridagi kabi istisnoli holatlar e'tiborga olinishi zarur. Mana shu kabi qoidani dastur ta'minotiga kiritish maqsadga muvofiq:

**Qoida:** *yil so'zidan so'ng bo'ldi, to'ldi so'zlari kelganda yil so'zidan oldin kelgan raqamdan so'ng chiziqcha “-” qo'yilmaydi.*

Ma'lumki, har qanday dastur algoritmlar asosida ishlaydi, algoritmlar esa ma'lumotlar manbaiga tayanadi. Matnlarni qayta ishlovchi lingvistik dasturlar ham milliy tilning lingvistik qoidalariga tayanib tuzilgan algoritmlar asosida o'z vazifasini bajaradi. Shuning uchun dasturning lingvistik ma'lumotlar ta'minoti mukammal qilinishi, har bir lingvistik tahrir bosqichlarining modullari ham lingvistik, ham pragmatik jihatdan aniq qoidalar bilan boyitilishi lozim.

## **2.6. Dasturning sintaktik tahlil qilish moduli**

Sintaktik tahlil moduli (STM) sintaktik tahlil qilish dasturi yoki lingvistik dasturning STni amalga oshirishga mo'ljallangan qismi. Bugungi kunda avtomatik STMlarini yaratish KLning dolzarb masalalaridan hisoblanib, buning yechimi turli amaliy maqsadlarni yuzaga keltirish uchun til sistemasini formallashtirishda yuqori sifatli natijalar imkonini beradi: til va nutq birliklarini avtomatik tekshirish sistemasini yaratish, Internetning qidiruv sistemasini mukammallashtirish shular jumlasidandir.

Qayd etish joizki, sintaktik analizator ishi avtomatik MT ishiga nisbatan bir muncha murakkab jarayon hisoblanadi, chunki morfologiya sohasida ko'plab ishlanmalar, me'yorlar, tadqiqotlarning amalga oshirilgani, imlo lug'atlari, morfemik lug'atlari kabi orfografiya, morfologiya, morfemika bo'limlarida manbalarning yaratilgani MT dasturining lingvistik ta'minotini boyitishda muhim o'rinni tutadi.

STdan maqsad sintaktik strukturalar va sintaktik bog'lanish me'yorlarini kuzatishdir, biroq barcha tillarda ham STM yaratish murakkab ish hisoblanadi, chunki amaliy tilshunoslikda yetarlicha nazariy va amaliy tadqiqotlar mavjud emas; til va nutq birliklarining sintaktik bog'lanishi individual xilma-xillikka ega. Shunga qaramasdan, ushbu bobda o'zbek tilidagi matnlarni ST qilish dasturining modullari berildi va ST qilish bosqichi tuzilmasi yoritildi. Ishning avvalida sodda sintaktik strukturalarning modullari yaratildi. Biz taqdim etayotgan sintaktik tahlil moduli o'zbek adabiy tilidagi matnlarning grammatik tahliliga yo'naltirilgan Uztextanalysis matn analizatorining qismidir. Sintaktik struktura morfologik me'yorning eng oddiy belgisi bo'lgan so'zshakllar zanjirini tekshiradi, jumlani mantiqiy hosilalarga binoan tahlil qiladi.


Ma'lumki, gap miqdori cheksiz va u individual tuzilish hamda qo'llanilishga bog'liq. Shu bois STda nisbatan kichik birlik hisoblanmish so'z birikmalari tahlili e'tiborga olindi, ya'ni MT modullarini yaratish jarayonida barcha leksemalar so'z turkumlariga ajratilganiga asoslanib, so'zlarning bog'lanish yo'llari modellashtirildi va "so'z birikmalari kategoriyasi" yaratildi. So'z birikmalari kategoriyasi (SBK) bir modulga ega bo'lgan so'z birikmalari guruhidir, ya'ni so'zlararo sintaktik bog'lanishning yagona moduli beriladi, jumladagi sintaktik bog'lanishlar mavjud modullarga tayanib mantiqiy tahlil qilinadi. Jahon KLda ham sintaktik tahlilda, asosan, so'zlarning bog'lanishi tahlil qilinadi. Gap tahlili esa gap bo'laklarini topishda muhim sanaladi<sup>127</sup>. Mazkur tadqiqotda gap bo'laklari tahlili qamrab olinmagan.

Demak, avtomatik tahlil algoritmi jumladagi so'z birikmalarini aniqlash va ular o'rtaqidagi aloqalarni qidirishga tushadi.

**Белгилаб қўйилсинки, Тошкент шаҳрининг бош режаси тасдиқлангунга ва пойтахтни архитектура жиҳатидан ривожлантиришнинг истиқъаминлайди**

**Тошкент шаҳрининг эски шаҳар қисмida бузиш, реконструкция қилиш ва капитал қурилиш бўйича ишларни олиб бориш таъкиқланади;**


13-rasm. Mazkur tadqiqot ishi natijasida erishilgan 1-amaliy yutuq – bu xato so'zlarning tagiga qizil chiziq chizib ko'rsatilishi hisoblanadi;



14-rasm. 2-katta yutuq: xato so'zga uning to'g'ri yozilish shakllarining taqdim qilinishiga erishildi.

Matematika nuqtayi nazardan har qanday jumla yo'naltirilgan grafik, to'g'riroq'i, daraxt sifatida ifodalanishi mumkin. Daraxtning eng tepasida tobe bog'lanish mavjud. Agar so'zshakllararo munosabat  $X \in Y$  ka bog'liq bo'lsa, u holda  $X$  Yni ergashtiradi,  $Y$  esa  $X$ ga bog'liq bo'ladi.  $X$  dominanta (hokim) hisoblanadi,  $Y$  tobe. Masalan:

<sup>127</sup> Джураева Н. Разработка формальной модели грамматики официально-делового стиля узбекского языка и её программная реализация: Автореф. дис. ...канд.филол.наук. – Ташкент, 2012.



Avtomatik ST modulini yaratishda yuqori sifatga erishish uchun matnlar korpusidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O‘zbek tili korpusi hali yaratilmagani hisobga olinib, tadqiqotda an’anaviy tilshunoslik me’yorlariga tayanildi. Aytish joizki, matn korpusi asosiy talabni bajaradi: so‘z birikmalarini identifikatsiyalash (bir xillashtirish, muayyan guruhga birlashtirish) va ular o‘rtasidagi sintaktik bog‘lanishni aniqlashni amalga oshiradi.

Ilmiy va rasmiy uslubdagi matnlar tahliliga tayanib, matnlarda uchraydigan sintaktik bog‘lanishlar quyidagicha kategoriyalashtirildi: fe’lli birikmalar (FB), otli birikmalar (OtB), sifatli birikmalar (SB), sonli birikmalar (SonB), ravishli birikmalar (RB), olmoshli birikmalar (OB). Har bir sintaktik kategoriya (guruh) o‘z dominantasi (bosh / hokim so‘z)ga ega. Bosh so‘z qaysi so‘z turkumiga oid bo‘lsa, sintaktik bog‘lanish o‘sha turkumga mansub kategoriya kiradi. Jumladan, FB dominantasi fe’l, OtB dominantasi ot, SB dominantasi sifat, SonB dominantasi son, RB dominantasi ravish, OB dominantasi olmoshdir. Guruhlardagi so‘zlarning bog‘lanishi va o‘zaro munosabatlari modellashtirildi va an’anaviy tilshunoslikka asosan bitishuvli, moslashuvli hamda boshqaruqli birikmalar tarzida bazasi yaratildi.

Bitishuv yo‘li bilan bog‘langan so‘z birikmalari hech qanday grammatik ko‘rsatkichlarsiz birikkanligi bilan ajralib tursa (*ikki do’st, tez yurmoq*), moslashuvda hokim va tobe so‘zlarning qaratqich va qaralmish munosabatlariga asoslaniladi (*mening kitobim, yoshlik zavqi*). Boshqaruvela tobe so‘z hokim so‘zga muayyan kelishik yoki ko‘makchi vositasida bog‘lanadi (*do’sti haqida suhbatlashmoq, uydan baland*). Tobe so‘zning kelishik affikslari bilan birikib kelishi maxsus lug‘atlarda aks etsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Bitishuvda birikkan so‘zlarning o‘zaro aloqasi tartib va ohang bilan belgilanadi, ya’ni Y + X (tobe so‘z + hokim so‘z).

Quyida bitishuv yo‘li bilan bog‘lanish modeli berildi:  
 turdosh ot – N<sub>com</sub>, fe’l – V, sifat – Adj, son – Num, ravish – Adv,  
 olmosh – Pron.

<b>Nº</b>	<b>Bitishuvli birikmalar modeli</b>	<b>misollar</b>
1.	N <sub>com</sub> + N <sub>com</sub>	<i>tilla uzuk, ijodkor talaba</i>
2.	N <sub>dagi</sub> + N <sub>com</sub>	<i>ishdagagi shijoat, xodimdagagi mas’uliyat</i>
3.	N <sub>dagi</sub> + Num	<i>qarordagi sakkiz..., ilovadagi uchinchi jadval</i>
4.	Adv <sub>dagi</sub> + N <sub>com</sub>	<i>quyidagi misollar, yuqoridagi fikrlar</i>
5.	Num + N <sub>com</sub>	<i>ikkita shartnoma, to ‘rt kafedra</i>
6.	Pron + N <sub>com</sub>	<i>barcha ish, qanday tajriba</i>
7.	Adj + N <sub>com</sub>	<i>mas’uliyatli xodim, obod mahalla</i>
8.	Adv + N <sub>com</sub>	<i>ko ‘p ish, yakkama-yakka jang, to ‘xtovsiz kurash</i>
9.	Vh + N <sub>com</sub>	<i>taqdirlash kuni, nishonlash kuni</i>
10.	N <sub>day/dek</sub> + Adj	<i>kundek ravshan, paxtadek momiq</i>
11.	Vs + Adj	<i>(ta ’lim) olayotgan talabalar, fidoyi yoshlar, tuzalgan bemor</i>
12.	Adj + V	<i>to ‘g’ri so ‘zlamoq, yaxshi bormoq</i>
13.	Adv + V	<i>eskicha qarash, o ‘z-o ‘zidan gapirmoq, yangicha yondashuv</i>
14	Vr + V	<i>bilib-bilmay gapirmoq, yakunlanguncha ulgurish</i>

**Qoida:** qaratqich kelishigidagi tobe so‘zning egalik affiksini olgan hokim so‘zga birikib (qaratqich + qaralmish) kelishi moslashuv hisoblanadi: *yurtimning jamoli, hokimning buyrug‘i, xodimning tushuntirish xati* va v.h.

Rasmiy matnlarda uchragan tobe so‘zshaklda qaratqich kelishigi, hokim so‘zshaklda egalik affiksining ifodalaniishi quyidagi modelda berildi:

- 1) Y<sub>ning</sub> + X<sub>egalik aff.</sub>: *boshliqning xonasi, talabaning yotoqxonasi*;
- 2) Y<sub>0</sub> + X<sub>egalik aff.</sub>: *mustaqillik bayrami, Konstitutsiya kuni*;
- 3) Y<sub>ning</sub> + X<sub>0</sub>: *bizning Vatan, bizning yurt*.

**Qoida:** tobe so‘z tarkibidagi qaratqich kelishigi quyidagi hollarda doimo qo‘llaniladi: a) tobe so‘z va hokim so‘z o‘rtasida boshqa so‘z kelsa, ya’ni Y<sub>ning</sub> + L + X<sub>egalik aff.</sub>: *mudirning xizmat safari, qarorning ikkinchi bandi* va h.k.

b) tobe so‘z atoqli ot yoki olmosh bilan ifodalanganda, ya’ni N<sub>prop</sub> + X<sub>egalik aff.</sub> va Pron + X<sub>egalik aff.</sub>: *Ahmadning ishi, uning imzosi* va h.k.

Qaratqich va qaralmish munosabatida tobe so‘z o‘rnida turli mustaqil so‘z tarkumlari kelishi mumkin. Tadqiqot davomida rasmiy va ilmiy matnlarda uchragan moslashuvli birikmalar modeli yaratildi:

<b>Nº</b>	<b>Moslashuvli birikmalar modeli</b>	<b>misollar</b>
1.	$N_{com-ning} + N_{com-egalik} \text{ aff.}$	<i>qarorning bandi, buyruqning ijrosi</i>
2.	$N_{com-ning} + Adj_{egalik} \text{ aff}$	<i>ishning kattasi, muqovaning yupqasi</i>
3.	$N_{com-ning} + Num_{egalik} \text{ aff}$	<i>stolning bittasi, hujjatning ikkitasi</i>
4.	$Adj_{ning} + N_{com-egalik} \text{ aff.}$	<i>kattaning o‘rni, kichikning hurmati</i>
5.	$Adj_{ning} + Adj_{egalik} \text{ aff.}$	<i>kattaning olasi</i>
6.	$Num_{ning} + Num_{egalik} \text{ aff}$	<i>beshning yarmi, ikkitaning biri</i>
7.	$N_{com-ning} + Vh_{egalik} \text{ aff}$ (Vh – harakat nomi)	<i>rektorning qaytishi, mavzuning yoritilishi, ijroning kechiktirilishi</i>
8.	$Vh_{ning} + N_{com-egalik} \text{ aff.}$	<i>izlanish(ning) vaqt, yiqilishning oqibati</i>
9.	$Vh_{ning} + Vh_{egalik} \text{ aff.}$	<i>olmoqning bermog ‘i</i>
10.	$N_{com-ning} + V_{Segalik} \text{ aff}$ (Vs – sifatdosh)	<i>olimning izlangani, vaqtning o‘tgani</i>
11.	$Vs_{ning} + N_{com-egalik} \text{ aff.}$	<i>o‘qiganning tafakkuri, so‘raganning aybi</i>
12.	$Vs_{ning} + Pron_{egalik} \text{ aff.}$	<i>aytilganlarning hammasi</i>
13.	$N_{com-ning} + Adv_{egalik} \text{ aff.}$	<i>ishning ko‘pi, so‘zning kami</i>
14.	$Adv_{ning} + Adv_{egalik} \text{ aff.}$	<i>bugunning ertasi</i>
15.	$Pron_{ning} + N_{com-egalik} \text{ aff.}$	<i>mening yurtim, uning vazifasi</i>
16.	$Adv_{ning} + N_{com-egalik} \text{ aff.}$	<i>hozirning huzuri, kechaning intiqomi</i>

Tobe so‘zning hokim so‘zga tushum, jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishigi affikslari yoki ko‘makchilar yordamida bog‘lanishi boshqaruv hisoblanadi: *o‘zgalarni hurmat qilmoq, hujjatlarni rasmiylashtirmoq, vaziyatdan chiqmoq, tinchlik uchun harakat* va h.k.

Nutqda leksemaning mohiyati hech qachon to‘la-to‘kis voqelanmaganligi kabi sintagmatik imkoniyatning ham faqat zaruri voqelikka aylanadi<sup>128</sup>. Boshqaruvli birikmalarda modellar miqdorining oshib borishi e’tiborga olinib, bunday birikmalarni quyidagi umumiy model orqali ifodalash maqsadga muvofiq:

<sup>128</sup> Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va boshq. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – B. 90.

$\left. \begin{array}{c} N_{com} \\ Adj \\ Num \\ Pron \\ Vh \end{array} \right\} + -ni + V$	$\left. \begin{array}{c} N_{com} \\ Adj \\ Num \\ Adj \\ Vh \end{array} \right\} + -ga+V$	$\left. \begin{array}{c} Num \\ N \\ Pron \\ Vh \end{array} \right\}$	$\left. \begin{array}{c} N_{com} \\ Adj \\ Num \\ Pron \\ Vh \end{array} \right\} + -da+$	$\left. \begin{array}{c} Num \\ N \\ V \\ Adj \\ Vh \end{array} \right\}$
--	---	---	---	---

$\left. \begin{array}{c} N \\ Adj \\ Num \\ Pron \\ Vh \end{array} \right\} + -dan +$	$\left. \begin{array}{c} Num \\ N \\ V \\ Adj \\ Vh \\ Adv \end{array} \right\}$	$\left. \begin{array}{c} N \\ Adj \\ Num \\ Pron \\ Vh \end{array} \right\} + (kel.aff) + ko'makchi +$	$\left. \begin{array}{c} N \\ V \end{array} \right\}$
---	--	--	---

Quyida boshqaruvli birikmalar modellariga misollar keltirildi:

<b>Nº</b>	<b>Boshqaruvli birikmalar modeli</b>	<b>misollar</b>
1	$N_{com}-ni + V$	<i>arizani yozmoq, murojaatni ko'rib chiqmoq</i>
2	$Adj_{ni} + V$	<i>qizilini tanlamoq</i>
3	$Num_{ni} + V$	<i>uchni to'ldirmoq, ikkisini birlashtirmoq</i>
4	$Pron_{ni(dir)} + V$	<i>hammani sog'inmoq, kimnidir ko'rmoq</i>
5	$Vh_{ni} + V (Vh)$	<i>o'qishni boshlamoq, yozishni o'rgatish</i>
6	$Vh_{ga} + V$	<i>terishga ketmoq</i>
7	$N_{com-ga} + V$	<i>maqsadga o'tmoq</i>
8	$Adj_{ga} + V$	<i>balandga ko'tarilmoq, oqqa ko'chirmoq</i>
9	$Num_{ga} + V$	<i>birga kirmoq, beshga o'tmoq</i>
10	$Pron_{(lar)ga(dir)} + V (Vh)$	<i>hammadan so'ramoq, kimgadir ko'maklashish</i>
11	$Vh_{ga} + V$	<i>ta'lim olishga ko'maklashish</i>
12	$N_{com-da} + V$	<i>uyda o'trimoq, idorada ishlamoq</i>
13	$Num_{da} + V$	<i>sakkizda kelmoq, to'rtda ketmoq</i>
14	$Pron_{da} + V$	<i>unda tajriba o'tkazmoq</i>
15	$Vh_{da} + V$	<i>(mutolaa) qilishda faollashmoq</i>
16	$N_{com-dan} + Vh$	<i>fikrdan voz kechish, moziyga qaytish</i>
17	$Adj_{dan} + V (Vh)$	<i>sarig'idan olmoq</i>
18	$Num_{dan} + V$	<i>ikkisidan qolishmasdan</i>
19	$Pron_{dan(dir)} + V$	<i>kimdandir so'rash</i>
20	$Vh_{dan} + V$	<i>harakatlanishdan to'xtamoq</i>
21	$Vr + V$	<i>shoshib so'zlamoq</i>
22	$N_{com(egalik aff.)} + Ko'm.(ko'makchi)+N_{com}$	<i>xalq bilan muloqot</i>
23	$N_{com(egalik aff.)}+Ko'm.(ko'makchi)+ N_{com}$	<i>onam uchun sovg'a</i>

24	Pron + Ko‘m.(ko‘makchi) + Adj	<i>men uchun aziz</i>
25	N <sub>com-dan</sub> + Adj	<i>otdan baland, oydan go‘zal, temirdan qattiq</i>
26	N <sub>dan-da</sub> + Adj	<i>kundan-da go‘zal</i>
27	Adj <sub>-dan</sub> + Adj	<i>shirindan shirin</i>
28	Num <sub>dan</sub> + Num	<i>beshdan ikki</i>
29	Num <sub>ga</sub> + Num	<i>uchga uch</i>
30	N <sub>com-qa</sub> + N <sub>com</sub>	<i>xalqqa murojaat</i>
31	N <sub>com-ga</sub> +	<i>oqimga qarshi</i>
32	Vh + N <sub>com</sub>	<i>nuragan uy</i>
33	N <sub>com-dek</sub> + N <sub>com</sub>	<i>farishtadek odam</i>
34	Pron.-dan + Adv	<i>hammadan o‘zgacha</i>
35	Pron.-dan + Adj	<i>hammadan chiroyli</i>
		va h.k.

Aslida kompyuter lingvistikasida so‘zlarning birikishida grammatik vositalarning mavjudligi bo‘yicha so‘z birikmalari modellarini quyidagi ikki guruhda yaxlitlash maqsadga muvofiq:

1)grammatik vositali so‘z birikmalari: *buyruqning ijrosi, ish bilan band bo‘lmoq, birdan gapirmoq*;

2)grammatik vositasiz so‘z birikmalari: *katta auditoriya, kichik ilmiy xodim*.

Umuman olganda, so‘z birikmalari modellari bizga 2 maqsadda kerak:

1) N-grammali so‘zlar birikmasini tahlil qilish;

2) Omonimshakllarning lingvo-tahlil texnologiyasini amalga oshirish.

Kelajakda avtomatik tahlil qilish ehtiyojlari uchun maxsus moslashtirilgan lug‘atlar yaratilishi lozim. Masalan, so‘z birikmalari lug‘ati, juft so‘zlar va qo‘shma so‘zlar lug‘ati.

## 2.7. Gaplarning sintaktik tuzilishini avtomatik tahlil qilish algoritmi tavsifi

Har bir tilning sintaktik analizatori (parser) o‘sha til tabiatiga va qonuniyatlariga binoan yaratiladi. Parser ishi so‘zlar kategoriyasi (turkumlar) ma’lumotlari bazasiga asoslanadi va asosiy vazifasi ayrim tillarda jumlada gap bo‘laklarini aniqlash (mas., rus tilida) hisoblansa, muayyan tillarda, masalan, ingliz tilida N.Xomskiy nazariyasiga asosan otli guruh va fe’lli guruh tarzida generativ tahlil qilinadi. Gap tarkibini bevosita va bilvosita guruhlarga ajratish yuqoridagi bo‘limda ko‘rsatib berildi, mazkur bo‘limda jumla tuzilishi gap bo‘laklari bilan tushuntiriladi.

Ikki holatda ham bazada tildagi har bir so‘zning o‘z turkumligi aniqlanishi zarur sanaladi.

Ma’lumki, an’anaviy tilshunoslikda gap deb, biror voqea-hodisa haqidagi xabar, so‘roq yoki buyruqni ifodalovchi asosiy sintaktik butunlikka aytildi. Ammo har bir belgi hisobga olinishi va belgilarning tegga birlashtirilishi inobatga olinib, lingvistik ta’midotda gap quyidagicha qoidalashtirildi:

**Qoida:** sintaktik analizatorda gap (jumla) deb, ikki ko‘rsatkich (tinish belgilari) orasida joylashgan matnning qismiga aytildi. Bu ko‘rsatkichlar quyidagilar: *nuqta / undov belgisi / so‘roq belgisi + bo‘shliq va nuqta / undov belgisi / so‘roq belgisi*.

Sxemasi:

[ ./ ! / ? ] + [ probel ] [ ./ ! / ? ]

Misol:

[ ./ ! / ? ] + [ probel ] *Suvni tejab ishlatish lozim.*

[ ./ ! / ? ] + [ probel ] *Hurmatli musobaqa ishtirokchilari[./!/?]*

Sintaktik tahlil jarayoni MT bosqichi so‘zning morfologik xarakteristikasi va uning gap bo‘lagi vazifasini aniqlashi bilan boshlanadi. So‘ngra joriy “so‘zlar kategoriyalari” (SK) haqidagi farazlarning shakllanishi boshlanadi. Har qanday SBK quyidagi tarzda ifodalanishi mumkin:

XG = (x; G) – SK nomi, x – dominanta (hokim), YG unga tobe. qiymatlari Y = 0 bo‘lishi mumkin, bu yerda 0 bo‘sh qiymat bo‘ladi.

Nazariy jihatdan YGning tarkibiy qismlarga bo‘linishi cheksiz bo‘lishi mumkin. Buni rus tilidagi jumla orqali ko‘rib chiqamiz:

1[ком, 2[который пугает и ловит синицу, 3[которая часто  
ворует пищеницу, 4[которая 5[в тёмном чулане]5 хранится 6[в доме,  
7[который построил (Джек)]1]2]3]4]5]<sup>129</sup>

Keyingi bosqichda SK ta’moti bo‘yicha tahlil qilinayotgan so‘zshakllar kirishi mumkin bo‘lgan SK turlari aniqlanadi. Bu SKning kontekstdagi so‘zning morfologik xossalari bo‘yicha tekshirilishi bilan hal etiladi.

SK bilan bog‘liq farazlarni shakllantirgandan keyin analizator keyingi so‘zshaklni izlash va tahlil qilishga o‘tadi. Shuningdek, analogiya metodi<sup>130</sup> bilan dominanta va unga bog‘liq so‘zlar qidiriladi. XG = (x; YG )

<sup>129</sup> Маршак С. Дом, который построил Джек. <https://www.culture.ru/poems/42755/dom-kotoryi-postroil-dzhek>


<sup>130</sup> Analogiya (yunoncha so‘z bo‘lib, “moslik”, “o‘xshashlik” ma’nosini anglatadi) munosabatlarning tengligi, muvofiqligi; hodisa va jarayonlarning muayyan xossalari qiyoslash yo‘li bilan anglashda o‘xshash jihatlarini e’tiborga olish, shuningdek, obyektlar orasidagi

modeli bo‘yicha qurilgan jumlalar ikki guruhga bo‘linadi: ega guruhi (EG) va kesim guruhi (KG). Bundan tashqari, agar A so‘zshakl bosh kelishikdagi ot bo‘lsa uning dominantasi bo‘lmaydi va u ega hisoblanadi. Agar V so‘zshakl harakat nomi shaklidagi fe'l bo‘lsa u holda uning dominantasi bo‘lmaydi va ega bilan shaxs-sonda moslashgan kesim sifatida qabul qilinadi.

ST jumladagi barcha so‘zshakllar bir-biri bilan bog‘langunga qadar davom etadi. Gap strukturasi tarkibidagi ishtirokchilarni aniqlashning bunday jarayoniga bevosita ishtirokchilarga ajratish metodi deb yuritiladi. Bevosita ishtirokchilarga ajratish sintaktik sath birliklaridan boshlanib, morfologiya, morfemika, fonologiya sathlarigacha davom ettiriladi. Ma’lum bo‘ladiki, parsing, ya’ni sintaktik analizatorda morfologik tahlil moduli muhim ahamiyat kasb etadi.

*Sintaktik tahlil qilish bosqichi algoritmi.* Xorij kompyuter lingvistikasida morfologik va sintaktik tahlil borasida ko‘plab izlanishlar olib borilgan. Bunda, asosan, EHM mutaxassislari tadqiqotlari diqqatga sazovordir.


A.Leonteva va I.Kagirovlar tomonidan analizator dasturi blok-sxemasi quyidagicha berilgan<sup>131</sup>:



o‘xshashlik munosabatlari, o‘xshashlik bilan mulohaza yuritish, bir hodisaning xususiyatlarini boshqa hodisa yoki jarayon o‘xshashligi bilan tadqiq etish demakdir. Masalan, ingliz tilida *-er*, *-ness*, *-dom* kabi, rus tilida *-ность*, *-щик*, *-ник* kabi, o‘zbek tilida *-shunos*, *-chi*, *-lik* qo‘srimchalarga ega bo‘lgan so‘zlar yuqori ehtimollik bilan ot so‘z turkumi hisoblanadi.

<sup>131</sup> Леонтьева А., Кагиров И. Автоматический синтаксический анализ русских текстов // Труды 10-й Всероссийской научной конференции «Электронные библиотеки: перспективные методы и технологии, электронные коллекции» – RCDL’2008, Дубна, Россия, 2008. – С. 399.


O‘zbek tilidagi matnlarni analiz va sintez qilish dasturi blok-sxemasi tubandagicha berildi:



Yuqorida aytilganidek, kirish ma’umotlari sodda gaplar ro‘yxatidan iborat bo‘ladi. Vazifalarni taqsimlovchi bu ma’umotlarni sintaktik tahlil qismiga o‘tkazadi. Bu qismda gap so‘zma-so‘z tahlil qilinadi. Joriy so‘zshakl morfologik tahlil bosqichiga uzatiladi,<sup>132</sup> unda so‘zshaklga mos keluvchi barcha lemma (asos) ko‘rinishlari va grammatik ko‘rsatkichlar tanlanadi, har bir gap so‘zma-so‘z tekshiriladi, shundan so‘ng so‘zshakl MTga uzatiladi. Natijada muayyan so‘zshaklga asos bo‘ladigan barcha asos va mos keladigan grammatik ko‘rsatkichlar aniqlanadi. Agar so‘zshaklga faqat bitta asos mos kelsa, unda u farazlarni yaratish jarayoniga kiradi. So‘z turkumlari va grammatik ko‘rsatkichlarga qarab tegishli sintaktik guruhlar ajratiladi. Dastlabki sintaktik ishlovdan so‘ng so‘zshakl farazlarni ishlab chiqish qismiga o‘tkaziladi. Bu qism asosiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Unga kirish tarzida so‘zshakl qabul qilinadi. Agar u gapda birinchi so‘z bo‘lsa, u holda so‘z turkumlariga muvofiq sintaktik guruh aniqlanadi. So‘z turkumlariga bog‘liq ravishda guruhlar birlashtirilishi yoxud variantlar ham yaratilishi mumkin. Masalan, kiritilgan so‘z ot bo‘lsa, unda gapdagi birinchi guruh otli guruh hisoblanadi. Bunday vaziyatda guruhning tartib raqami xotirada saqlanadi va keyingi so‘z qayta ishlanadi. Agar gapdagi birinchi so‘z ravish bo‘lsa u holda bu so‘z ham sifat guruhiga, ham kesim guruhiga tegishli bo‘lishi mumkin. Bunday vaziyatda guruhni aniqlashtirish uchun navbatdagi so‘z talab qilinadi.

<sup>132</sup> Kagirov I.A., Leontyeva An.B. Grammar-Based Speech- and Word-splitting // Proceedings of 3<sup>rd</sup> Language & Technology Conference. October 5-7, Poznac, Poland. Poznac: Fundacja Uniwersytetu im. A. Mickiewicza, 2007. 578 s. – P. 413-417.

Gapdagi ikkinchi so‘zdan boshlab muayyan so‘zning qaysi turkumga xosligi emas, balki ayni damda ajratilgan guruh yoki guruhlar haqidagi ma’lumotlar muhim o‘rin egallaydi. Kirishda so‘zshakl joriy sintaktik guruhga tegishli bo‘lishi yoki boshqa sintaktik guruhga kirishi ham mumkin. Bunda qo‘sishimcha faraz paydo bo‘ladi va ikkala variant ham ko‘rib chiqiladi. Nihoyat gap formal grammatika asosida ega guruhi va kesim guruhiga ajratiladi (bevosita ishtirokchilarga ajratish metodi).



Ta’kidlash joizki, bir guruh, masalan, ot guruhi o‘z tarkibiga boshqa guruhlarni ham olishi mumkin, bunda guruhlarda so‘zlarni tanlash jarayoni indeks shaklida saqlanib qoladi. Shunday qilib, morfologik va sintaktik noaniqliklar tufayli muayyan gap uchun bir qancha farazlarni tuzish mumkin.<sup>133</sup> Shundan so‘ng ushbu farazlar algoritm blok-sxemasining noto‘g‘ri farazlarni tekshirish blokiga o‘tadi. Mazkur blokda ikki bosqichli tekshirish mavjud: birinchi bosqichda bir gapdagi sintaktik guruhlar mosligi tekshiriladi. Bunday moslik guruh dominantasining grammatik xususiyatlaridan kelib chiqib aniqlanadi. Chiqish fayli o‘zida tarkibi sintaktik guruhlarga bo‘lingan gaplar ro‘yxatini namoyon qiladi. Agar gapda lug‘atga kirmagan so‘z bo‘lsa u holda ushbu so‘z tahlil qilinmaydi.

## IKKINCHI BOB BO‘YICHA XULOSA

1. Axborot asriga kelib avtomatik matn tahriri va tahlili jahon tilshunosligining shiddat bilan rivojlanayotgan sohasiga, shunday vazifaga ega dasturning o‘zi esa beqiyos zamonaviy ish quroliga aylandi.
2. Model til haqidagi bilimlarni obyektiv ifodalash vositasi bo‘lganligi bois lingvistik hodisalarni modellashtirish KLda eng samarali usul hisoblanadi. Boshqa tarafdan, o‘zbek tili ilmiy va rasmiy uslubdagi

<sup>133</sup> Попов Э.В. Общение с ЭВМ на естественном языке. – Москва: Эдиториал УРСС, 2004. – С. 260.; Mel’chuk I. A. Dependency syntax: Theory and practice. – Albany, NY: SUNY Press, 1988. – P. 428.

matnlar tahliliga tayangan holda matnlarda uchraydigan sintaktik bog‘lanishlar quyidagicha kategoriyalashtirildi: fe’lli birikmalar (FB), otli birikmalar (OtB), sifatli birikmalar (SB), sonli birikmalar (SonB), ravishli birikmalar (RB), olmoshli birikmalar (OB). Har bir sintaktik kategoriya (guruh) o‘z dominantasi (bosh so‘z)ga ega. Dominanta so‘z qaysi so‘z turkumiga oid bo‘lsa, sintaktik bog‘lanish o‘sha turkumga mansub kategoriya kiradi. Jumladan, FB dominantasi fe’l, OtB dominantasi ot, SB dominantasi sifat, SonB dominantasi son, RB dominantasi ravish, OB dominantasi olmoshdir. Guruhlardagi so‘zlarning bog‘lanishi va o‘zaro munosabatlari bitishuvli, moslashuvli va boshqaruvli birikmalar modellari orqali amalga oshiriladi.

3. Lingvistik protsessorni yaratishda lingvistik modulning o‘rni va ahamiyati o‘ta muhim. Shu bois o‘zbek kompyuter lingvistikasida matnlarga ishlov beruvchi lingvistik dasturlarga mukammal modullarning yaratilishi muayyan maqsad yo‘lida tayyor lingvistik mahsulotning yuzaga kelishiga zamin yaratadi. O‘zbek tiliga oid matn tahlili jarayonida modullar quyidagilarni amalga oshirish mumkin: 1) leksik-morfologik – so‘zshakldan uning leksik-grammatik xususiyatlariga o‘tish; 2) sintaktik jumlalarni ifodalovchi leksik va grammatik xususiyatlar zanjiridan uning sintaktik tuzilishiga o‘tish; 3) semantik – sintaktik tahlil qilingan lingvistik birlikdan semantik ishlovga o‘tish. Umuman, matnlarni tahrir va tahlil qiluvchi dasturning mukammal bo‘lishi uchun quyidagi lingvistik modullar ishlab chiqilishi lozim: 1) grafematik tahrir modullari; 2) morfologik tahlil modullari (morfoanalizator); 3) sintaktik tahlil modullari (sintaktik analizator); 4) semantik tahlil modullari.

4. Bugungi kunda lingvistik tadqiqot va amaliy topshiriqlar yechimi uchun til korpuslari zamonaviy tilshunoslikning inkor etib bo‘lmas ish quroliga aylandi, chunki korpus turli lingvistik topshiriqlarni yechishga xizmat qiladi. Korpus muayyan elektron manbaga leksik, morfologik, grammatik, semantik belgilar asosida ishlov berilganligi sababli lingvistik tadqiqotlarda foydalanish uchun juda qulay imkoniyatni beradi.

5. Dastlabki joriylanishda rasmiy-idoraviy va ilmiy uslubdagagi matnlarni tahrir va tahlil qilishga mo‘ljallangan lingvo-sistemaning mukammal ishlashi va natijasi samarali bo‘lishi uchun mazkur sistema grafematik, morfologik va sintaktik tahlil bosqichlariga ajratilib, modullashtirilishi maqsadga muvofiq. Grafematik bosqichda tahriri amalga oshiriladigan birliklarning belgilab olinishi tahrir aniqligini ta’minlaydi. Morfologik tahlil prinsiplari ot turkumi misolida yoritib berilishi boshqa turkum modullarini tuzish tamoyillarini yaratishga zamin

bo‘ladi. Sintaktik tahlil jarayonida gap miqdori cheksiz va u individual tuzilishi yoxud qo‘llanilishga bog‘liq bo‘lgani sababli STda nisbatan kichik birlik hisoblanmish so‘z birikmalariga tayanilgan ma’qul, ya’ni, MT modullarini yaratish jarayonida barcha leksemalar so‘z turkumlariga ajratilganiga asoslanib, so‘zlarning bog‘lanish yo‘llari modellashtiriladi va “so‘z birikmalari kategoriyasi” yaratiladi. So‘z birikmalari kategoriyasi (SBK) bir modulga ega bo‘lgan so‘z birikmalari guruhidir, ya’ni so‘zlararo sintaktik bog‘lanishning yagona moduli beriladi, jumladagi sintaktik bog‘lanishlar mavjud modullarga tayanib mantiqiy tahlil qilinadi. Sintaktik tahlilda, asosan, so‘zlarning bog‘lanishi tahlil qilinadi. Gap tahlili esa gap bo‘laklarini topishda muhim sanaladi. Sintaktik tahlil qilish modulini yaratish turli amaliy maqsadlarga erishish uchun til tizimini formallashtirishda yuqori sifatli natijalarni qo‘lga kiritish imkonini beradi.

6. Dunyo kompyuter lingvistikasida omonimlikni aniqlash usullari o‘rganilganida, bu xususdagi tajribadan foydalanib o‘zbekcha matnlardagi so‘zshakllarning tegishli tekshirish formulasi yaratildi. Omonimlikni bartaraf etish uchun har bir so‘zni “tasniflash” kerak, ya’ni uni lemma va morfologik xususiyatlar majmui bilan taqqoslash mumkin, ular qulaylik uchun bir tegga qo‘shiladi. Barcha mumkin bo‘lgan teglarni o‘rganish uchun morfologik lug‘atdagi so‘zlarga tegishli havolalarni topish yoki MyStem kabi morfologik analizatorni ishlatish yetarli bo‘lib, u so‘z teglarini topishda yordam beradi. Shundan so‘ng bir nechta teglar orasidan faqat tegishli tegni tanlash kerak bo‘ladi.

7. Omonim so‘zshakllarni tahlil qilishda qo‘llanilgan texnologiya o‘zbek tilidagi matnlarda uchraydigan omonimshakllarni korpusga bog‘liq bo‘lmagan ravishda tahlil qiluvchi optimal lingvistik usul hisoblanadi.

### **III BOB. SO‘Z TURKUMLARI MODULLARI**

#### **3.1. Mustaqil so‘z turkumlari moduli**

So‘z turkumlari til va nutq dixotomiyasining asosiy birligi hamda olamning semiotik tizimi bo‘lmish tildagi lisoniy aksi bo‘lgan so‘zlarning asosiy sinflari (guruhlari, razryadlari) bo‘lib, ular: a) umumiy abstrakt, kategorial (leksik) ma’noning mavjudligi; b) turkumga xos bo‘lgan ma’lum grammatik kategoriylar tizimining mavjudligi; v) ma’lum sintaktik vazifa(lar)ga xoslanganlikning mavjudligi; g) so‘z va so‘zshakl yasashning maxsus tur va usullarining mavjudligiga ko‘ra turkumlarga ajraladi. Har qanday mustaqil ma’noli so‘z turkumlari tarkibiga kiruvchi so‘zlar, agar ular yasama so‘zlar bo‘lsa, morfemalardan iborat bo‘lishi lozim. Morfemalar esa ikki xil bo‘ladi:

I. O‘zak morfema – so‘zning tub (atash) ma’nosini bildirib, mustaqil qo‘llanadi. Masalan: *savat*, *kitob*, *daftar*, *chizg‘ich* va h.k.

II. Affiksal morfema – o‘zakka (asosga) qo‘silib, turli ma’nolarni ifodalaydi, so‘zlarni bog‘lash uchun xizmat qiladi.

Affiksal morfema (keyingi o‘rinlarda *affiks*)lar vazifasi va so‘zga qo‘silib anglatadigan ma’nosiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi:

1. So‘z yasovchi affikslar – asosga qo‘silib, asosdan o‘sib chiquvchi yangi ma’noli so‘z yasaydi: *kitob* – *kitobxon*, *kuch* – *kuchli*, *ma’no* – *ma’nosiz*, *davlat* – *nodavlat*, *ek* – *ekin*, *iste’mol* – *iste’molchi* kabi.

2. Shakl yasovchi affikslar. Vazifasi va ma’nolariga ko‘ra ikki guruuhga bo‘linadi:

a) lug‘aviy shakl yasovchi affikslar asosga qo‘silib, ma’noni bir oz o‘zgartiradi. Ular sirasiga quyidagi affikslar kiradi:


- qarashlilik affiksi: *-niki*;
- o‘rin-joy oti affiksi: *-dagi*;
- chegaralash affiksi: *-gacha*;
- ko‘plik affiksi: *-lar*;
- sifat darajasi affikslari: *-roq*; *-ish*, *-sh*; *-imtir*, *-mtir*;
- fe’lning vazifadosh shakllari affikslari, nisbat va mayl affikslari: *-v*, *-uv*, *-moq*, *-mak*; *-sh*, *-ish*; *-r*, *ar*, *-gan*, *-kan*, *-qan*; *-adigan*, *ayotgan*; *-b*, *-ib*, *-a*, *-y*, *-gach*, *-kach*, *-qach*, *-guncha*, *-kuncha*, *-quncha*, *-gancha*, *-kancha*, *-qancha*; *-gani*, *-kani*, *-qani*;
- affiksli yuklamalar: *-mi*, *-chi*, *-gina*, *-kina*, *-qina*, *-dir*, *-u*, *-yu*, *-da*, *-a*, *-ya*, *-mish*, *-ov*, *-yov*, *-mikan*;
- inkor shaklni yasovchi affiks: *-mas*, *-siz*;
- o‘xshatish-solishtirish affiksi: *-chalik*, *dek*, *-day*;

b) sintaktik shakl yasovchi affikslar so‘zlarni bir-biriga bog‘lashda xizmat qiladi. Bularga kelishik, egalik, shaxs-son affikslari kiradi.

Matnni ATT qiluvchi dasturning algoritmini tuzishda yuqorida keltirilgan shakl yasovchi affikslarning har biriga ma’lum belgi qo‘yish talab qilinadi. Ramzga ega affikslar Ai va Ei orqali ifodalandi:

<b>Ai</b>	<b>Belgi izohi</b>	<b>Ramzi</b>	<b>Lemma turkumi</b>
A1	ko‘plik affiksi	k_a	Ism asosli shakllar
A2	egalik affiksi	e_a	
A3	kelishik affiksi	ke_a	
A5	o‘rin-joy ot affiksi	õ_j	
A6	qarashlilik affiksi	q_a	
A7	chegaralash affiksi	ch_a	
A8	sifat darajasi affikslari	Adj_a	
A9	affiksli yuklamalar	aff.Part	
A10	inkor shaklni hosil qiluvchi aff.	[inkor]	
A11	ajratish (-gina)	aj_a	
A12	tegishlilik (-ligi)	teg_a	
A13	o‘xshatish, solishtirish (-chalik, -day, -dek)	õx_a	
E1	fe’lning vazifadosh shakllari affikslari	V <sub>i</sub>	Fe’l asosli shakllar
E2	nisbat affikslari	x	
E3	shaxs-son affikslari	y	
E4	zamon affikslari	z	
E5	mayl affikslari	m	

Dasturning LT wordform\_set\_coord maydonida so‘z turkumlarining grammatik shakllanish tartibi berildi:



Matnli manbalar ustida kompyuter orqali ishlash bilan bog‘liq ko‘pgina muammolarni hal qilishda jumlalar tuzilishi haqida aniq va batafsil ma’lumot talab qilinadi. Ushbu ma’lumotlar mashina tarjimasi sistemasini yaratish, intellektual (semantik) axborot qidiruvini shakllantirish, to‘g‘ri va xolis ma’lumotlarni (data mining) uzatish va fikrlarni yig‘ishda (opinion mining), matnlarni avtomatik tasniflash hamda avtomatik tahlil sistemasini yaratishda muhim sanaladi. Jahon KLda mazkur ma’lumotlar matnlarni avtomatlashirilgan tarzda tushunish (NLU) bilan bog‘liq sistemalarni yaratish orqali hal etib kelinmoqda. Bu jarayonda *qidalarga asoslangan usullar* (rule-based methods) – til grammatikasi va semantikasining matematik formallashtirilishi, *statistik metodlar* (statistical methods), *mashinali o‘qitish* (machine-learning: matnlar to‘plamining sintaktik hodisalari belgilanishiga asoslaniladi) kabi bir necha usullar qo‘llaniladi<sup>134</sup>. Jumladan, ATT dasturi morfologik va sintaktik modullarini yaratishda qidalarga asoslangan usuldan foydalanish

<sup>134</sup> Добров В.А. Прикладная и компьютерная лингвистика // Николаев И. С., Митренина О. В., Ландо Т. М. (Ред.). – Москва: URSS, 2016. – 320 с.

va affikslar bilan bog‘liq statistik ma’lumotlarning o‘rganilishi ish samarodligini oshiradi.

### 3.1.1. Ot turkumini formallashtirish moduli

Matnni morfologik tahlil qilish prinsiplari tadqiqotning 2.3-bandida berildi. Shunga binoan avval o‘zbek adabiy tilining imlo lug‘atida mavjud so‘zlarning keng iste’moldagilari ajratib olindi. Galdagi vazifa komyuterli lug‘atdagi so‘zlarni turkumlarga ajratib chiqishdan iborat. Olti mustaqil so‘z turkumi (ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe’l), uch yordamchi so‘z turkumi (bog‘lovchi, ko‘makchi, yuklama), alohida olingan so‘zlar turkumi (modal, taqlid, undov so‘zlar), so‘z-gaplar va aniq bir turkumga kiritilmagan so‘zlar guruhi ajratiladi. Bunda so‘zlarning unli yoki undosh bilan tugallanganligi e’tiborga olinadi. Chunki affikslarning so‘zlarga birikib kelish varianti so‘z oxiridagi tovushga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, *uka* va *uy* so‘zlari quyidagicha egalik affikslarini oladi:

<del>soni shaxsi</del>	birlik	ko‘plik	birlik	ko‘plik
I	uka+ <i>m</i>	uka+ <i>miz</i>	uy+ <i>im</i>	uy+ <i>imiz</i>
II	uka+ <i>ng</i>	uka+ <i>ngiz</i>	uy+ <i>ing</i>	uy+ <i>ingiz</i>
III	uka+ <i>si</i>	uka+ <i>lari</i>	uy+ <i>i</i>	uy+ <i>lari</i>

Ishni bajarish, ya’ni matnni ATTini amalga oshiruvchi dasturning lingvistik bazasini yaratishda har bir so‘zning affikslar bilan kelish holati alohida-alohida ko‘rib chiqish, katta yutuqlarga erishish garovidir. Ammo bunga ko‘p vaqt, fizik mehnat talab qilinishi hisobga olinib<sup>135</sup>, ishning optimal varianti o‘ylab chiqildi. Bunda har bir turkum doirasidagi so‘zlar, ya’ni turkum tarkibi ma’no guruhlariga ajratildi. Shuni nazarda tutib, ot turkumidagi so‘zlarning umumiy semantikasi va affikslar kombinatsiyasini o‘ziga biriktirishdagi yaqinliklari hisobga olinib, quyidagi semantik guruhlarga taqsimlandi:

1. Fan, sohalarga oid termin va tushunchalar.
2. Tashkilot, muassasa nomlari.
3. Adabiyot terminlari.
4. Shaxsni bildiruvchi otlar.
5. Narsa va buyum nomlari.
6. Ko‘plik morfemasini oluvchi mavhum otlar.
7. Faqat birlikda qo‘llanuvchi mavhum otlar.

<sup>135</sup> Bu haqdagi manba: Abjalova M., Toshimov R. Matnlarni lingvistik tahrirlashning psixologik asoslari. “O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyot va ijtimoiy-falsafiy tafakkur yangilanishi” (Yosh olimlar ilmiy konferensiyasi materiallari), II qism – T. 2011. – B. 155-158.

8. Oziq-ovqat nomlari.
9. Odam tana a'zosi nomlari.
10. Kimyoviy modda nomlari.
11. O'simlik, tog' jinslari nomlari.
12. Millat, elat, qabila, urug' nomlari.
13. Jarayon nomlari.
14. Baliq nomlari.
15. Hayvon nomlari.
16. Voqea-hodisa nomlari.
17. Vaqt, faslni bildiruvchi nomlar.
18. Soha nomlari.
19. Qushlar, hashoratlar nomi.
20. Kasallik nomlari.
21. Joy, bayram nomlari.
22. Holat (*yo 'qsil, megajin, onaxotin, jazman, ofatijon,...*), laqab.
23. Faqat inkor shaklli otlar.


Turdosh otlar lisoniy maydon guruhiiga yer osti va yer usti kon boyliklari nomlari (*oltin, kumush, qum, suv*), o'rinn-joy nomlari (*qishloq, shahar, sahro*), o'simlik nomlari (*daraxt, buta, o't*), jihoz va buyum nomlari (*mebel, deraza, eshik, kitob, qalam*), vaqt nomlari (*soat, minut/daqiqa, sekund/soniya, yil, oy, kun, tong, kech*), miqdor nomlari (*kilogramm/kg, gramm/gr, litr/l, botmon, misqol*), tashkilot, muassasa, idora nomlari (*maktab, idora, do'kon, maskan*), shaxs tavfsifi nomlari (*chol, yigit, boy, bek, kampir*) kiritildi.

Guruhlarga ajratilgan so'zlarga affikslar kombinatsiyasi qatori tuziladi va ular so'zlarga biriktirib chiqiladi. Bunda affikslarning semantik guruhlardagi so'zlarga birikishning mantiqiy imkoniyatlariga asoslaniladi. Quyidagi tasvirda *assess* so'ziga affikslarning biriktirilgan holati keltirildi. Birinchi bo'limda leksemaning so'zlar qatoridan tanlab olinishi, ikkinchi bo'limda tanlab olingan leksemaning amalda o'ziga biriktirishi mumkin bo'lgan affikslar kombinatsiyasi, nihoyat, uchinchi bo'limda affikslarning tanlab olingan leksemaga birikkan holati berildi. Natija quyidagicha ko'rinish oldi:

Tanlab olingan leksema: *assess*

Affikslar kombinatsiyasi: 129 ta

Dasturga kiritilish holati: 130 ta (129+ 1(asos/lemma))



### 15-rasm. Lingvistik bazaning tahrirlash oynasi.

Bir so‘zshakl bir qancha so‘zning grammatik formasiga to‘g‘ri kelishi mumkin. Bunday holda so‘zlarni farqlash uchun matn kirituvchiga shunday so‘zlar varianti ko‘rsatiladi va matn teruvchi so‘zlardan muvofiqini tanlab qo‘yadi. Ushbu jarayon MTda ham kuzatiladi, ya’ni so‘zning xato yozilgani aniqlangach, matn teruvchiga tanlab qo‘yish imkonini beruvchi so‘zlar varianti taqdim etiladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar va tasvirlar amaliyot jarayoni sifatida berildi.

Ot turkumini modellashtirishda o‘zak so‘zlarga quyidagi affikslar qo‘shilishi e’tiborga olindi:

- qarashlilik affiksi: q\_a= *-niki*;
- o‘rin-joy oti affiksi: ñ\_j= *-dagi*;
- chegaralash affiksi: ch\_a[3]= {*-gacha*, *-kacha*, *-qacha*};
- ko‘plik affiksi: k\_a= *-lar*;
- kelishik affikslari (variantlari bilan): ke\_a[7] = {*-ning*, *-ni*, *-ga*, *-ka*, *-qa*, *-da*, *-dan*};
- egalik affikslari: e\_a[6]={*-m*, *-ng*, *-si*, *-miz*, *-ngiz*, *-lari*};
- egalik affikslari: e\_a'[6]={*-im*, *-ing*, *-i*, *-imiz*, *-ingiz*, *-lari*};
- substantiv shakl yasovchi affiks: sh\_y= *-lik*;
- inkor shaklni hosil qiluvchi affiks: [inkor]= *-siz*;
- affiks-yuklama: aff.Part[ 14]= *-chi*, *-a*, *-ya*, *-ku*, *-da*, *-u*, *-yu*, *-mi*, *-gina*, *-kina*, *-qina*, *-oq*, *-yoq*, *-dir*.

Ushbu affikslar quyidagi ketma-ketlikda kombinatsiya hosil qiladi:  
Asos – Lemma<sub>ism</sub> = L<sub>ism</sub>

S – so‘z yasovchi affiks

L<sub>ism</sub>= kitob

L <sub>ism</sub> + A1	derivation> kitoblar
L <sub>ism</sub> + A2	derivation> kitobim
L <sub>ism</sub> + A3	derivation> kitobni
L <sub>ism</sub> + A5	derivation> kitobdag'i
L <sub>ism</sub> + S+A6	derivation> kitobxonni
L <sub>ism</sub> + A7	derivation> kitobgacha
L <sub>ism</sub> + A8	derivation> sariqroq
L <sub>ism</sub> + A9	derivation> kitobmi
L <sub>ism</sub> + A10	derivation> kitobsiz
L <sub>ism</sub> + A11	derivation> kitobgina
L <sub>ism</sub> + A12	derivation> kitoblig'i
L <sub>ism</sub> + A13	derivation> kitobdek
L <sub>ism</sub> + A1+ A2	derivation> kitoblarim
L <sub>ism</sub> + A1+ A2+A3	derivation> kitoblarimdan
L <sub>ism</sub> + A1+ A2+A9	derivation> kitoblarimku
L <sub>ism</sub> + A1+ A2+A3+A9	derivation> kitoblarimniku
L <sub>ism</sub> + A1+ A2+A3+A10	derivation> kitoblarimnimas
L <sub>ism</sub> + A1+ A2+A3+A10+A9	derivation>
L <sub>ism</sub> + A5+ A1+A2+A3+A10+A9	kitoblarimdanmasmi
L <sub>ism</sub> + S+A5+ A1+A2+A10+A9	derivation>
	kitobdagilarimdanmasdir
	derivation>
	kitobxondagilardanmasku

Algoritmlar ketma-ketligi shu tartibda davom ettiriladi.


### Orfografik qoidalar

**Qoida:** “i” unlisi bilan boshlanadigan lug‘aviy shakl yasovchi affikslar o‘zidan oldingi fonemaning undosh bo‘lishini talab qiladi. Masalan: *kitob+im*, *ko‘z+ing*, *nutq+imiz*, *stol+ingiz*

-k va -q tovushlari bilan tugaydigan so‘zlarga -k va -q tovushlari bilan boshlanadigan (-ka, -qa, -kacha, -qacha) affikslarning qo‘shilish algoritmi:

**Qoida.** L – sifatida A asos harflari soni olinadi ( $L = \text{length}(A)$ ). S – L o‘lchamli A asosning harflarini o‘zida saqlovchi massiv ( $S[L] = A$  asosning oxirgi harfini o‘zida ifodalaydi).

**Qoida.** Agar ( $S[L]=k$ ) tenglik o‘rinli bo‘lsa, ya’ni asosning oxirgi harfi -*k* tovushi bilan tugasa, A – asosga *k*- tovushi bilan boshlanadigan affikslar qo‘shiladi (16-rasm).



16-rasm. Dasturda k harfi bilan tugaydigan so‘zlarga affiks qo‘shilishi.

**Qoida.** Agar  $S[L]=q$  tenglik o‘rinli, ya’ni asosning oxirgi harfi -*q* tovushi bilan tugagan bo‘lsa, A – asosga *q*- tovushi bilan boshlanadigan affikslar qo‘shiladi. M-n: *bilak* ∪ *kacha* ⇒ *bilakkacha*, *buloq* ∪ *qacha* ⇒ *buloqqacha*, *ko‘k* ∪ *ka* ⇒ *ko‘kka*, *kurak* ∪ *ka* ⇒ *kurakka*, *hashak* ∪ *ka* ⇒ *hashakka*

### **-*k* / -*q* tovushlari bilan tugaydigan so‘zlarga egalik affikslarining qo‘shilish algoritmi**

**Qoida.** Agar ( $S[L]=k$ ) tenglik o‘rinli bo‘lsa, ya’ni asosning oxirgi harfi -*k* tovushi bilan tugasa A – asosning oxirgi harfi -*g* tovushiga o‘zgaradi. M-n: *bilak* ∪ *im* ⇒ *bilag* ∪ *im* = *bilagim*, *tilak* ∪ *im* ⇒ *tilag* ∪ *im* = *tilagim*, *chelak* ∪ *im* ⇒ *chelag* ∪ *im* = *chelagim* va h.k.

**Qoida.** Agar  $S[L]=q$  tenglik o‘rinli bo‘lsa, ya’ni asosning oxirgi tovushi -*q* tovushi bilan tugasa, A – asosning oxirgi tovushi -*g* tovushiga o‘zgaradi. Misol sifatida quyidagilarni ko‘ramiz: M-n: *buloq* ∪ *i* ⇒ *bulog* ∪ *i* = *bulog‘i*, *buzoq* ∪ *i* ⇒ *buzog‘* ∪ *i* = *buzog‘i*, *tuzoq* ∪ *imiz* ⇒ *tuzog‘imiz*, *suvoq* ∪ *i* ⇒ *suvog‘* ∪ *i* = *suvog‘i* va h.k.

Bunday tovush o‘zgarishiga uchraydigan so‘zlar guruhlashtiriladi va amalda qo‘llaniladigan affikslar kombinatsiyalari algoritm orqali ularga qo‘shiladi.

**Qoida.** Shunday so‘zlar borki, ular  $q/k$  tovushi bilan tugashiga qaramasdan tovush almashinuviga uchramaydi,  $S[L]=q$  ( $S[L]=k$ ) tenglik o‘rinli bo‘lsa, ya’ni asosning oxirgi harfi  $-q$  ( $-k$ ) tovushi bilan tugasa ham, A – asosning oxirgi harfi o‘zgarishsiz qoladi. M-n:  $ravnaq+i \Rightarrow ravnaqi$ ,  $axloq+ing \Rightarrow axloqing$ ,  $ishtirok+imiz \Rightarrow ishtirokimiz$ ,  $ocherk+i \Rightarrow ocherki$ .

[nok / chok / park / erk / ko‘rk / idrok / huquq / nutq / zavq]  $\cup$  [e\_a[6]={ -im, - ing, -i, -imiz, -ingiz, -lari } ] =  $S[L]=q$  ( $S[L]=k$ ). Bunday so‘zlar alohida guruhgaga jamlanib, affikslar kombinatsiyasi biriktiriladi.

### **Egalik affikslari qo‘shilganda asosda tovush tushirilishi algoritmi**

**Qoida.** A – asosga bevosita egalik affikslari quyidagi qoida asosida qo‘shiladi:

A asosning L-1 – harfi, ya’ni  $S[L-1]$  harf o‘chiriladi va oxirgi L – harfi o‘chirilgan L-1 – harf o‘rniga qo‘yiladi. Natijada L uzunlikdagi asos L-1 uzunlakka ega bo‘ladi, egalik affiksi qo‘shilgandan keyin N natijaviy so‘zshakl hosil bo‘ladi. Misol:  $shahar \cup im \Rightarrow shahr \cup im \Rightarrow shahrim$ ,  $burun \cup i \Rightarrow burn \cup i \Rightarrow burni$ ,  $qorin \cup i \Rightarrow qorni$  va h.k.

[o‘g‘il / o‘rin / egin / og‘iz / bo‘yin / bag‘ir / qo‘yin / singil / ko‘ngil / bo‘g‘iz / yarim / zahar]  $\cup$  [ e\_a[5]={ -im / -ing / -i / -imiz / -ingiz } ]  $\rightarrow S[L-1]$

**Qoida.** *parvo*, *obro‘*, *avzo* leksemalariga egalik affikslari qo‘shilganda, “y” tovushi orttiriladi, ya’ni [*parvo* / *obro‘* / *avzo*]  $\cup$  [ e\_a[5]={ -im / -ing / -i / -imiz / -ingiz } ]  $\rightarrow S[L+u]$ .

**Qoida.** *mavzu* leksemasiga egalik affikslari qo‘shilganda, “y” tovushi orttiriladi, ya’ni [*mavzu*]  $\cup$  [ e\_a[4]={ -im / -ing / -imiz / -ingiz } ]  $\rightarrow S[L+y]$ : *mavzuyim*, *mavzuying*, *mavzuyimiz*, *mavzuyingiz*. Qolgan III shaxs egalik affikslarini o‘zgarishsiz qabul qiladi, ya’ni [*mavzu*]  $\cup$  [ e\_a[2]={ -si / lari } ]  $\rightarrow N$  : *mavzusi*, *mavzulari* va h.k.

### **Ot turkumi paradigmatic va nopaladigmatik shakllarining ketma-ket kelish me’yorlari**

**Qoida.** A  $\cup$  lug‘aviy shakl yasovchi affikslar  $\cup$  sintaktik shakl yasovchi affikslar. Misol: *uka*  $\cup$  *jon*  $\cup$  *im*, *ona*  $\cup$  *gina*  $\cup$  *m*  $\cup$  *ni*, *qo‘zi*  $\cup$  *choq*  $\cup$  *qa*

**Qoida.** A asosga shakl hosil qiluvchi affikslar hamisha qo‘shilaveradi.

**Qoida.** e\_a[11] A asos yoki lug‘aviy shakl hosil qiluvchi affikslardan so‘ng qo‘llaniladi: *kitobim, dadaim, sumkachaung, buvijoningiz* va h.k.

### 3.1.2. Fe’lni formallashtirish moduli

Fe’l turkumi boshqa so‘z turkumlariga nisbatan boy va murakkab grammatik kategoriylar, shakllar sistemasiga ega. Ushbu izlanishda mavjud nazariy adabiyotlarga tayangan holda (avtomatik tahrir dasturlari uchun) fe’llarni formallashtirishga e’tibor qaratildi (ilovada 6-jadval).

Ma’lumki, adabiyotlarda fe’llar kategorial va funksional shakllarga ajratiladi. Kategorial shakllar fe’lning ma’lum bir grammatik kategoriyasiga xos grammatik ma’nolarni ifodalaydi: nisbat, mayl, zamon va shaxs-son kategoriylariga xos shakllar shular sirasidandir. Funksional shakllar fe’lning turli gap bo‘laklari vazifasida kelishiga xoslanadi. Ularga sof fe’l shakli, harakat nomi shakli, sifatdosh va ravishdosh shakli kiradi.

Asos fe’l (lemma, o‘zak, etakchi morfema) V ning kategorial shaklini hosil qilishda to‘rt turdagи morfemalar guruhi e’tiborga olindi:

1. Nisbat kategoriysi (x).
2. Shaxs-son kategoriysi (u).
3. Zamon kategoriysi (z).
4. Mayl kategoriysi (m).

Fe’l asoslariqa qo‘silib, gapda uni kesim vazifasida qo‘llanilishiga xoslovchi shakllar fe’lning munosabat yoki sintaktik shakl yasovchi shakllari hisoblanadi, ya’ni bunday shakllardagi fe’l gapda kesim vazifasida keladi (sintaktik tahlil moduli bosqichi). Yuqoridagi to‘rt turdan shaxs-son, zamon, mayl kategoriyalari munosabat shakllaridir. Ushbu shakllardan holi fe’l asosi fe’lning noaniq shakli, ya’ni fe’l lemma hisoblanadi.

Formal grammatika nuqtayi nazaridan kategorial shakllarni quyidagicha formallashtirish mumkin:

1. Nisbat kategoriysi – x

1.1 Aniq nisbat –  $x_1$ , Ø morfema: *ishla, qil, o‘qi, ko‘r, kel, och, chiq, bo‘ya, cho‘z, yuv* va h.k.

- 1.2 O‘zlik nisbat –  $x_2$

$x_2(1.1) = -n; x_2(1.2) = -in$ : *taran(di), yuv(in(di))*;

$x_2(2.1) = -l; x_2(2.2) = -il$ : *bo‘yal(di), cho‘zil(di)*.

- 1.3 Orttirma nisbat –  $x_3$

$x_3(1) = -tir$ : *buyurtir, o‘stir*;

$x_3(2) = -dir$ : *qildir, ochdir*;

x<sub>3</sub>(3)= -ir: *ochir, ko 'chir;*  
 x<sub>3</sub>(4)= -ar: *qaytar, chiqar;*  
 x<sub>3</sub>(5)= -iz: *oqiz, tomiz;*  
 x<sub>3</sub>(6)= -giz, -g'iz, -g'az. Jarangli undosh<sup>136</sup> bilan tugagan fe'lga qo'shiladi: *ko 'rgiz, yurg'iz, turg'az;*

x<sub>3</sub>(7)= -kiz, -qaz, -kaz. Jarangsiz<sup>137</sup> undosh bilan tugagan fe'lga qo'shiladi: *ketkiz, o 'tqaz, o 'tkaz;*

x<sub>3</sub>(8)= -qiz: *yutqiz;*

x<sub>3</sub>(9)= -sat: *ko 'rsat;*

x<sub>3</sub>(10)= -(i)t: *to 'lat, ishlat, o 'qit, kirit, yurit.*

#### 1.4 Birgalik nisbati – x<sub>4</sub>

X<sub>4</sub>(1.1)= -sh; X<sub>4</sub>(1.2)= -ish: *ishlash(di), ko 'rish(di), turish(di).*

#### 1.5 Majhul nisbat – x<sub>5</sub>

x<sub>5</sub>(1.1)= -n; x<sub>5</sub>(1.2)= -in: *ishlan(di), qilin(di);*

x<sub>5</sub>(2.1)= -l; x<sub>5</sub>(2.1)= -il: *o 'qil(di), ko 'ril(di).*

(Fe'lning munosabat shakllari)

2. Shaxs-son kategoriyasi (y). Hozirgi o'zbek adabiy tilida shaxs-son affikslarining uch asosiy turi bo'lib, ilmiy tadqiqot ishida ular to'rt tur sifatida (uchinchchi turning inkor shakli bilan) olindi.

y<sub>1</sub> ning shakllari:

Shaxs-son asosi	shaxs	birlik		ko'plik	
		affiksi	modeli	affiksi	modeli
1)o'tgan zamon xabar mayli 2)hozirgi zamon xabar mayli 3) kelasi zamon xabar mayli	I	-man	y <sub>1</sub> bir1	-(i)miz	y <sub>1</sub> ko'p1
	II	-san	y <sub>1</sub> bir2	-(i)siz	y <sub>1</sub> ko'p2
	III	-di	y <sub>1</sub> bir3	-di(lar)	y <sub>1</sub> ko'p3

y<sub>2</sub> ning shakllari:

Shaxs-son asosi	shaxs	birlik		ko'plik	
		affiksi	modeli	affiksi	modeli
1) o'tgan zamon xabar maylining -di shakli 2) -sa kelasi zamon shart mayli	I	-(i)m	y <sub>2</sub> bir1	-(i)k	y <sub>2</sub> ko'p1
	II	-(i)ng	y <sub>2</sub> bir2	-(i)ngiz	y <sub>2</sub> ko'p2
	III	Ø	y <sub>2</sub> bir3	-(di)lar	y <sub>2</sub> ko'p3

<sup>136</sup> Illovada 2-jadval

<sup>137</sup> O'sha jadvalda

**Qoida.** Mazkur shakllar fe'l (V)ning o'tgan zamon  $z_1(1)=-di$  va  $z_3(9)=-sa$  shakllaridan so'ng qo'llanadi, ya'ni V  $z_1 \cup [y_2[9]=\{-m/-im, -ng/-ing, -k/-ik, -ngiz/-ingiz, -lar\}] \rightarrow Vy_2: ishladim, ishlading, ishladik, ishladingiz, ishladilar; V z_3 \cup [y_2[9]=\{-m/-im, -ng/-ing, -k/-ik, -ngiz/-ingiz, -lar\}] \rightarrow Vy_2: ishlasam, ishlasang, ishlasa, ishlasak, ishlasangiz, ishlasalar va h.k.$

y<sub>3</sub> ning shakllari:

Shaxs-son asosi	shaxs	birlik		ko'plik	
		affiksi	modeli	affiksi	modeli
kelasi zamon buyruq- istak mayli (tub fe'l/lemma)	I	-(a)y	y <sub>3</sub> bir1	-(a)ylik	y <sub>3</sub> ko'p1
	II	-gin, Ø	y <sub>3</sub> bir2	-(i)ng, (i)nglar	y <sub>3</sub> ko'p2
	III	-sin	y <sub>3</sub> bir3	-sin(lar)	y <sub>3</sub> ko'p3

y<sub>4</sub> ning shakllari:

shaxs	birlik		ko'plik	
	affiksi	modeli	affiksi	modeli
I	-im yo'q	y <sub>4</sub> bir1	-imiz yo'q	y <sub>4</sub> ko'p1
II	-ing yo'q	y <sub>4</sub> bir2	-ingiz yo'q	y <sub>4</sub> ko'p2
III	-i yo'q	y <sub>4</sub> bir3	-lari yo'q	y <sub>4</sub> ko'p3

3. Zamon kategoriyasi – z

$z_1 =$  o'tgan zamon

$z_1(1)=-di$ : *ishladi, qildi, o'qidi, ko'rди, keldi* va h.k.;

$z_1(2)=-gan/-kan/-qan$ : *ishlagan, ekkan, chiqqan*;

$z_1(3)=-gan$  edi: *ishlagan edi, qilgan edi, o'qigan edi, ko'rgan edi, kelgan edi*;

$z_1(4)=-gandi$ : *ishlagandi, qilgandi, o'qigandi, ko'rgandi, kelgandi*;

$z_1(5)=-ar$  edi: *ishlar edi, qilar edi, o'qigan edi, ko'rgan edi, kelgan edi*;

$z_1(6)=-mas$  edi: *ishlamas edi, qilmas edi, o'qimas edi, ko'rmas edi, kelmas edi*;

$z_1(7)=-(a)yotgan$  edi: *ishlayotgan edi, qilayotgan edi*;

$z_1(8)=-(a)yotgandi$ : *ishlayotgandi, qilayotgandi, ko'rayotgandi, kelayotgandi*;

$z_1(9)=-moqda$  edi: *ishlamoqda edi, qilmoqda edi, ko'rmoqda edi, kelmoqda edi*;

$z_1(10)=-moqchi$  edi: *ishlamoqchi edi, qilmoqchi edi, ko'rmoqchi edi, kelmoqchi edi*;

$z_1(11)=-moqchi emas$  edi: *ishlamoqchi emas edi, qilmoqchi emas edi*;

$z_1(12)$ = -moqchi emasdi: *ishlamoqchi emasdi*, *qilmoqchi emasdi*, *kelmoqchimasdi*;

$z_1(13)$ = -b/ -ib: *ishlabman*, *ishlabsan*, *ishlabdi*, *ishlabmiz*, *ishlabsiz*, *ishlabdilar*.

$z_2$  – hozirgi zamon

$z_2(1)$ = -yap: *boryapman*, *boryapsan*;

$z_2(1^1)$ = -yapti: *ishlyapti*, *kelyapti*, *ko 'ryapti*;

$z_2(2)$ = -ayotib / -yotib: *borayotib*, *qilayotib*, *ishlayotib*, *boshlayotib*;

$z_2(3)$ = -moqda: *ishlamoqda*, *kelmoqda*, *qilmoqda*, *ko 'rmoqda*;

$z_2(4)$ = -yotir: *o 'qiyotir*, *qilayotir*, *berayotir*;

$z_2(5)$ = -(a)yotgan+( shaxs-sonning u<sub>2</sub> shakl affikslari) \_yo'q: *ishlayotgani* yo'q, *kelayotganingiz* yo'q, *qilayotganing* yo'q, *o 'qiyotganimiz* yo'q;

$z_2(6)$ =-(a)yotganlik (III shaxs ko'plikda)+k\_a+e\_a /-(a)yotganligi: *ishlayotganligi*, *ishlayotganligim*, *ishlayotganliging*, *ishlayotganligimiz*, *ishlayotganligingiz*, *ishlayotganliklari*.

$z_3$  – kelasi zamon

$z_3(1)$ = -y: *ishlay*, *boray*, *o 'qiy*;

$z_3(1^1)$ = -a: *bora()*di, *ko 'ra*(man), *o 'qita*(di), *qurdira*(miz);

$z_3(2)$ = -(a)r: *ishlar*, *o 'qir*, *kesar*; *kelar*, *borar*;

$z_3(3)$ = -moqchi: *ishlamoqchi*, *kelmoqchi*, *o 'qimoqchi*, *qilmoqchi*, *bo 'yamoqchi*;

$z_3(4)$ = -mas: *kelmas*, *ishlamas*, *qaytmas*;

$z_3(5)$ = -jak: *borajak*, *qilajak*;

$z_3(6)$ = -ur: *borur*, *kelur*;

$z_3(7)$ = -gusi / -g'usi: *kelgusi*, *bo 'lg 'usi*;

$z_3(8)$ = -gay: *kelgay*, *borgay*;

$z_3(9)$ = -sa: *ishlasa*(ng), *kelsa*(m), *borsa*(m).

4. Mayl shakllari (m).

Fe'l asosidagi harakat-holat maylning quyidagi to'rt turi orqali ifodalanadi:

1. Xabar mayli: Ko'rsatkichi yo'q – Ø: *keldi*, *kelyapti*, *keladi*.

2. Buyruq-istik mayli. Fe'l-lemmaga -(a)y, -(a)yin, -gin, -(i)ng, -sin, -(a)lik, -(i)nglar affikslarini qo'shish yo'li bilan hosil qilinadi.

**Qoida:** undosh tovush bilan tugagan fe'l-lemmaga buyruq-istik mayli affikslarining -ay, -ayin, -gin, -ing, -sin, -alik, -nglar shakllari qo'shiladi: *boray*, *borayin*, *borgin*, *boring*, *borsin*, *boraylik*, *boringlar*.

**Qoida:** unli tovush bilan tugagan fe'l-lemmaga buyruq-istik mayli affikslarining -y, -yin, -gin, -ng, -sin, -lik, -nglar shakllari qo'shiladi: *sanay*, *sanayin*, *sanagin*, *sanang*, *sanasin*, *sanaylik*, *sananglar*. Inkor

shakli esa fe'l-lemmaga *-ma* affiksi qo'shib yasaladi: *borma, sanama kabi*.

3. Shart mayli fe'l-lemmada shaxs-son shaklidan oldin kelgan *-sa* (odatda fe'lshakldan so'ng *ham* va *-da* yuklamasi keladi), *-sa edi, -saydi* affikslari yordamida hosil qilinadi: *borsa, borsa edi, borsaydi*.

Fe'lning vazifa shakli. Fe'lning gapda turli vazifada kelishini ta'minlaydigan grammatik vositalar fe'lning vazifa shakli deyiladi. Fe'lning vazifa shakli 4 ta:

- 1) sof fe'l (fe'l-kesim);
- 2) ravishdosh (hol);
- 3) sifatdosh (sifatlovchi-aniqlovchi);
- 4) harakat nomi (ega, to'ldiruvchi).

O'z navbatida ularni ikkiga bo'lish mumkin:

- 1) kesimlik shakli: zamon, shaxs-son, mayl, bo'lishli-bo'lishsizlik;
- 2) nokesimlik shakli: ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi.

Nokesimlik shakli. Fe'lning nokesimlik shakli bo'lgan ravishdosh ravish, sifatdosh sifat, harakat nomi ot vazifasini bajaradi.

V(r) – ravishdosh.

V(r)<sub>holat</sub>: -(i)b, -a/-y; -gancha/-kancha/-qancha; -gudek/-kudek/ -qudek: *o'qib, yozib, sevinib, yura-yura, yig'lay-yig'lay, eb qo'ygudek, bitir-ib yuborgudek, shoshgancha*.

**Qoida:** *-a/-y ko'rsatkichli ravishdosh takror holda qo'llanadi: bora-bora, chopa-chopa*. Uning bo'lishsiz shakli yakka qo'llanaveradi.

V(r)<sub>payt</sub>: -gach/-kach, -guncha/-kuncha: *ko'rgach, tikkach, kelguncha; kelgach, chiqqach, borguncha, kechikkuncha*

V(r)<sub>maqsad</sub>: -gani/-kani/-qani (ba'zan -gali/-kali/-qali): *maslahatlashgani*.

**Qoida:** ravishdoshning barcha ko'rsatkichi uchun *-may (in)/ -masdan* bo'lishsiz shakl. Faqat maqsad ravishdoshi bo'lishsiz shaklga ega emas.

V(s) – sifatdosh.

V(s)<sub>o'tgan</sub>: -gan/-kan/-qan (*kelgan odam, kechikkan o'quvchi, namiqqan gilam*).

**Qoida:** *-mish o'tgan zamon sifatdoshining kam uchraydigan shakli: O'zbek adabiy tilining asoschisi hisoblanmish Navoiy....*

**Qoida:** hozirgi va kelasi zamon sifatdoshi quyidagicha hosil bo'ladi:

1) -a shaklli ravishdoshga *-yotgan* affiksini qo'shish bilan. Bunda -y tushib qoladi: *o'qiyotgan bola, chopayotgan it*;

2) -a/-y shakliga *-digan* affiksini qo‘shish orqali: *bor-a-digan*, *o‘qi-y-digan*;

3) -(a)r, -mas: *oqar suv*, *borar joyimiz*, *so‘nmas hayot*;

4) -(g)(u)vchi: *ishlovchi*, *tanuvchi*, *xohlovchi*, *boruvchi*, *uyg‘onguvchi*;

5) -g‘lik, -rlik, -gulik: *yasatig‘lik xontaxta*, *yopig‘lik qozon*, *qorin to‘ydirarlik bir kasb*, *arzigulik ish*.

**Qoida:** -(u)vchi, -g‘lik, -rlik, -gulik shakli uchun *-ma+gan* ko‘rsatkichi bo‘lishsiz shakl: *yasatig‘lik* – *yasatilmagan*, *to‘ydirarlik* – *to‘ydirmaydigan*; sifatdoshning -(g)(u)vchi, -g‘lik, -rlik, -gulik shakli bo‘lishsiz qo‘llanmaydi.

V(s)istak: -*gur/-kur*, -*qur/-g‘ur*: *bo‘yning uzilgur bola*, *qurg‘ur yigit*, *bo‘lmag‘ur gap*.

V(h) – harakat nomi.

**Qoida:** harakat nomi otning shakl yasovchisini olib, otga xos sintaktik vazifani bajaradi.

Grammatik shakllari:

-moq: *o‘qimoq*, *yozmoq*, *tanishmoq* (*lug‘atlarda fe‘lning noaniq shaklini beradi*);

-(i)sh: *o‘qish*, *yozish*, *tanishish*;

-(u)v: *o‘quv* (*o‘qi+v*), *yozuv*, *tanishuv*.

-r/-ar: *ucharga qanot*, *turarga joy*, *ko‘rarga ko‘z*.

-r/-ar qo‘shimchasi sifatdoshdagi shunday qo‘shimcha bilan shakldosh.

-maslik (*o‘qish* - *o‘qimaslik*) – bo‘lishsizlik shakli

**Qoida:** -*moq* va -*(i)sh* qo‘shimchasi *-lik* so‘z yasovchisi bilan qo‘llanadi: *o‘qimoqlik*, *borishlik*, *bormaslik*, *ketishlik*, *kelmoqlik*.

### Fe’l shaklining umumiy yasalish qoidasi

Fe’llarni ikki guruhga bo‘lish mumkin:

1) tub fe’llar: *yurmoq*, *o‘qimoq*;

2) yasama fe’llar: *tozala*, *gapirmoq*, *sotib olmoq*.

Yasama fe’llarni hosil qiluvchi affikslar 3.4-bo‘limda jadval asosida berildi.

**Qoida:** 1-2-3-4-turdagi morflar doimo fe’l shaklini hosil qilishda ishtirot etadi.

**Istisno qoidasi:** u formaning {-a)y, -gin, -sin, -(a)ylik, -(i)ng, -(i)nglar, -sin(lar) shakllari} = u<sub>3</sub> qo‘llanganda 3-turdagi morflar (zamon affikslari) ishtirot etmaydi: *ishlay*, *boray*, *kelsin*, *ketgin*, *quraylik*, *tuzing*, *ishlanglar*, *buyursinlar* va h.k.

**Qoida:** 1-tur morflari ( $x$ ) doimo asos fe'l (V)dan keyin qo'shiladi:  $to'la(V) \cup -t(x_3(10)) = to'lat; orttir, bildir, ko'rsat, beril, taran$  va h.k.

**Qoida:** Orttirma nisbat –  $x_3$  morflari V ga birdan ortiq qo'shilishi mumkin:  $to'la+t+tir, o'qi+t+tir, to'l+dir+giz$  va h.k.

**Qoida:** 2-tur morflari doimo 3-tur morflaridan keyin qo'shiladi.

**Qoida:** Gapda ishtirok etadigan fe'lni quyidagi qolipda ifodalash mumkin:

$$V^*x \cup z \cup u = Vx \cup z \cup u$$

$$Vx \cup z \cup u = V$$

**Qoida:** Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasida 27 ta ko'makchi fe'ldan 25 tasi -(i)b, 11 tasi -a/-y, 9 tasi har ikkala, 16 tasi faqat -(i)b, 2 tasi faqat -a/-y shakli yordamida (yoz, boshla) etakchi fe'lga birika oladi (7-jadval).

**Qoida:** Fe'lning murakkab shakli quyidagicha yasaladi:

Murakkab shakl	Tarkibi	Ma'nosi	Misol
<b>-sa kerak</b>	shart mayli shakli + modal so'z	gumon, taxmin	<i>borsa kerak tugatsam kerak</i>
<b>-gan bo'l</b>	sifatdosh shakli + <i>bo'l fe'li</i>	yuzaki bajarish	<i>qatnagan bo'ldi achinayotgan bo'ldi</i>
<b>-ganim bo'lsin</b>	sifatdosh shakli + egalik affiksi + <i>bo'l fe'li</i>	jazm qilish	<i>borganim bo'lsin qilmaganim bo'lsin</i>
<b>-(a)y de</b>	buyruq shakli + <i>de fe'li</i>	harakat chegarasi	<i>tugay dedi uchiray dedi</i>
<b>-gisi kel</b>	-gi affiksi + egalik shakli+ <i>kel fe'li</i>	harakat istagi	<i>borgisi keldi ko'rgisi keladi</i>
<b>-gan</b>	sifatdosh va ravishdosh takrorlanishi	surunkali davomiylik	<i>o'qigani o'qigan yurgani yurgan kengaygandan kengaydi</i>

## I. Fe'l shaklini hosil qilishda morflarning mos kelish va mos kelmaslik qoidasi

**Qoida:** 2-tur morfining  $u_1 = \{-\text{man}, -\text{san}, -\text{di}, -\text{miz}, -\text{siz}, -\text{di(lar)}\}$  shakli 3-tur morfining  $z_1(2), z_1(13)$  shakllari,  $z_2$  zamonning  $z_2(1), z_2(2), z_2(3), z_2(4)$  shakllari va  $z_3$  zamonning  $z_3(1), z_3(1^1), z_3(2), z_3(3), z_3(4), z_3(5), z_3(6), z_3(8)$  shakllaridan keyin qo'llanadi: *taqdirlanganman, ko'ribsan; kurashyapmiz, borayotibmiz, kelmoqdasiz, qurayotirlar; ishlayman, borasan, kelarman, tashlamoqchisan, qaytmasman, borajakmiz, borurmiz, kelgaymiz* va h.k.

**Qoida:** 2-tur morfining  $u_2 = \{-(i)m, -(i)ng, -(i)k, -(i)ngiz, -dilar\}$  shakli 3-tur morfining  $z_1(1), z_1(4), z_1(5), z_1(6), z_1(7), z_1(8), z_1(9), z_1(10), z_1(11), z_1(12)$  shakllari,  $z_2$  zamonning  $z_2(5), z_2(6)$  shakllari va  $z_3$  zamonning  $z_3(9)$  shakllari bilan birka oladi: *keldim, kelgandim, kelar eding, kelmas edik, kelayotgan edingiz, kelayotgandim, kelmoqda edilar, kelmoqchi eding, kelmoqchi emas edik, kelmoqchi emasdim; kelayotganliging, kelayotganim yo'q; kelsang* va h.k.

**Qoida.**  $z_1(13) = -b/-ib$  morfi bilan yasalgan o'tgan zamon shaklidan so'ng shaxs-son kategoriyasining  $z_1$  shakli qo'llaniladi, ya'ni  $V u_1(13) = [-b/-ib] \cup z_1$ : *ishlabman, ishlabsan, ishlabdi, ishlabmiz, ishlabsiz, ishlabdilar* va h.k.

**Qoida:** edi, ekan, emish, emas to'liqsiz fe'llaridan so'ng 2-tur morfning  $y_2$  va  $y_1$  shakllari qo'llanishi mumkin, ya'ni  $V \cup V_{to'liqsiz} \rightarrow V \triangle [edi, ekan, emish, emas] \cup u$ : *ishlagan ekansan, sudlangan ekansiz, qurar emishsiz, turar ekanmiz* va h.k.

**Qoida:** 2-tur morfining variantlari ( $z_1, z_2, z_3, z_4$ ) hech qachon bir-biri bilan birikmaydi.

**Qoida:** 1-tur morfining  $x_4$  (birgalik nisbati) va  $x_5$  (majhul nisbat) affikslari doim 2-tur hamda 3-tur morflari bilan birga qo'shiladi:

$V x_4 \cup z; V x_4 \cup z \cup u$ : *ko'r+ish+di, qur+ish+gan; kel+ish+di+m, qur+ish+di+k* va h.k.

$V x_5 \cup z; V x_5 \cup u; V x_5 \cup z \cup u$ : *ishla+n+gan, buyur+il+di; qor+il+sin, ber+il+sin* va h.k.

**Qoida:** 1-tur morfining  $x_1$  (aniq nisbati),  $x_2$  (o'zlik nisbat) va  $x_3$  (orttirma nisbat) affikslari 2-tur hamda 3-tur morflarisiz qo'llana oladi: *ko'r, qur, ishla; ko'rin, taran, yasan; ko'rsat, ishlat, qildir* va h.k.

**Qoida:** 1-tur morfining  $x_2$  (o'zlik nisbat),  $x_3$  (orttirma nisbat) va  $x_5$  (majhul nisbat) affikslari fe'l yasovchi affikslardan oldin qo'shilishi mumkin:

$V x_{2,3,5} \cup V$  morfems  $\rightarrow maqta+n+choq, kuy+in+chak; qur+il+ma, qaz+il+ma; achi+t+qi, ko'r+gaz+ma$  va h.k.

**Qoida:** 1-tur morfining variantlari ( $x_1, x_2, x_3, x_4, x_5$ ) ketma-ket birikadi: *beza+n+tir+il(di)*, *ishla+t+tir+ish(di)*, *qur+dir+tir+il(gan)* va h.k.

## II. Morfonologik va fonologik qoidalar

**Qoida:** Morflarning ayrim shakllari qavs ichida berilgan yoki “/” belgisi bilan ajratilgan *i* va *a* unlilari o‘zidan oldingi fonemaning undosh bo‘lishini talab qiladi. Masalan: *bit+ir*, *bor+ayotgan*, *qil+in+ayotgan*, *ko‘r+il(di)* va h.k.

**Qoida:**  $z_3$  ning  $z_3(1)$  formasi (ya’ni -y) so‘z yasovchi *-la* affiksi bilan yoki unli fonema bilan birikadi: *ishlay*, *gullay*, *to‘lay*, *bitay*, *tugatay* va h.k.

**Qoida:** *-la* bilan tugagan fe’llar hech qachon  $z_3(1')$  bilan birikmaydi.

**Qoida:**  $z_3$  ning  $z_3(1^1)$  formasi (ya’ni -a) faqat undosh harf bilan birika oladi: *qiynal+a(di)*, *bor+a(man)*, *ko‘r+a(di)* va h.k.

## III. Orfografik qoidalar

**Qoida.** unli tovush bilan tugagan (*ishla*, *o‘qi*, *kuyla*, *boshla* kabi) tub fe’l (V)ga y<sub>1</sub> ning shakllari qo‘shilganda, y tovushi orttiriladi, ya’ni [ishla/o‘qi/]  $\cup$  [y<sub>1</sub>[6]={-man, -san, -di, -miz, -siz, -dilar}]  $\rightarrow$  V[L+ y]: *ishlayman*, *ishlaysan*, *ishlaydi*; *ishlaymiz*, *ishlaysiz*, *ishlaydilar* va h.k.

**Qoida:** *edi*, *ekan*, *emish*, *emas* to‘liqsiz fe’llari ajratib yoziladi, ya’ni V  $\cup$  to‘liqsiz fe’llar  $\rightarrow$  V $\triangle$ [*edi*, *ekan*, *emish*, *emas*]: *borgan edi*, *ishlar ekan*, *tinmas emish*, *ko‘rkam ekan* va h.k.

**Qoida:** To‘liqsiz fe’llar boshidagi *e* unlisi tushib qolganda, har ikkala fe’l qo‘shib yoziladi va ular V+V<sub>1</sub> ning ekvivalenti hisoblanadi. Ekvivalent holatlari ishda (...) tarzida berilgan.

**Qoida:** Ravishdosh bo‘lgan biror felning birikishidan yasalgan qo‘shma fe’llar ajratib yoziladi. Uning qolipi kuyidagicha:

$$\begin{aligned}
 & V + -a \cup V_2 + \dots \\
 & V + -y \cup V_2 + \dots \\
 & V + -b \cup V_2 + \dots \\
 & V + -ib \cup V_2 + \dots
 \end{aligned}
 \quad \left. \begin{array}{c} \curvearrowright \\ \curvearrowright \end{array} \right\} \quad \rightarrow \quad V_4$$

**Istisno qoidasi:** qo‘shma fe’lning ikkinchi qismi (V<sub>2</sub>) *olmoq* fe’li bo‘lsa, birinchi qism (V) *a* tovushi bilan tugagan bo‘lsa u holda *a* tushib qolishi va ikkita fe’l qo‘shilib yozilishi mumkin. Uning qolipi quyidagacha:

$$V + a \negcup ol + \dots \Rightarrow V_3$$

Misol: V = yoz;  $yoz + a \wedge ol+di+m \Rightarrow yozoldim$

**Qoida.** *yemoq, demoq* fe'l shakllariga -il majhul nisbat va -ish birgalik nisbat affikslari qo'shilganda asosdan so'ng bir -y- tovushi orttiriladi, ya'ni V(e, de)  $\cup$  [-il/-ish]  $\rightarrow$  [{e/de}+y  $\cup$  {il/ish}]  $\rightarrow$  *yeyil, yejish, deyil, deyish*.

**Qoida.** *a* va *i* unlilari bilan tugagan fe'llardan -v affiksi yordamida harakat nomi yasalganda, *a* tovushi *o* tovushiga va *i* tovushi *u* tovushiga almashadi. Misol: *sayla*  $\rightarrow$  *saylov*, *o'qi*  $\rightarrow$  *o'quv*, *to'qi*  $\rightarrow$  *to'quv* va h.k.

**Qoida.** Agar ( $V[L]=k$ ) tenglik o'rinli bo'lsa, ya'ni asosning oxirgi harfi -k tovushi bilan tugasa V – asos fe'lga -gan sifatdosh yasovchi affiks, -gach, -guncha, -gudek, -gancha, -gani ravishdosh yasovchi affikslarining k- tovushi bilan boshlanadigan varianti birikadi, ya'ni ( $V[L]=k$ )  $\cup$  [kan / kach / kuncha / kudek / kancha / kani]. Masalan: *ekkan, birikkach, tikkancha* va h.k.

**Qoida.** Agar ( $V[L]=q$ ) tenglik o'rinli bo'lsa, ya'ni asosning oxirgi harfi -q tovushi bilan tugasa, yuqorida ko'rsatilgan affikslarning q- tovushi bilan boshlanadigan varianti birikadi, ya'ni ( $V[L]=q$ )  $\cup$  [qan / qach / quncha / qudek / qancha / qani]. Masalan: *boqqan, yoqquncha*.

### 3.1.3. Sifatni formallashtirish moduli

Sifat turkumi (Adj)ga xos leksemalar, asosan predmetning, qisman harakatning belgisini bildiradi va darajalanuvchi leksemalar hisoblanadi: *oq ko'ylak, oqroq mato, oppoq paxta*.

Boshqa so'z turkumlari nutq jarayonida belgini ifodalasa sifat barqaror va turg'un belgi ifodalashi jihatidan ulardan ajralib turadi<sup>138</sup>.

Sifatning belgi bildirishi, darajalanishi uning morfologik xususiyati hisoblansa, gapda, asosan, sifatlovchi-aniqlovchi, ba'zan kesim, ayrim hollarda hol vazifasida kelishi sintaktik xususiyati sanaladi. Bu xususiyatlar sifatlarning morfologik va sintaktik tahlilida muhim ahamiyat kasb etadi.

Belgi xususiyatiga ko'ra sifatning asliy va nisbiy sifatlarga ajratilishi ta'minotda o'z o'rniga ega bo'lib, bu holat darajalanuvchi sifatlar bazasini yaratishga imkon beradi, ya'ni mavjud sifatlar ikki: asliy va nisbiy sifatlar guruhiga kiritiladi. Ma'lumki, asliy sifatlar narsa-predmetning turg'un, nisbatlanmaydigan va darajalanadigan belgisini ifodalaydi: *qizil, sariq, kichik, oz*<sup>139</sup>. Shundan so'ng asliy sifatlarning darajalanish modullari

<sup>138</sup> Sayfullayeva R. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T., Fan va texnologiya, 2009. – Б.237.

<sup>139</sup> Sayfullayeva R. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T., Fan va texnologiya, 2009. – Б.237.

beriladi. Nisbiy sifatlar darajalanish, qiyoslanishga ega bo‘lmasani va belgini qandaydir bir predmet, belgi, miqdor, o‘rin va harakatga nisbatan ifodalashi e’tiborga olinib, darajalanmaydigan sifatlar tarzida modullashtirildi. Imlo lug‘atga kiritilmagan, matnda uchraydigan sifatlar (Adj) dissertatsiya ilovasining 8-jadvalida berildi.

Asliy sifat belgining darajasini ifodalashga binoan quyidagi darajalarga ajratildi:

- 1) Oddiy daraja. Hech qanday vositasiz – Ø
- 2) Qiyosiy daraja. Yasovchi vositasi: -roq. Adj + [-roq] = qiyosiy sifat
- 3) Orttirma daraja. Yasalishi:

**Qoida:** *eng, juda, g‘irt, jiqlqa, tim, naq, zap, behad, nihoyatda, beqiyos, bag‘oyat, o‘ta so‘zlarini sifatlardan oldin keltirish orqali: eng qisqa, juda katta, nihoyatda shinam* va h.k. Bunday so‘zlar sifatlardan ajratib yoziladi.

**Qoida:** Rang-tusni bildiruvchi sifatning boshlang‘ich tovushlarini olib, unga *p, m, s* tovushini qo‘shish va yonidan chiziqcha bilan sifatning o‘zini keltirish orqali: *qop-qora, sap-sariq, ko‘m-ko‘k, bus-butun, yam-yashil qip-qizil* va h.k.

**Qoida:** Ozaytirma daraja. *-ish, -g‘ish, -mtir, -imtir, -tob, -gina, -kina, -qina* affikslari sifatlarga biriktirib, shuningdek, *och, nim, tim, sal* so‘zlarini rang-tus bildiruvchi leksemalar oldidan qo‘llash orqali: *ko‘kish, qizg‘ish, oqimtir, qoramfir, yashiltob, kattagina; och qizil, sal qora, nim sariq*. Ayrim hollarda birdaniga har ikkala usul yordamida hosil qilinadi: *sal qoramfir*.

### 3.1.4. Sonni formallashtirish moduli

Son turkumi (Num)ga xos leksemalar, asosan, predmet-hodisa, qisman harakat-holatning aniq miqdori, sanog‘i, tartibi, shuningdek, mavhum sanog‘ini bildiradi va *necha, nechta, nechanchi, qancha, qanchadan, qanchalab* kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi.

Sonlar raqamlarda quyidagicha ifodalananadi va ular tahrir tizimining grafematik tahrir bosqichida o‘z aksini topadi:

- 1) arab raqami bilan: 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 – Num<sub>arab</sub>;
- 2) rim raqami bilan – Num<sub>rim</sub>:
  - a) birlik: I, II, III, IV, V, VI, VII, VIII, IX;
  - b) o‘nlik: X, XX, XXX, XL, L, LX, LXX, LXXX, XC;
  - v) yuzlik: C, CC, CCC, CD, D, DC, DCC, DCCC, CM;
  - g) minglik: M, MM, MMM...

**Qoida:** rim raqamlaridan so‘ng chiziqcha qo‘yilmaydi.

**Qoida:** sonlar ot turkumiga xos lug‘aviy va sintaktik shakl yasovchi affikslarni hamda ularning sintaktik vazifasini bajaradi: *o‘ninchisini*, *ikkinchigacha*. *O‘nlarcha(ni)*, *uchala(ga)* sonlari bundan mustasno.

Sonlarning 0 dan 9 gacha bo‘lgan o‘n sanog‘idan hosil qilingan kombinatsiyasi cheksiz bo‘lganligi bois lingvistik ta’minotga grammatik xususiyatiga ko‘ra miqdor va tartib sonlarning yasalish qoidalari kiritildi.

**Qoida:** sanoq sonning ko‘rsatkichi yo‘q –  $\emptyset$ , ya’ni Num $\emptyset$

**Qoida:** dona son sanoq songa *-ta* affiksini affiksini qo‘shish bilan hosil qilinadi, ya’ni Num + [ta] = Num<sub>dona</sub>: *ikkita*, *uchta*, *to‘rtta*.

**Qoida:** *-ta* affiksi bir so‘ziga qo‘shilganda *r* tovushi *t* bilan almashadi, ya’ni Num bir + [ta] = bi[r $\rightarrow$ t]+[ta] = Numbitta: *o‘n bitta*, *yigirma bitta*, *o‘ttiz bitta* va h.k.

**Qoida:** chama son sanoq songa *-tacha*, *-lab*, *-larcha* affikslarini qo‘shish bilan yasaladi, ya’ni Num+[-tacha/-lab/-larcha]=Num<sub>chama</sub>: *ikkitacha*, *yuzlab*, *o‘nlarcha*.

**Qoida:** jamlovchi son sanoq songa *-ov*, *-ala*, *-ovlon* affikslarini qo‘shib yozish bilan yasaladi, ya’ni Num+[-ov/-ovlon/ -ala] = Num<sub>jamlovchi</sub>: *ikkov*, *beshovlon*, *uchala*.

**Qoida:** *-ov*, *-ala* affikslari faqat ikkidan o‘ngacha bo‘lgan sonlarga qo‘shiladi, ya’ni Num [ikki/uch/to‘rt/besh/olti/etti/sakkiz/to‘qqiz/o‘n]+[-ov/ -ala] = Num<sub>jamlovchi</sub>

**Qoida:** *-ov*, *-ala* affikslari unli (Voc) bilan tugagan sanoq sonlar (ikki, yetti, olti)ga qo‘shilganda asos qismidagi *i* unlisi tushib qoladi, ya’ni Num asosning L-1 – harfi, ya’ni S[L-1] harf o‘chiriladi va oxirgi L – harfi o‘chirilgan L-1 – harf o‘rniga qo‘yiladi. Natijada L uzunlikdagi asos L-1 uzunlakka ega bo‘ladi, jamlovchi son affiksi qo‘shilgandan keyin Num<sub>jamlovchi</sub> natijaviy so‘zshakl hosil bo‘ladi. M-n: *ikki*  $\cup$  *ala*  $\Rightarrow$  *ikk*  $\cup$  *ala*  $\Rightarrow$  *ikkala*, *olti*  $\cup$  *ov*  $\Rightarrow$  *olt*  $\cup$  *ov*  $\Rightarrow$  *yett*  $\cup$  *ov*  $\Rightarrow$  *yettov*.

**Qoida:** taqsim son sanoq songa *-tadan* affiksini qo‘shish orqali yasaladi, ya’ni Num+[-tadan] = Numtaqsim: *ikkitadan*, *beshtadan*, *oltitadan*.

**Qoida:** tartib son sanoq songa *-inchi*, *-nchi* affiksini qo‘shish orqali yasaladi, ya’ni Num+[-inchi/-nchi]=Num<sub>tartib</sub>: *birinchi*, *ikkinchchi*, *yetmish ikkinchi*.

**Qoida:** tartib sonlar arab (Num<sub>arab</sub>) raqami bilan yozilganda *-inchi*, *-nchi* affiksi o‘rnida arab raqamidan so‘ng chiziqcha yoziladi, ya’ni Num<sub>arab</sub>  $\cup$  [-inchi / -nchi  $\rightarrow$  “-”]  $\Rightarrow$  Num<sub>arab</sub>[1]  $\cup$  [-inchi / -nchi  $\rightarrow$  “-”] uy  $\Rightarrow$  1-uy.

**Istisno qoidasi:** kirill yozuviga asoslangan imlo qoidasiga binoan sanani yozishda yil va oy nomlaridan oldin chiziqcha qo'yilmaydi, lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek yozuvi imlo qoidasiga asosan chiziqcha qo'yiladi. Masalan, *1 марта, 2018 йил; 1-январ, 2019-йил* va h.k.

**Qoida:** tartib sonlar rim raqamlari bilan ifodalanganda chiziqcha qo'yilmaydi, ya'ni  $\text{Num}_{\text{rim}} \cup [-\text{inchi}/-\text{nchi} \rightarrow \{\emptyset\}] \Rightarrow \text{Num}_{\text{rim}}[\text{XI}] \cup [-\text{inchi}/-\text{nchi} \rightarrow \{\emptyset\}]$  asr  $\Rightarrow \text{XI}$  asr.

**Qoida:** *kishi, fuqaro, odam, inson* kabi shaxs otlaridan oldin *nafar* hisob so'zi qo'llaniladi yoki sanoq son bilan shaxs otlari to'g'ridan-to'g'ri ishlatiladi, ya'ni Num *nafar* [*kishi, fuqaro, odam, inson, o'qituvchi, talaba, o'quvchi, chol, kampir*]: *ikki nafar odam, ikki nafar chol* va h.k.

Num [*kishi, fuqaro, odam, inson, o'qituvchi, talaba, o'quvchi, chol, kampir*]: *bir prezident, ikki hokim, yetti bola, uch qiz, bir deputat* va h.k.

**Qoida:** hayvonlarning turdosh otlari oldidan *bosh* so'zi qo'llaniladi, ya'ni Num *bosh* [*qo'y, mol, ho'kiz, echki, qo'zichoq*]: *bir bosh qo'y, ikki bosh ho'kiz* va h.k.

**Qoida:** narsa-buyum, predmet otlari oldidan *dona* hisob so'zi ishlatiladi, ya'ni Num *dona* [*narsa-buyum, predmet*]: *bir dona daftar, yetti dona piyola, uch dona kitob* va h.k.

**Qoida:** sonlarning tuzilishiga ko'ra juft va takror turlari chiziqcha bilan yoziladi, ya'ni  $\text{Num}_x \cup \text{Num}_y \Rightarrow [\text{Num}-\text{Num}]_{\text{juft}}$ ;  $\text{Num}_x \cup \text{Num}_x \Rightarrow [\text{Num}-\text{Num}]_{\text{takror}}$ : *bir-ikki, besh-olti; ming-ming(lab), beshta-beshta* va h.k.

**Qoida:** sonlar otlashadi va ot turkumidagi so'zlarga birikadigan affikslarni oladi:  $\text{Num} \rightarrow n \Rightarrow \text{Num}_n \cup N_{\text{aff}}$ : *birdan, ikkinchini, beshalasi*.

### 3.1.5. Ravishni formallashtirish moduli

Ravish harakat-holatning bajarilish tarzi, payti, o'rni, daraja-miqdori kabi belgilarini bildiradi va qanday? qayer? qachon? qancha? so'roqlariga javob bo'ladi.

**Qoida:** ravishlar otlashadi va ot turkumidagi so'zlarga birikadigan affikslarni oladi, ya'ni  $\text{Adj} \rightarrow n \Rightarrow \text{Adj}_n \cup N_{\text{aff}}$ : *ko'pdan, ozidan, ertasiga*.

**Qoida:** ravishlar tarkibida *-ga, -dan* kelishik qo'shimchalari, *-i / -si* III shaxs birlik son egalik qo'shimchasi, *-lar* ko'plik qo'shimchasi yaxlitlanib qolgan. Shuning uchun ularga turlanish sifatida qaralmaydi, lingvistik bazaga bunday ravishlar butun lemma (asos) tarzida kiritiladi, lemmatizatsiya jarayonida ular morfemalarga ajratilmaydi: *birdan, zimdan, qo'qqisdan, yangidan, birdaniga, harbiychasiga, kechasi, kunduzi*,

*uzoqdan, oldinda, tubdan, rostdan, avvallari, kechalari, teskarisiga, uzunasiga va h.k.*

Qo'shma ravishlar quyidagicha hosil qilinadi:

- 1) *u/bu/shu/o 'sha* (ko'rsatish olmoshi) + *yer/yoq/ora/o 'rta* oti: *u yerga, bu yerda, shu yerdan, o 'sha yoqdan, bu orada, shu o 'rtada;*
- 2) *shu/o 'sha* (ko'rsatish olmoshi) + *kun/zamon/vaqt/on/asno* oti: *shu kuni, o 'sha zamon, shu zamon, shu zahoti, shu onda, shu asnoda;*
- 3) *har* (belgilash olmoshi) + *bosh/o 'rin kelishigidagi so'z: har kuni, har yili, har yoqqa, har yerda, har taraf, har dam, har zamonda, har gal, har yoqdan, har lahza;*
- 4) *bir* (son) + *bosh/o 'rin kelishigidagi so'zlar: bir yo 'la, bir kuni, bir dam, bir zumda, bir nafas, bir pas, bir on, bir onda, bir boshdan, bir zamon, birtekis, biroz, birmuncha, birtalay, birnav;*
- 5) *hamma* (olmosh) + *yoq/vaqt/zamon/joy/yer: hamma yoq, hamma vaqt, hamma zamonda, hamma joy, hamma yer;*
- 6) *qay* (olmosh) + *vaqt/choq/zamon/payt/mahal: qay vaqt, qay choq, qay zamon, qay payt, qay mahal;*
- 7) *alla* (olmosh) + *mahal/nechuk/payt/zamonlar: allamahal, allanechuk, allapayt, allazamonlar;*

Matnlardan ravishning 487 ko'rinishi aniqlandi (9-jadval).

### **3.1.6. Olmoshni formallashtirish moduli**

Olmosh (Pron) boshqa mustaqil so'z, so'z birikmasi va gap o'rnida qo'llanadi, ularga ishora qiladi yoki so'rog'ini birdiradi. Ma'lumotlar bazasiga olmoshlarning grammatik jihatdan yetti turiga mansub barcha olmoshlar kiritiladi, fonologik hamda morfonolik qoidalari modullashtiriladi.

Olmosh mustaqil turkum bo'lsa-da, o'ziga xos so'rog'i yo'q. U qaysi turkumga xos so'zni almashtirsa, shu turkum so'rog'ini oladi. o'z-o'zidan ma'lum bo'ladiki, olmoshlarning qanday qo'shimchalarni biriktirib kelishi uning qaysi turkumga ishora qilayotganiga bog'liq bo'ladi. Misol:

**Qoida:** olmosh qaysi turkumga xos so'zni almashtirsa shu turkumning morfologik xususiyatiga ega bo'ladi.

**Qoida:** olmosh otning kichraytirish shaklini olmaydi (-gina erkalash shakli bundan mustasno): *Shuginani o 'ylamay bo 'ladimi.*

**Qoida:** olmosh o'zi almashtiradigan so'z turkumining sintaktik xususiyatiga ham ega bo'ladi.

**Qoida:** olmoshlar shaxs-son kategoriyasining 4-tur morfi  $u_1 = \{-\text{man}, -\text{san}, -\text{miz}, -\text{siz},\}$  varianti shakllari bilan birikadi: *menman, sensan, bizmiz,*

*sizsiz, kimman, kimsiz, hammamiz, hech kimmiz.*

**Qoida:** kishilik olmoshlari egalik kategoriyasi affikslarini biriktirmaydi (*manim* → *manim* badiiy ifodasi bundan mustasno).

**Qoida:** o‘zlik olmoshlari egalik kategoriyasining e\_a'[6]={-im, -ing, -i, -imiz, -ingiz, -lari} varianti formalari bilan birikib keladi: *o‘zim, o‘zing, o‘zi; o‘zimiz, o‘zingiz, o‘zlari.*

**Qoida:** olmoshlar Pron ∪

- “iliq munosabatni ifodalaovchi” affiks: i\_m= *-gina: mengina;*
- qarashlilik affiksi: q\_a= *-niki: meniki;*
- o‘rin-joy oti affiksi: ñ\_j= *-dagi: sendagi;*
- chegaralash affiksi: ch\_a[3]= {-gacha, -kacha, -qacha}: *mengacha;*
- ko‘plik affiksi: k\_a= *-lar: senlar;*
- kelishik affikslari (variantlari bilan): ke\_a[5] = {-ning, -ni, -ga, -da, -dan}: *uni, menga, sendan, bizda, sizning;*
- guman shakli: gum\_a= *-dir: mendir, sendir, bizdir* va h.k.;
- affiksli yuklamalar: yuk\_a= {-mi, [-chi], [-ku], [-da], [-a], [-ya], -mikan, -mish}: *menmi, sen-chi, biz-ku, siz-da, sen-a, u-ya, bizmikan, senmish;*
- substantiv shakl yasovchi sh\_y= -lik+i → {-ligi} (*sizligi+ngiz*) affiks bilan birikib keladi.

**Qoida:** olmoshlar kelishik kategoriyasi bilan birikadi: Pron ∪ ke\_a[7] = {-ning, -ni, -ga, -ka, -qa, -da, -dan}

**Qoida:** *men* va *sen* olmoshiga *-ning, -ni, -niki* affikslari qo‘shilsa bir -*n* tovushi tushib qoladi, ya’ni Pron(men/sen) ∪ [-ning / -ni / -niki] → *mening, meni, meniki; sening, seni, seniki.*

**Qoida:** *u, shu, bu, o’sha* olmoshlariga *-ga, -da, -dan, -day, -cha* affikslari qo‘shilsa bir -*n* tovushi orttiriladi, ya’ni Pron(u/ shu/ bu / o‘sha) ∪ [-ga / -da / -dan / -day / -cha] → *u/ shu/ bu ∪ n ∪ -ga / -da / -dan / -day / -cha.*

**Qoida:** guman olmoshi turini yasovchi *alla-* prefiksi so‘roq olmoshlarining oldidan qo‘shib yoziladi, *-dir* affiksi so‘roq olmoshlaridan keyin qo‘shib yoziladi, ya’ni [*alla-*] ∪ Pron<sub>so‘roq</sub> → *allaPron<sub>so‘roq</sub>*; Pron<sub>so‘roq</sub> ∪ [-dir] → Pron<sub>so‘roq</sub>*dir: allakim, allanima; kimdir, nimadir, qanchadir* va h.k.

Olmosh (Pron)ning 126 ko‘rinishi aniqlandi (10-jadval).

### **3.2. Yordamchi va alohida olingan so‘z turkumlari moduli**

Yordamchi so‘zlar atash ma’nosiga ega bo‘lmagan, mustaqil ravishda semantik ma’no anglatmaydigan, ma’lum so‘roqlarga javob bo‘lmaydigan va gapda ma’lum gap bo‘lagi vazifasida kelmaydigan so‘zlardir. Ular mustaqil so‘zlarni yoki gaplarni bir-biriga bog‘lash, qo‘sishimcha ma’no yuklash vazifalarini bajaradi.

Yordamchi so‘zlarga ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama kiradi.

Avvalo har uch turga mansub so‘zlar guruhi shakllantiriladi, ya’ni yordamchi so‘zlar turkumiga oid so‘zlar lingvistik bazaga kiritiladi.

**Ko‘makchilarini formallashtirish.** Ko‘makchi ot, olmosh, sifatdosh va harakat nomidan keyin kelib, ularni hokim so‘zga bog‘lash uchun xizmat qiluvchi yordamchi so‘zdir. O‘zbek tilshunosligida ko‘makchilar tabiatiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: sof ko‘makchilar va ko‘makchi vazifasidagi so‘zlar (11-jadval). Tahrir va tahlil bazasi uchun lemma va uning o‘ziga biriktiradigan affikslar hamda affikslar kombinsiyasi muhim ahamiyatga egaligi bois bazaga ko‘makchilarning quyidagi holatda kiritilishi maqsadga muvofiqdir:

**Qoida:** Affiks qabul qilmaydigan sof ko‘makchilar, ya’ni ↓SofK∅ [sari, sayin, kabi, singari, yanglig‘, qadar, dovr, to, doir].

**Qoida:** Affiks qabul qiladigan sof ko‘makchilar, ya’ni ↑SofK + [-mi / -ligi / -ligidan / [-a]] → [bilan / uchun / oid] + [-mi / -ligi / -ligidan] : *bilanmi/uchunmi/oidmi; bilanligi/uchunligi/oidligi; bilanligidan/uchunligidan/oidligidan; bilan-a/uchun-a/ oid-a.*

**Qoida:** Affiks qabul qilmaydigan ko‘makchi vazifasidagi so‘zlar (Ko‘mV), ya’ni ↓Ko‘mV = [*qaramay / qaraganda / qaramasdan / ko‘ra / uzra / osha / bo‘ylab / ichra / bo‘yi / chamas / qarata / burun / vajidan / misoli / tortib*]∅.

**Qoida:** Affiks qabul qiladigan ko‘makchi vazifasidagi so‘zlar, ya’ni 1-guruh: ↑Ko‘mV =[*qarab/o‘rtasiga/o‘rtasida/o‘rtasidan/bo‘lak/tashqari / sababli/tufayli/ so‘ng/beri/ bo‘yicha/ chog‘i / yarasha / asosan / binoan / muvofiq / buyon / ilgari / boshlab / badaliga / evaziga*] ∪ [-mi/[-a /-ya] /-dir].

1-guruh: ↑Ko‘mV [*boshqa / qarshi / o‘zga*] ∪ [-mi / [-ya] / -si / -dir ].

2-guruh: ↑Ko‘mV [*haqida/to‘g‘risida/holda/yo‘sinda/ borasida/bobida*] ∪ [-gi / [-ya] / -mi].

3-guruh: ↑Ko‘mV [*tomon/ osti / usti / tepasi / oldi / orqasi / yoni / ichi / orasi / boshi / o‘rtasi / tagi / oldin / keyin / davomida*] ∪ [-ga / -da / -dan / -i / -ma / [-a] / -dagi].

**Qoida:** *uchun* va *ilan* ko‘makchilarining qisqargan shakllari chiziqcha bilan yoziladi, ya’ni ↑SofK(*uchun* / *ilan*) → [-*chun*] / [-*la*].

**Bog‘lovchilarni formallashtirish.** Bog‘lovchilar qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar va uyushgan bo‘lak o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalashda qo‘llaniladigan yordamchi so‘zlardir.

Bog‘lovchilar qo‘llanilishiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi (12-jadval):

1) yakka qo‘llanadigan bog‘lovchilar: *a*, *va*, *hamda*, *ammo*, *lekin*, *biroq*, *balki*, *holbuki*, *vaholanki*, *gar/agar/agarda*, *basharti*, *chunki*, *garchi/garchand*, *go‘yo/go‘yoki/-ki/-kim*, *esa*, *ya‘ni*, *shuning uchun*, *yo*, *yoki*, *yoxud*, *yoinki*.

2) takroriy qo‘llaniladigan bog‘lovchilar: *dam...*, *dam...*, *ba‘zan...*, *ba‘zan...*, *ham...*, *ham...*, *bir...*, *bir...*, *xoh...*, *xoh...*, *goh...*, *goh...*

**Qoida:** [a / va / hamda / esa / yo / yoki / yoxud / yoinki] bog‘lovchilarining har ikki tomonida ham tinish belgisi ishlatilmaydi, ya’ni □[a / va / hamda / esa / yo / yoki / yoxud / yoinki]□.

**Qoida:** [,]□[ ammo / lekin / biroq / balki / holbuki / vaholanki / gar/agar/agarda / basharti / chunki / garchi / garchand / go‘yo/go‘yoki / ya‘ni / shuning uchun]□ (ya’ni ushbu bog‘lovchilardan oldin vergul qo‘yiladi).

**Qoida:** -*ki/-kim* ergashtiruvchi bog‘lovchilari bilan kelgan so‘z (W)dan so‘ng vergul tinish belgisi qo‘yiladi: [W]∪{-*ki*, -*kim*}[,]

**Yuklamalarini formallashtirish.** Yuklama – ayrim so‘z yoki sodda gapga qo‘shimcha ma’no yuklash uchun qo‘llanadigan yordamchi lingvistik vosita (13-jadval).

**Qoida:** -*mi*, -*gina*, -*kina*, -*qina*, -*oq*, -*yoq*, -*dir* qo‘shimcha-yuklamalar so‘zlarga qo‘shib yoziladi: [W]∪{ *mi*, -*gina*, -*kina*, -*qina*, -*oq*, -*yoq*, -*dir* }

**Qoida:** lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida -*u*, -*yu* qo‘shimcha-yuklamalar juft so‘zlar orasida bog‘lovchi bo‘lib kelsa birinchi so‘zga chiziqcha orqali birikadi, undan so‘ng probel qo‘yiladi, ya’ni [W<sub>1</sub>]∪{ -*u*, -*yu*}□[ W<sub>2</sub>]: *katta-yu kichik*, *sen-u men* va h.k.

**Qoida:** kirill yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosida -*u*, -*yu* qo‘shimcha-yuklamalar juft so‘zlar orasida bog‘lovchi bo‘lib kelsa birinchi so‘zga chiziqcha bilan qo‘shib yoziladi, undan so‘ng kelgan so‘z bir chiziq qo‘yib yoziladi, ya’ni [W<sub>1</sub>]-{ -*у*, -*ю* }-[ W<sub>2</sub>]: *камтаю-кичик*, *насту-баланд* каби.

**Qoida:** -*chi*, -*a*, -*ya*, -*ku*, -*da*, -*u*, -*yu* qo‘shimcha-yuklamalar so‘zlarga chiziqchasi bilan qo‘shib yoziladi: [W]∪{ -*chi*, -*a*, -*ya*, -*ku*, -*da*, -*u*, -*yu* }

**Alovida so‘z turkumlari moduli.** Lingvistik protsessor bazasiga ilovada keltirilgan modallar (14-jadval), undov so‘zlar (15-jadval) va taqlidlar (16-jadval) jumlada quyidagicha tinish belgilari bilan yoziladi:

**Qoida:** jumlaning boshida kelsa undan so‘ng vergul qo‘yiladi:  
{ $\hat{A}$ =modal, undov}  $\cup$ , ]

**Qoida:** jumlaning o‘rtasida kelsa har ikki tomoniga ham vergul qo‘yiladi: [,]  $\cup$  { $\check{a}$ =modal, undov}  $\cup$ , ]

**Qoida:** quyidagi holda modal va undovlar gapning oxirida kelgan hisoblanadi va ulardan oldin kelgan so‘zdan so‘ng vergul qo‘yiladi: [,]  $\triangle$  { $\check{a}$ =modal, undov}  $\cup$ . ]

### 3.3. Lingvistik protsessorda affiksatsiya moduli

Ma’lumki, o‘zbek tilida so‘z yasalishining quyidagi usullari e’tirof etiladi:

- 1)affiksatsiya yoki morfologik usul (affiks qo‘shish) –leksema+affiks;
- 2)kompozitsiya yoki sintaktik usul (so‘z qo‘shish) – leksema+leksema;
- 3)konversiya (boshqa turkumga ko‘chish) –  $[W_1] \rightarrow [W_2]$ ;
- 4)semantik yoki leksik-semantik (leksemani yangi ma’noda qo‘llash);
- 5)abbreviatsiya (so‘zni qisqartirish).

Dastlabki bosqichda ishning ko‘lamini chegaralagan holda, birinchi galda morfoanalizatorning lingvistik bazasiga so‘z yasalishining affiksatsiya usuli modullari kiritildi.

Affiksatsiya usuli bilan yangi leksema yasash to‘rt so‘z turkumiga xos bo‘lib, ular quyidagilar: ot, sifat, fe’l, ravish.

Faqat mana shu to‘rt so‘z turkumida so‘z yasovchi qo‘shimcha mavjud. Son, olmosh, taqlid, undov va modaldan leksema yasalmasa-da, ular xuddi shu usul bilan ot, sifat, fe’l va ravish yasashda ishtirok etadi.

Ma’lumotlar bazasida hosil bo‘lgan leksema *yasalma*, *yasalma asosi lemma* deyildi.

**Boshqa turkumlardan ot, fe'l, sifat, ravish lemma yasovchi  
affikslar miqdori**

	ot lemma yasovchi affikslar	fe'l lemma yasovchi affikslar	sifat lemma yasovchi affikslar	ravish lemma yasovchi affikslar
■ jami yasovchi affikslar	114	58	117	48
■ ot lemmadan	37	17	56	18
■ fe'l dan	54	0	40	16
■ sifatdan	11	16	11	5
■ ravishdan	3	7	3	4
■ taqlid so'zlardan	1	8	3	0
■ sondam	1	3	0	0
■ olmoshdan	1	3	2	3
■ undov lemmadan	1	1	0	0
■ modal lemmadan	1	3	2	2

O‘zbek adabiy tilida so‘z yasovchi affikslar leksemaga quyidagi tartibda qo‘shiladi: ( $\text{prefiks}_1$ )+ $\text{asos}_2$ + $(\text{yasovchi affiks}_3)$  ( $xush_1xabar_2$ ;  $qabul_2 xona_3$ ;  $be_1iodob_2lik_3$ )

Dasturning lingvistik ta’minotiga o‘zbek adabiy tilida mavjud barcha yasovchi affikslar kiritildi. Bu kelajakda tahlil dasturini mukammallashtirish va yangi-yangi so‘z yasalishlarni avtomatik tahlil qilishda qulaylik yaratadi.

Ilovada so‘z turkumlaridan affiksatsiya usuli bilan so‘z yasalish modellari jadval ko‘rinishida berildi.

### Ot yasovchi affikslar

O‘zbek adabiy tilida affiksatsiya usuli bilan ot yasovchi 114 ta affiks aniqlandi. Shundan 37 tasi ot, 11 tasi sifat, 54 tasi fe'l, 3 tasi ravish, 5 taqlid, 1 son, 1 olmosh, 1 undov va 1 modal lemmaga qo‘silib, *yasalma ot lemma* hosil qiladi (17-jadval).

### Fe'l yasovchi affikslar

Fe'l yasovchi 58 ta affiks aniqlandi. Shundan 17 tasi ot, 16 tasi sifat, 3 tasi son, 7 tasi ravish, 3 olmosh, 8 taqlid, 3 modal va 1 undov lemmaga qo‘silib, *fe'l lemma* yasaydi (18-jadval).

### Sifat yasovchi affikslar

O‘zbek tilida sifat yasovchi affikslarning 117 ko‘rinishi aniqlandi. Shundan 56 tasi ot, 40 tasi fe'l, 11 tasi sifat, 3 tasi ravish, 2 olmosh, 2 modal va 3 taqlid lemmaga qo‘silib, yangi *sifat lemma* yasaydi (19-jadval).

## Ravish yasovchi affikslar

Manbalar asosida ravish yasovchi 48 ta affiks aniqlandi. Ulardan 18 tasi ot, 16 tasi sifat, 5 tasi fe'l, 4 tasi ravish, 3 olmosh va 2 modal lemmaga qo'shib, *ravish lemma* yasaydi (20-jadval).

Yasovchi affikslarning foizlardagi ko'rsatkichi tubandagicha:



## UCHINCHI BOB BO'YICHA XULOSALAR

Dissertatsiyaning uchinchi bobি so'z turkumlarining lingvistik modulini yaratishga qaratildi. Bundan maqsad ATT dasturining algoritmini tuzish orqali uning lingvistik ta'minotini shakllantirishdir.

1. Lingvistik ta'minot asosini leksik birliklar tashkil etadi. Bunday leksik birliklar muayyan turkumga mansub bo'lgan yoki turkumga ega bo'lmagan birlik sifatida ajratiladi. Bunday jihat avtomatik tahrir va tahlil dasturi bosqichlari texnologiyalarining mukammal ishlashini ta'minlaydi.

2. So'zshakllarni yuzaga keltirishda orfografik, fonologik, morfonologik hodisalar ro'y beradi. Lingvistik modulni yaratishda hozirgi o'zbek adabiy tilining lingvistik me'yorlariga matn tahriri va tahlilida asosiy lisoniy hodisa sifatida qaraladi. An'anaviy tilshunoslik me'yorlari asosida KLda grammatik qoidalarni berish, ularning algoritmini yaratish ustuvor vazifa hisoblanadi.

3. O'zbek tilidagi yasovchi qo'shimchalarni statistik jihatdan hisoblash va ularning leksik bazasi va *lemma+yasovchi affiks* modelini yaratish lingvistik ta'minotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Kompyuter uchun affikslarni so'z yasovchi va shakl yasovchi affikslar tarzida alohida bazalarga ajratish, modellarini aniqlash tahlil jarayonida muhim.

4. Matnlarni ATT qilish dasturini innovatsion ta’limning bir ko‘rinishi sifatida qayd etib, uning quyidagi imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatish mumkin:

- 1) turli hajmdagi matnlarni tezkor tahrir qiladi;
- 2) matn teruvchining yozma nutq malakasini takomillashtiradi;
- 3) foydalanuvchiga matnlarni mustaqil ravishda to‘g‘ri va savodli yozishida ko‘mak beradi;
- 4) o‘zbek tilining leksik, grammatik me’yorlarini o‘rganishda lingvistik manba vazifasini o‘taydi.

## XULOSA

O‘zbekcha matnlarni tahrir va tahlil qilish dasturining lingvistik ta’minotini yaratishda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Shu paytgacha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarida avtomatik tahrir va tahlilga qisman e’tibor berilgan, xolos. Mavjud izlanishlarda ikki til yoxud o‘zga til morfologiyasi qiyosiy-tipologik uslubda tahlil qilingan. Shunga qaramay, bu masala lingvistik tizim sifatida azaldan tilshunoslarni qiziqtirganini ko‘rish mumkin.

2. Jahon KLDagi matnlar bilan bog‘liq tadqiqotlar, o‘z navbatida, matnning tahriri va tahlili tadqiqi sari yetaklaydi, ulardagi xulosalar va olinadigan natijalarning asosli hamda ishonchli bo‘lishiga ko‘maklashadi. Ana shu g‘oyalarning amalga oshishi kompyuter lingvistikasida matnlarni qayta ishslash tadqiqotlarini yangi pog‘onaga olib chiqadi va uning amaliyotga tatbiq etilishini osonlashtiradi.

3. ATT dasturining lingvistik ta’minotini yaratish lingvistik me’yorlar va algoritmgan ega qoidalarning ishlab chiqilishi, leksikografik manbalarning ta’minotga kiritilishi, so‘zshakllar va so‘zlarning o‘zaro bog‘lanish modellari tuzilishi bilan belgilanadi. Mazkur jarayonda rasmiy va ilmiy uslubdagi matnlar mohiyati lingvistik tahlil qilinmaydi, balki mazkur uslubdagi matnlar imlosi va grammatikasini tekshiruvchi sistema yoki DT (morfoanalizator)ni yaratish tamoyillari ishlab chiqiladi.

4. Bir so‘zning uslublar doirasida o‘z qo‘llanish variantiga egaligi va ushbu uslublarning me’yorlarini hisobga olib aytish mumkinki, so‘zning hamma uslubdagi ko‘rinishi hamda affikslar bilan kelish shaklini yaratish murakkab vazifa. Shu bois ATT dasturining LTini yaratishda ilmiy va rasmiy uslublarda qo‘llaniladigan so‘z va affikslarning olinishi ishning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

